



Yusupova M.A.

**INGLIZ TILINI INTEGRATIV
O'QITISHDA DISKURSIV
ELEKTRON RESURLAR:
NAZARIYA VA AMALIYOT**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

YUSUPOVA MUXABBAT ANATOLEVNA

**INGLIZ TILINI INTEGRATIV O'QITISHDA
DISKURSIV ELEKTRON RESURLAR:
NAZARIYA VA AMALIYOT**

MONOGRAFIYA

**ZEBO PRINTS
CHIRCHIQ-2026**

**UO'K 811.111;37.0;004.9;81'42
KBK: 74.268.7 Ingl
Y-78**

Yusupova M.A. Ingliz tilini integrativ o'qitishda diskursiv elektron resurslar: nazariya va amaliyot. Monografiya. -T.: "ZEBO PRINTS", 2026. 124 b.

Taqrizchilar

Z.I.Sanaqulov- Chirchiq davlat pedagogika universiteti Nemis tili pedagogika kafedrası mudiri, p.f.d., (DSc), dotsent

B.Jafarov- Namangan davlat universiteti, Amaliy xorijiy tillar kafedrası f.f.d. (DSc), professor

Ushbu monografiya ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning nazariy asoslari yoritilgan bo'lib, uning konseptual asoslari, sintaktik-axborot tizimi, hamda semiotik xususiyatlardan foydalanish zarurati tahlil etilgan.

Shuningdek, ta'lim jarayonida ta'lim sifatini oshirishda talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlarida integrative o'qitishning shart-sharoitlari yoritilgan.

Monografiya mazkur muammo doirasida ilmiy-tadqiqot ishini olib borayotgan ilmiy tadqiqotchilar, oliy ta'lim ingliz tili fani o'qituvchilari, xorijiy til va adabiyoti mutaxassisligi magistrantlari va xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-6059-6-1

**© Yusupova M.A., 2026
© "Zebo prints", 2026**

KIRISH

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSh, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya, Shveytsariya, Janubiy Koreya, Xitoy kabilarda pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining umummadaniy bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'zga tilli leksikani o'zlashtirishning metodik asoslarini tadqiq qilish bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Davlatlarining millatlararo kommunikatsiyasi, davlatlararo aloqalarining yetakchi vositalaridan biri sifatida xorij tilini o'rganishni xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashning aloqa almashuv omillaridan biriga aylantirdi. Shu jihatdan ingliz tilini integratsiyalab o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish talabalarining nutq kompetensiyalarini o'stirishga hamda matnlarni tuzish va talqin qilishda mos metodikalardan foydalanishni nazarda tutadi va o'qish, yozish, tinglash, gapirish kabi asosiy nutq faoliyatlarini o'zlashtirish zahirida kechadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, innovatsion faoliyat, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlari takomillashtirilib, chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitishning rivojlangan didaktik va metodik asoslari yaratildi, shuningdek, ingliz tilini o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish, xorijiy tajribalarga asoslangan dasturlar ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilib, ta'lim tizimining sifat darajasini oshirishga mo'ljallangan strategik yo'nalish belgilandi. Ustuvor vazifalardan biri sifatida "xalqaro ta'lim standartlarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish va o'qitish sifatini baholash, hamda bu orqali oliy o'quv yurtlarining sifati va samaradorligini oshirish"¹ muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. Shu bilan birga, yangilanayotgan O'zbekistonda

yangicha fikrlaydigan, iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shuvchi, nafaqat o'z kasbi va sohaning bilimdoni, balki ummadaniy kompetensiyalarni egallagan, shaxsiy va maxsus malakalarni bo'lajak kasbiy malakalari bilan uyg'un holatda faoliyatida qo'llay oladigan kadrlarga ehtiyoj mavjud. Integratsiyalashgan ta'lim narxining pastligi, moslashuvchanligi, bepulligi, bundan tashqari ta'lim jarayonida murakkab texnologiyalarni qo'llash afzalligi ushbu alternativa uchun sabab bo'ladi. Bu tendensiyaga bo'lgan qiziqish ta'lim jarayonida talabalarga ta'sir etadi va ta'lim sifatini oshiradi. Shu sababli, ingliz tilini integratsiyalab o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish talabalarining raqamli dunyoda o'zini erkin tutishi, ya'ni kerakli ma'lumotlarni yuklab olishi, tahlil qilishi, onlayn kontentlardan erkin foydalana olish qobiliyatida ko'rishimiz mumkin. Vaqt o'tgan sayin ushbu tendensiyaga texnologiyalarni qo'llash asosida an'anaviy ta'limning hohlagan turi, metodi, ta'lim berish usulini kiritish mumkin.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон фармонининг 4.4 банди / Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 20.08.2018 й., 33-сон.

I-BOB. INGLIZ TILINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHDA DISKURSIV XUSUSIYATLI ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning konseptual asoslari

Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirish maqsadida xalqaro maydonda tadqiqotlar olib borishning innovasion yondashuvlarini keng joriy etishga e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish, ularning ilg'or g'oyalarini qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini barqarorlashtirishga erishiladi. Shu maqsadda "Ilmiy tadqiqot va innovasion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovasion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish"² vazifalari davlat va jamiyat barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan qator xujjatlarda aks etgan. Ilmiy va innovasion faoliyat har bir kasbning tarkibiga kiruvchi kategoriyadir. Uning mohiyati milliy va xalqaro tajribalarni tahlil qilish, shaxsiy xulosalarini shakllantirish orqali oydinlashadi. Bu jarayonda axborot bilan erkin ishlash, xorijiy tilda matnlarni izlash, topish, tanlash va tahlil qilish, zarur kontekstlarga mos ravishda qayta ishlash mashqlari muhimdir. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rgatishga oid nazariy ma'lumotlar va amaliy tajribalarni tadqiq etishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, elektron va matnli axborotlarni uyg'unlikda egallash, pirovardida egallanayotgan til madaniyatini o'rganish orqali manfaatli

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni.
<https://lex.uz/ru/docs/-5073447>

xalqlararo munosabatlarni mustahkamlash, ingliz va o'zbek tillarida nutqiy tuzilmalarning axborot-diskursiv mazmunli ishlanmalarini ishlab chiqish, ulardan foydalanishga qaratilgan metodik ko'rsatmalarni shakllantirishning o'ziga xos aspektlarini asoslab beruvchi tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 5 iyunda PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil 19 mayda PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarda ta'limning turli shakllarida axborot makonini mustahkamlash, bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini ilg'or tendensiyalar va amaliyot integratsiyasida rivojlantirish, xorijiy tilni o'rganish va amaliyotga yetakchi g'oyalarni joriy etish kabi maqsadlar mujassam.

Har bir bo'lajak zamonaviy mutaxassis o'zining kelgusi faoliyatini prognostik tasavvur qilishida albatta, o'zining til o'rganish va xorijiy tilda ish yuritish hamda raqamli muhitda erkin harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadini ko'zlaydi. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ham aynan o'quv muhitining faolligi, maxsus resurslar bilan ta'minlanganligi, til malakalariga moslashtirilgan

o'quv-lingvistik materiallarning yetarliligi muhimdir. Ayniqsa, til materiallarining real hayotda ishlatilishi, ya'ni muloqotdagi nutqiy voqelikka xosligi yanada til o'rganish jarayonini qiziqarli va motivasion tavsifini kuchaytiradi. Bunday jarayonni diskursiv xususiyatli kontekst orqali til o'rganish muhitini yaratish jarayoni deb atash mumkin. diskursiv xususiyat deganda matnning muloqotdagi faol ishlatilish tomoni ko'zda tutiladi.


Til o'qitish amaliyotida diskurs hodisasiga murojaat etish zamonaviy tilshunoslikning eng optimal va metodik mahsuldor yondashuvlardan sanalib, an'anaviy holatda lingvistik tahlil tajribalarini passivlashtirgan hodisalar sharhi, tadqiqiy izohi, diskursning grammatikaga jalb qilinishi kabilar bu yondashuvning jonli-hayotiy lisoniy jozibadorlik bilan boyitilishiga olib kelmoqda.

Tilshunoslikda diskurs ko'p tarkibli hodisa sifatida talqin qilinadi va "diskursiv burilish"ga oid xulosalar, natijalar ishonchligi hamda amaliyligi dolzarbligini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, zamonaviy nazariy tilshunoslik, ingliz tilini o'qitish metodikasini yangi g'oyalar, tahlil usullari bilan boyitadi.

Mazkur jarayon diskursning ko'p qirrali tabiatini, uning asl mohiyatini anglash va chuqur tushunish imkoniyatini yaratadi. Jumladan, diskursning struktur-semantik tashkil etilganligi, vaziyatga bog'liqligi, antroposentrik xususiyati, kommunikativ maqsadga yo'naltirilganligi (intensionallik), dinamik rivojlanishi, yaxlitligi hamda ochiq tizim sifatida namoyon bo'lishi uning asosiy belgilaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning asoslovchi bosqichida diskursning lingvosimptomatik xususiyatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, diskursning asosiy kategorial belgilari sifatida dialoglik, manzillilik, vaziyatlilik, intensionallik (kommunikativ maqsadning ifodalanishi) hamda baholanish kabi jihatlar tadqiqotning metodologik yo'nalishini belgilashda tayanch mezon sifatida qabul qilindi.

Keltirilgan belgilarning tasniflanishida diskursni freym (**freym** - "bu vaziyat odatda qanday bo'ladi?") tasvirli tuzilishi muhimdir. Zero, tasvirlashda muloqot ishtirokchilari, maqsadi, nutqiy faoliyatning kechishi, verbal va noverbal nutqiy vositalar, faoliyat natijasi-mahsuli (matn) yaqqol namoyon bo'lishi bilan qulaydir. Bunda lisoniy material diskursiv misollar hisobidan boyitiladi.³ Diskursning freym tuzilishini quyidagicha izohlash mumkin:



1.1.1-rasm. Diskursning freym tuzilishi

Nutqiy ifodalarda axborotning diskursiv jihatdan shakllanishi jarayonida ta'lim oluvchining faollashuvini o'rganishga qaratilgan ilmiy izlanishlar turli yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari hamda ilmiy markazlarida olib borilgan va bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning metodik kontekstida kuchaytirilgan.

Oxford University Language Centre (Buyuk Britaniya); University of Harvard, California State University (AQSH); Universität Bonn (Germaniya); University of Oslo (Norvegiya); University of Viyenna (Avstriya); Vrije Universiteit Amsterdam (Niderlandiya); Stroudsburg Association of Computational Linguistics (Fransiya); Shanghai Foreign Languages University (Xitoy); New Bulgarian University (Bolgariya); Dublin City University (Irlandiya); University of Toronto (Kanada); Moskva hamda Sankt-Peterburg davlat universitetlari (RF); shuningdek,

³ Ўзбек педагогик энциклопедияси. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. - 512 б.

mamlakatimizning bir qator oliy ta'lim tashkilotlaridan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universitetida olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar natijasida, jumladan, dunyo tilshunosligi tajribasida nutqiy tuzilmalarning ona tilida shakllanish xususiyatlari, tarixi va voqelanishi bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarilgan (Oxford University Language Centre, Buyuk Britaniya; Harvard University, USA); nutqiy tuzilmalar axborot-diskursiv mazmuni shakllanishi, diskursdagi vazifalari ochib berilgan (University of California, USA; Lancaster University, University of Edinburgh, Buyuk Britaniya).

Xorijiy tajribalarning tahlili shuni ko'rsatdiki, nutqiy tuzilmalarning axborot-diskursiv mazmuni xorijiy tilni o'rgatish jarayonida ta'lim oluvchilarning faol va real kontekstli nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy lingvistik hamda pedagogik yo'nalish hisoblanadi. Shuning uchun ham jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida bu jarayonni chuqur o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki ingliz tilini o'qitishda ta'lim oluvchining faqat tilning leksik, grammatik tomonini o'zlashtirishi emas, balki qabul qilingan, o'zlashtirilgan ma'lumotni diskursiv tarzda uzatishi, ya'ni real muloqot sharoitida samarali axborot almashishi asosiy maqsadga aylangan. Bunday tadqiqotlar natijasida til o'rgatish amaliyotida kommunikativ usullar, diskursiv yondashuv, interaktiv va axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi innovatsion tajribalar amaliyotga keng joriy etilmoqda. Axborot-diskursiv muhitda til o'rganuvchining mustaqil fikrlashi, tezkor mulohaza yuritishi va muloqotda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratish imkoniyati kengdir. Shunga ko'ra nutqiy tuzilmalarning diskursiv xususiyatli mazmunini shakllantirishga va individual til malakalari bo'yicha taqdim etilishiga qaratilgan tadqiqotlar orqali lingvodidaktik modellarni qayta ko'rib chiqish ehtiyoji yuzaga

kelgan. Ya'ni bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarda "faol subyekt" va "innovatsion resurs" larga asoslangan modernizatsion ta'lim tizimini rivojlantirish masalasi tadqiqqa tortilishi maqsadga muvofiqdir.

Ingliz tilini o'qitish metodikasida diskursning til taraqqiyotida va uni o'qitish amaliyotida tutgan o'rni, lisoniy birliklarning axborotning ifodalanishidagi ortiqchalikka munosabati, lisoniy soddalik va tejamkorlik hamda til birliklarining tizimli qurilishi kabi muammolar yoritib berilgan.

Xorijiy tillarni o'rgatishning zamonaviy metodikasida ijtimoiy-kognitivlik (muloqotning mazmuni, tuzilishi, adresatligi, hayotiyligi) maqomiga ega bo'ladigan axborotning ontologik xususiyatlari, tildagi yaratuvchanlik, mazmundorlikka erishish jarayoni, lisoniy birliklarning nutqiy muloqot sharoitida hosil qilish, matn yaratish faoliyatiga talabalarni tayyorlash o'ziga xos metodik kompleksni talab etadi. Bunda real nutqiy muhitda zarur lisoniy birliklarni shaxsiy leksik baza asosida hosil qilishga motivasiyalashning muhim sharti axborot-kommunikasion texnologiyalar vositasida integrativ o'qitishdir. Bu jarayonda diskursning antroposentriklik, intensionallik, vaziyatlilik, struktur-semantik yaxlitlik, ochiqlik, dinamiklik kabi xususiyatlarini innovatsion ta'lim texnologiyalari vosidasida yoritish muhim bo'lib hisoblanadi. Chunki bugungi kunda raqamli pedagogikaning metodik imkoniyatlaridan keng foydalanish bo'yicha tajribalar yo'lga qo'yilgan hamda zarur pedagogik shart-sharoitlar aksariyat ta'lim muassasalarida yaratilgan.

Raqamli texnologiyalar vositasida axborotni saqlash va uzatish jarayonlari tadqiqi, axborotning sintaktik, semantik va pragmatik turlarda filtrlanishi, ma'lumotning zarur formatlarda shakllanishi va voqelanishiga oid olib borilgan izlanishlar, ular asosida bayon qilingan fikr-mulohazalar sohaga oid nazariy qarashlar asosini tashkil qiladi. Tadqiqot mobaynida o'tkazilgan tahlillardan aniqlanishicha, xorij olimlari: O.T.Yokayama, U.Edmonson,

E.Gardiner, U. Chey⁴ larning ishlarida nutqiy faoliyatning inson organizmi, ruhiy-fiziologik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik masalalari ko'rib chiqilgan bo'lsa, Whitney W.D., Bloomfield L., Martine A.⁵ kabi olimlarning tadqiqotlarida diskursning fonetik, morfologik, leksik, sintaksis sathlari bilan bir qatorda, matn sathi ham alohida struktur semantik tabiatga ega hodisa sifatida o'rganilgan.

Sh.Safarov, D.U.Ashurova, M.R.Galieva, A.Mamajonov, A.Abdupattoev, N.Z.Normurodova⁶ lar tadqiqotlarida tilda mavjud bo'lgan faktlarni izohlash, ularning sababini aniqlash maqsadini ko'zlash, matnning tarkibiy tuzilishini va uning mazmun-mohiyatini aniqlash, ingliz badiiy diskursida antroposentrizmning verbal eksplikatsiyasi kabi masalalar o'rganilgan.

N.D. Arutyunova tilning antroposentrik tabiati haqida fikr yuritir ekan, o'z ilmiy tadqiqotlarida til orqali inson shaxsiyati, uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, bilim darajasi, voqelikka munosabati hamda boshqa insonlar bilan o'zaro aloqasi ifodalanishini alohida ta'kidlaydi.⁷ Olimning fikricha, til faqat formal

⁴ Yokoyama O.T. *Discourse and Word Order*. Amsterdam-Philadelphia: John Benjamins, 1986.;Edmondson W. *Spoken Discourse: A Model for Analysis*. -L.:Longman, 2005. - p.310.; Gardiner A. *The theory of Speech and Language*. -Oxford: Oxford University Press, 1951. - p.316.;Chafe W. L. *Discourse, consciousness, and time: The flow and displacement of conscious experience in speaking and writing*. - Chicago: University of Chicago Press, 1994. - p.344.

⁵Whitney W.D. *The Life and Growth of Language. An Outline of Linguistic Science*. -New York: Appleton and Company, 1997. - 326 p.;Bloomfield L. *Language*. - New York: Holt, Rinehart and Winston, 1933. - p.564.;Martinet A. *A functional view of language*. - Oxford: Clarendon Press, 1962. - 198 p.

⁶ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. - 300 б.; Ашурова Д. У. Матн лингвистикаси. - Тошкент: Фан ва технология, 2012. - 240 б.; Galieva M. R. *Interpretation of literary text* - Tashkent: Turon-Iqbol, 2015 - 198 p.; Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. -Фарғона, 2016. -114б.; Абдупаттоев А. Матн ва дискурс муаммолари. - Тошкент: Фан ва технология, 2016. - 210 б.; Нормуродова Н.З. Инглиз бадий дискурсида антропоцентризмнинг вербал экспликацияси. Филол.фанлари докт. дисс. автореферати. -Т., 2020. - Б. 17.

⁷ Арутюнова Н. Д. *Язык и мир человека*. - М.: Языки русской культуры, 1999. - 896 с.

tizim sifatida emas, balki inson tafakkuri va tajribasi bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yurituvchi ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Inson omilini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganayotgan tadqiqotchilarning diqqat markazida til tizimining ichki mexanizmlaridan ko'ra, uning amaliy qo'llanilishi, ya'ni nutq jarayonidagi real faoliyati turadi. Shu ma'noda, jahon tillarida muayyan darajada ortiqchalikning mavjudligi tabiiy hol sifatida baholanadi. Bunday ortiqchalik tilning muloqot vositasi sifatida barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi muhim zaxira bo'lib, uning "yashovchanligi"ni belgilaydi.

Elliptik gaplarning nutqiy tuzilmalar sifatida amalga oshishiga xos axborot-diskursiv xususiyatlar masalasi tilshunoslikda an'anaviy ravishda o'rganib kelingan bo'lsa-da, so'nggi yillarda mazkur muammoga nisbatan yangicha ilmiy yondashuvlar shakllanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda elliptik konstruksiyalarni tahlil qilishda faqat grammatik yoki semantik jihatlar bilan cheklanib qolmasdan, pragmatik, sotsiolingvistik va psixolingvistik omillarni ham hisobga olish zarurligi asoslanmoqda. Bu esa til birliklarining mazmun-mundarijasini kompleks tarzda anglash va diskurs doirasida talqin qilish imkonini beradi.

Z.I. Rasulov o'z monografiyasida diskurs hodisasiga murojaat qilishni zamonaviy tilshunoslikdagi eng samarali va istiqbolli yondashuvlardan biri sifatida baholaydi.⁸ Olimning ta'kidlashicha, diskursiv tahlilni qo'llash natijasida an'anaviy lingvistik tadqiqotlar doirasida yetarlicha e'tibor qaratilmagan qator til hodisalarini ilmiy jihatdan o'rganish va izohlash imkoni yaratiladi. Ayniqsa, diskursiv tahlil usullarining grammatika sohasiga joriy etilishi mazkur sohani "tirik" lisoniy materiallar bilan boyitishga, olingan xulosa va

⁸ Расулов З. И. Нутқий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида) 10.00.06 – Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштирма тилшунослик ва таржимашунослик филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати Бухоро – 2022

natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qilishi alohida ahamiyatga ega ekani qayd etiladi.

Muallifning ushbu fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda, shuni ta'kidlash joizki, diskursni ko'p qirrali va murakkab hodisa sifatida talqin etish zamonaviy nazariy tilshunoslikning mazmunan boyishiga, yangi g'oyalar, tahlil usullari va metodologik yondashuvlar bilan to'ldirilishiga olib keldi.

Shu nuqtai nazardan, diskursning asosiy kategorial belgilarini raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslari va raqamli ta'lim vositalariga tayanilgan holda o'rganish alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv diskursiv hodisalarni keng kontekstda tahlil qilish, ularni interaktiv va dinamik muhitda tadqiq etish hamda ilmiy natijalarning amaliy qiymatini oshirish imkonini beradi.

Biroq ingliz tilini integrativ yondashuv o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish masalalariga bag'ishlangan tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shu sababli, diskurs tarkibida axborotni shakllantiruvchi vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari, til qonuniyatlariga muvofiq ravishda muntazam shakllanib boradigan elliptik tuzilmalarni aniqlash hamda ularning stilistik vazifalarini diskursiv yondashuv asosida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitish jarayonida diskursiv xususiyatga ega elektron ta'lim resurslaridan foydalanish darajasi va ularning o'quv jarayoniga ta'sirini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda axborot birligini ifodalashda til tizimida mavjud bo'lgan muqobil vositalarni aniqlash, matnning qisqarishiga olib keluvchi omillar hamda ortiqcha axborotni bartaraf etish tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, elliptik tuzilmalarning turli til sathlarida voqelanish imkoniyatlarini o'rganish, dialogik nutq tuzilmalarining struktur turlari bilan

ularning kommunikativ salohiyati o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ochib berish masalalari ham zamon talabiga aylanib bormoqda.

Nazariy qarashlarning o'zaro yaqinlashuvi yangi yo'nalishlar, fan sohalari shakllanishiga olib keladi. Shuning bilan birgalikda, fanlar integrallashuvi bir sohada amalda bo'lgan tushuncha va usullarni ikkinchisiga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirishdan iborat bo'lmasdan, balki bunda ushbu sohalarning yangi vazifalarni shakllantirish va ularning yechimini topishga imkon yaratadigan hamkorligi nazarda tutiladi. Jumladan, lisoniy faoliyatni inson ongida kechadigan jarayonlar bilan bog'liq holda tavsiflash mo'ljali oigan ingliz tilini o'qitish metodikasi, kognitiv tilshunoslik, axborot-kommunikasion texnologiyalar shu ko'rinishdagi fanlararo integrallashuv mahsulidir. Shu jihatdan olganda tadqiqot ishimizda "integratsiya" konstruktini tahlil qilish lozim, deb topdik.

"Integratsiya" atamasi o'qitish metodikasida barqaror o'ringa ega va mazmun-mohiyati jihatidan o'qitish tizimida samarador yondashuv sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Integratsiya har soshada, xususan, jamiyatda, hayotda, turmushda, ishlab chiqarishda, ta'limda, ya'ni mikro olamdan tortib makro olamgacha integratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiya- juda keng ma'nodagi va ko'p tavsifli kontekstdagi tushuncha. Bugungi kunga kelib, insoniyat integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglash, uning rivojlantiruvchi funksiyalarini amalda qo'llay olish natijasidagina sayyoramizdagi muhim muammolarni hal qila olish mumkinligini anglagan holda, unga ehtiyoj zarurligini sezmoqda. Bu muammolarni hal qilishda, ayniqsa, pedagogikaning, ta'limdagi integratsiya jarayonining muhimligini ko'pchilik mamlakat olimlari tomonidan tahlil qilinmoqda.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida "integratsiya" atamasi bir necha ma'nolarda qo'llanilishi ta'kidlangan bo'lib, bular: "... sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha; fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa

jarayoni; differensiasiya bilan birga kechadi; ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish".

Integratsiyaning ta'limdagi nazariy va amaliy jihatdan muhimligi juda qadimdan ma'lum. Qo'shchanov M.K., Akobirov S.T., va boshqalarning "Ruscha o'zbekcha lug'at"ida: "Integratsiya bog'langan holda rivojlantirish, "integrirovat", ya'ni bir butun qilib birlashtirmoq, yaxlit holga keltirmoq", -deb bayon qilingan.⁹ Shundan kelib chiqqan holda, integratsiyani alohida elementlarni yig'ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin. Shuningdek, ko'pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmun mohiyatini aniqlash bo'yicha fikr berganlar. Mazkur fikrlarni umumlashtiruvchi jihatlar mavjud bo'lib, eng asosiysi, birlashtirish, yaxlitlashdir. Shuning uchun hozirgi kunda "integratsiya" tushunchasining aniq ta'rif, metodik adabiyotlarda, bu muammo bo'yicha shug'ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo'lgan ta'riflarda berilgan. Xususan, N.S.Svetlovskaya integratsiyani: "...aniqlangan bir jinsli elementning turli birlikda bo'lgan bir nechta bo'laklaridan yangi butun narsani (o'quv predmetlari, faoliyat turlarini) yaratish, keyin esa, bu element bo'laklarini ilgari mavjud bo'lmagan alohida yaxlit sifatga birlashtirish",- deb tushunadi.¹⁰ Ya'ni u integratsiya bir nechta o'quv predmetiga taalluqli materiallarni, o'qitish metodikasining vazifasi va umummaqsadiga tabiiy bo'ysundirish asosida tuzish usulidir deb ta'riflaydi. Integratsiyaning fanlarni o'qitishdagi imkoniyatlarini ochib beruvchi ta'rif L.N.Bakareva tomonidan berilgan. U integratsiyani fanlarning aloqasi va yaqinlashishi sifatida ochib beradi va quyidagicha ta'riflaydi: "Integratsiya-fanlararo aloqa,

⁹ Qo'shchanov M.K., Akobirov S.T. Ruscha-o'zbekcha lug'at. - Toshkent: O'qituvchi, 1984. - 368 b.

¹⁰ Светловская Н. С. Интеграция содержания обучения в начальной школе. - М.: Педагогика, 1991. - 160 с.

o'qitishni yangi sifat darajaga ko'taruvchi, ya'ni bir butun "bilimlar monoliti"ni yaratishga imkon beruvchi vosita".¹¹

Bugungi o'qitish amaliyotida nafaqat mazmuniy integratsiya, balki ta'lim jarayonini integrallash mexanizmini yaratish va amaliyotda joriy etish muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Jumladan, oliy ta'lim tizimida fanlardan DTS talablari darajasida bilim berishda va malaka talablari asosida ingliz tilini o'qitishda ta'limni boshqa fanlar bilan aloqadorligiga asoslangan integratsiyaga ehtiyoj mavjud. Shundan kelib chiqib, biz tomonimizdan "integratsiya" konstruktiga mualliflik ta'rifini shakllantirishni joiz, deb topdik.

Integratsiya - (lotincha:"integratio" - "tiklash", "to'ldirish"; "integer"- "butun")-bu fan yo'nalishlari, pedagogik hodisalar, yangi funksional vazifalar echimini topishga qaratilgan maqsadli birlashtirilgan jarayon.¹² Bunday ta'rif berishga bir qancha asoslar mavjud. Jumladan, XXI asrda chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makon yagona kommunikatsiya va axborotlar tizimiga etaklamoda. Jamiyat, davlat talab qilayotgan buyurtmaga ko'ra, oliy ta'lim bo'g'inida integratsiyaning pedagogik va didaktik muammolari mazmunini aniqlash va uni asoslash masalalari keng tadqiq etilmoqda. Ayni paytda fan, texnika va texnologiyaning yuksalishi, fanlarning integratsiyasi tobora keng quloch yozmoqda. Bunday integrativ fanlar zahirida kompleks bilim, malaka va ko'nikmalarni hamda kasbiy kompetensiyalarni talab qiluvchi yangi kasb-korliklar paydo bo'lmoqda. Shularni nazarda tutib, o'quv muassasalarida gibril va jamiyat qonunlarini zamonaviy ishlab chiqarish bilan bog'liqlikda o'rganish g'oyasi ilgari surilmoqda. Ya'ni talab va taklif mutanosibligini ta'minlashda ham integratsiya muhim richagdir.

¹¹ Бакарева Л. Н. Интеграция учебных дисциплин в современной школе. - М.: Педагогика, 2000. - 176 с.

¹² Фасмер М. Этимологический словарь русского языка: В 4 т. - М.: Прогресс, 1986. - Т. 2. - 672 с.

Integratsiya ta'riflari bir qancha metodist-olimlar tomonidan o'rganilganligini ta'kidlagan holda, ularni tizimlashtirish joiz, deb topdik (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval.

O'qitish metodikasida "integratsiya" atamasiga berilgan ta'riflar

Atamaga berilgan ta'riflar	Muallif
Integratsiya-predmetlararo bog'lanishning eng yuqori darajasi, umummetodologik prinsplar asosida muammoni kompleks o'rganish yo'li.	L.N.Bakareva
Integratsiya-bir nechta o'quv predmeti materiallari, metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy bo'ysundirish asosida tuzish usuli	L.T.Tarasov
Integratsiya-fanlararo aloqa, o'qitishni yangi sifati darajasiga ko'taruvchi, yani bir butun bilimlar "monoliti"ni yaratishga imkon beruvchi vosita	N.S.Svetlovskaya
Integratsiya-atrof-muhit xaqida yaxlit tasavvurni predmetlararo yaqinlashtiruvchi umumiy platformani topuvchi vosita.	Yu. M.Kolyagin
Integratsiya-olamning yaxlitligi uni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro aloqadorligi, o'zaro munosabatlarini tashkil etuvchi jarayon.	L.Suvonova

Jadvalda aks ettirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ilmiy nuqtai nazardan qaraganda, integratsiyaning asosi -tadqiq etilayotgan ob'ektni integrativ holda o'rganish, ob'ektga oid har tomonlama aloqalar, munosabatlar jihatlarini mukammal bilishga imkon beradi. Pedagogik, ta'limiy jihatdan esa, integratsiya-uzviylik, fanlararo va o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. U o'zaro bir-

birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi, chuqurlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. O'quv predmetlari mazmunining, eng kamida, DTS darajasida sintezlovchi, mantiqan tugallangan natijasi hisoblanadi.

"Integratsiya" atamasi o'tgan asrning 80-yillarda pedagogikaga oid asarlarda mustahkam o'rnashgan bo'lib, dastlab lotincha «integratio» dan kelib chiqqan, ya'ni har qanday qismlarni tiklash, to'ldirish, bir butunga birlashtirish, degan ma'noni anglatadi. Hatto ilgari ham ushbu atama tegishli jarayonni belgilash uchun turli xil bilim sohalarining professional lug'atida keng qo'llanilgan.

Falsafa ensiklopediyasida: "integratsiya "geterogen qismlar va elementlarni bir butunga birlashtirish bilan bog'liq rivojlanish jarayonining tomoni",- kabi tushuncha bilan ta'riflangan. Shunga o'xshash ta'rifni "O'zbek pedagogik ensiklopediyasi" lug'atida¹³, "integratsiya"- "...bir butunga, har qanday elementlarning birligiga birlashish, har qanday birlikni tiklash" kabi ta'rifni uchratish mumkin. Aniq fanlarda integratsiyani o'z vazniga ega bo'lgan ba'zi bir parametrlar bo'yicha yig'indi sifatida va "uning cheksiz qismlari yig'indisi sifatida qaraladigan butun son qiymati" sifatida integral sifatida tushunish mumkin.¹⁴

Ingliz adabiyotida "integratsiya» atamasi keng ma'noda differensiasiya jarayoni bilan birga sodir bo'ladigan fanlarning yaqinlashuvi va aloqasi jarayonini tavsiflash uchun ishlatilsa, biologiyada "... tashkilotning turli darajalarida tirik tizimga xos bo'lgan funksiyalar va tuzilmalarning tartibliligi, izchilligi va birlashishi",-sifatida qaraladi.¹⁵

Psixologiyada "integratsiya" tushunchasi "guruh ichidagi jarayonlar tizimining izchilligi, tartibliligi va barqarorligi" sifatida

¹³ Жуманиёзова М, Таълимда билимлар интеграцияси. Фанларни интеграциялаб ўқитишнинг педагогик шарт шaroitлари. УзПФИТИ. Т.: 2007.-Б.47-49.

¹⁴ Джураев Р.Х. Умумий ўрта таълимда интеграциялашган таълим-давр талаби // Фанларни интеграциялаб ўқитишнинг педагогик шарт-шaroitлари:Тез.докл. Респ. Илмий-амалий конф. 18-19 май 2007 й. - Тошкент, 2007, 5-8 б.

¹⁵ Икрамханова Ф. М. Интеграция учебных дисциплин как фактор повышения эффективности обучения. – Ташкент: Фан, 2008. – 148 с.

tavsiflangan va soha bo'yicha adabiyotlarda "guruh integratsiyasi" kabi tushunchaga duch kelishimizni qayd etishimiz joiz.

Falsafa sohasidagi adabiyotlarda: "...integratsiya bu elementlarning o'zaro bog'liqligini va "integral xususiyat» paydo bo'lishini ta'minlaydigan aloqalarni shakllantirish jarayoni", - sifatida belgilanadi.¹⁶

A.D.Ursul har qanday qismlarning bir butunga integratsiyasini belgilash uchun "integratsiya" atamasidan foydalanadi va undan ilgari avtonom elementlarning o'zaro bog'liqlik jarayonlarini yagona agregat sifatida tavsiflash uchun qo'llaydi.¹⁷

Yuqoridagi barcha ta'riflarda, bir tomondan, alohida elementlarning o'zaro bog'liqligini, o'zaro bog'liqligini va boshqa tomondan yaxlitlikni shakllantirishning yagona tendensiyasi mavjud. Har bir element boshqalar bilan izchillik, tartiblilik va barqarorlikka asoslangan munosabatda bo'ladi. Shunday qilib, "integratsiya" atamasini talqin qilishda ma'lum fanlar, birinchi navbatda, bir butunga birlashish, qandaydir birlikni tiklash, integratsiyani bir butun bo'lish jarayoni, deb tushunish mumkin.

Pedagogika sohasida "integratsiya" "ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan, butun ta'lim tizimini faollashtirishga qaratilgan maqsadlar, tamoyillar, mazmun, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish shakllarining birligini ifodalashning eng yuqori shakli", - deb ta'riflanadi.¹⁸

A. P.Belyaeva pedagogikada integratsiya g'oyasini nazariy asoslash va amaliy amalga oshirishda xususiy fanlar ma'lumotlarini umumlashtirish, falsafadagi integratsiya ta'riflarini tahlil qilish, ushbu konsepsiyani chuqurlashtirib, har qanday fanlarda

integratsiyani ajralmas yaxlitlikni yaratish jarayoni va natijasi ekanligini ta'kidlaydi.¹⁹

«Integratsiya» ta'rifi milliy pedagogikasida ushbu istilohni oliy ta'lim didaktikasi doirasida uning integrativ xususiyatini ta'kidlaydilar.

Mavjud ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida "didaktik integratsiya", o'qitish integratsiyasi" tushunchalariga quyidagi mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi.

Didaktik integratsiya - alohida tabaqalashtirilgan ta'limiy qismlar, bo'laklar, modullarning birlashish, yaqinlashish, birlik holatiga olib keladigan bir butun bog'lanishli yaxlitlikdir.

Yu.M.Kolyaginning fikriga ko'ra, "integratsiya" tushunchasini ikki xil ma'noda anglash mumkin. Birinchisiga ko'ra, "integratsiya" - deganda, atrof muhit haqida yaxlit tasavvurni yaratish (bu yerda integratsiya, o'qitish maqsadi sifatida qaraladi). Ikkinchisiga ko'ra, integratsialab o'qitish vositasi sifatida qaralib, predmetlardagi bilimlarni yaqinlashtiruvchi umumiy platformani tashkil toptirish vositasi sifatida).

Yaqin yaqinlargacha integrativ ta'lim har bir o'quv fanidan alohida tarzda bilim berish tendensiyasi hukmida edi. Fan va texnikaning keskin rivojlanishi tufayli, ayni paytda, ilmiy bilimlar ko'lami har 5 yilda ikki marta ko'paymoqda. Shunga monand ravishda o'qitish texnologiyalari sohasida ham bilimlar ko'lami yildan yilga ortib bormoqda. Oxirgi yillarda, talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar hajmini oshirishning birdan-bir yo'li, o'quv fanlar sonini va unga hamohang tarzda dars soatlar miqdorini ko'paytirish deb bilindi. Natijada, o'quv yuklamalar hajmining o'rinsiz kengaytirilishi tufayli o'qitishda zo'riqish, toliqish vujudga kelib, oqibatda ta'lim samaradorligi va talabalarning bilim sifati pasayishiga olib keldi. Bunday salbiy holatlarni ma'lum darajada bartaraf etish yo'llaridan biri ta'limni integrallashtirilgan bilimlar


¹⁶ Жуманиёзова М.Р. Интеграция таълим самадорлигини ошириш омили. Таълим муаммолари конференция материаллари.ТДПУ. Т.: 2005.

¹⁷ Урсул А.Д. Информация. Методологические аспекты. – М.: Наука, 1971. - 152 с.

¹⁸ Abdullayeva Sh. Oliy ta'lim didaktikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. - 56-b.

¹⁹ Беляева А.П. Интеграционные процессы в педагогике. - Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2005. - 256 с.

asosida tashkil etishdir. Bu muammoni hal etish integrallashgan kurslarni yaratish hisobiga amalga oshirish mumkin. Mana shu bilimlarni egallash, ulardan amaliyotda foydalana bilish talabalarni yetuk mutaxassis sifatida rivojlanishiga yordam beradi va raqamli texnologiyalar sharoitida fanlararo integratsiyasini realizatsiya qilishga zamin hozirlaydi (1.1-rasmga qarang).



1.1-rasm. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli resurslardan foydalanish

Rasmda ifodalanganidek, o'qitishga integrativ yondashuvni qo'llash talabalarga ingliz tilini o'qitishda til o'rgatish bilan bog'liq ba'zi fundamental masalalar zahirida rivojlanadi va integratsiyaning mohiyati integratsion yondashuvni shakllantirish vazifalari bilan chambarchas yaxlitlikda ko'rib chiqiladi.

Mamlakatimizda ham, xorijda ham chet tilini o'qitishda integrativ yondashuv masalasiga ko'plab ishlar bag'ishlangan. Bolgariya, Germaniya, Aqsh, Fransiya va Angliyadagi universitetlarda bu sohada sezilarli yutuqlarga erishildi. Integratsiyaning metodik imkoniyatlarini takomillashtirish va sohalar kesimida adaptivlashtirish bo'yicha mamlakatimizda bir qator oliy ta'lim takshilotlarida ta'lim samaradorligiga erishilgan. Masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti, O'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa shaharlardagi ko'plab universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlarida samarali rivojlanmoqda. Mazkur ta'lim tashkilotlarida integratsiyadan tashkiliy-metodik jarayon sifatida qo'llanilishi orqali amaliyotga ilmiy tavsiyalar joriy etilgan. Shu jihatdan integratsiya va integratsiyalab o'qitishga amaliy tavsiyalar ham berilgan. Ya'ni: **"Integratsiyalab o'qitish"**-maxsus va umumkasbiy fanlar hamda raqamli texnologiyalar, boshqa fanlarni ta'lim maqsadlariga yo'naltirib, yaxlitlik nazariyasi asosida o'qitish jarayonidir".

Respublikamiz pedagog olimlari M.M.Mamadazimov, O.Quvondiqov, Yu. M.Maxmudov, P.Musaev, R.H.Djuraev, R.G'.Safarova, N.A.Muslimovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'qitishni integrativ mazmundagi bilimlar asosida tashkil etishda alohida e'tibor berilgan. Shuningdek metodist olimlar: D.Hoshimova, Sh.Abbasovalar predmetlararo aloqada integratsiya xaqida; M.A.Rozova hozirgi dunyo va ijtimoiy jarayonlarda integratsiya to'g'risida; M.G.Chepikov, N.K.Chapaevlar o'z ilmiy maqolalarida fanlar integratsiyasi va pedagogik integratsiyani ta'minlashning mazmuni, tuzilishi haqidagi qarashlari mavjud. Mazkur ishlarda

fanlarni o'qitishda integrativ xarakterdagi mazmun ma'lum darajada asoslab berilgan.

Ingliz tilini o'qitish va raqamli texnologiyalarni qo'llashning integrallash imkoniyati, uning optimal usullari (modullashgan integratsiya, mavzulararo integratsiya)ni aniqlab, uning turli darajalaridan foydalanish zururligini pedagogik tadqiqotlar ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan integratsiyaning quyidagi jabhalariga alohida ahamiyat berish talab etiladi: ingliz tilini o'qitishning mavzulararo, fanlararo integrallashning nazariy asoslari, prinsiplari, darajasi, turlari va shular asosida yaratilgan integrativ dastur va darsliklarni yaratish shular jumlasidandir. Bu borada olib borgan tadqiqot ishlarimizning natijasi, o'qilgan ma'ruzalar, professor- o'qituvchilari bilan suhbatlar, anketa savollariga javoblarda bu masala yechimini topish zarurligini ko'rsatdi. Fanlardagi integratsiya muammosini hal etish, eng avvalo, talabalarni ortiqcha zo'riqishdan xalos qilib, til birliklari va raqamli texnologiyalar, raqamli resurslarning uyg'unlikda ta'lim jarayonida o'rganilishi pedagogik muhit o'rtasidagi munosabatlarni chuqur anglashni taqozo

Integrativ yondashuv, o'rganilayotgan ob'ektni yaxlit tizim shaklida, har tomonlama aloqadorlik nuqtai nazardan o'rganishni talab etadi. O'tmishda allomalar o'z asarlarida Koinot, yer, o'simlik, inson va hayvonlarning tuzilishi, yashash sharoiti bir-biriga bog'liqligi haqida ma'lumotlar keltirib integratsiyaning insonparvarlik, ekologik aspektlariga alohida e'tibor berishgan. Miloddan oldingi VII-VI asrlarda yashab o'tgan xorazmlik Zardo'sht "Avesto" kitobida Koinotning insoniyatga ta'sirini, ona zaminni undagi suv, tuproq, havoni asrash to'g'risidagi fikrlari ular haqidagi hozirgi zamon tasavvurlari uchun xam qimmatlidir.

Muhammad al Xorazmiyning "Kitob surat-al-arz" asarida, yerning asosiy boyliklari, ulardan oqilona foydalanish kerakligi, inson sog'ligi tabiat bilan bog'liqligi to'g'risidagi muhim ekologik muammolar haqida yaxshi ma'lumotlar berilgan. Abu Rayxon

Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida, insonning egallashi lozim bo'lgan tarix, handasa, riyoziyot, falakiyot, falsafa fanlarining aloqadorligi va ularning ahamiyatini, "Saydana" asarida, borliqni o'rganishda, ularning ob'ektlar o'rtasidagi aloqasini o'rgangan.

Integrativ texnologiyalar va ulardan foydalanish uslublari XXI asr didaktika, shu jumladan o'qitish metodikasida chuqur islohotlar davrini boshlab berdi. Oliy ta'lim maqsadlari o'zgardi, yangi ta'lim konsepsiyalari, o'quv rejalari standartlari yaratildi. Ta'lim mazmunini bayon qilish, ayrim o'quv fanlari orqali emas, balki yangicha integratsiyalashgan ta'lim asosida yondashishni ko'zda tutmoqda. Bu muammoni yechish, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ta'limni yangilash - uning noan'anaviy tashkiliy shakllari va metodlaridan foydalanishni, jumladan, unga integrativ yondashuvni talab etadi. Integrativ yondashuvning xorijiy til o'qitish jarayoniga tatbiq etilishida o'ziga xos lingvodidaktik muhit talab etiladi. Bu muhitda albatta pedagogik va raqamli texnologiyalarning o'rni katta. Ingliz tilining o'ziga xos lingvistik tabiati va mohiyatini belgilash uchun diskursiv hodisani nutqiy vaziyatlar xususiyatlariga ko'ra ta'minlovchi omillarni aniqlash ham muhim pedagogik shartlaardandir. Bunda suxbatdoshlarning kommunikativ maqsadini aniqlash hamda muloqot jarayonini diskursiv faoliyatda axborot uzatish va qabul qilish harakatlarini integratsiyalagan holda tashkil etish samaradorlikni oshiradi.

Oliy ta'lim tizimida ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar mohiyatini yoritar ekanmiz, biz "diskurs" atamasini izohlashni joiz, deb topamiz.

Diskurs - ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, u dialog, yaxlit matn, nutqiy asar, nutqning og'zaki shakli kabi hodisa. Diskurs murakkab xususiyatli kognitiv-kommunikativ hodisadir va u lisoniy shakl

(matn) va nolisoniy omillarni qamrab oladi. Ko'pchilik holatlarda diskurs tushunchasi kommunikativ voqea, gaplarning ketma-ket bog'lanishi ma'nosida ham ishlatiladi. Tilshunolar ushbu tushunchaga obrazli tavsif berishga ham odatlanganlar. Jumladan, N.D.Arutyunovning nazdida diskurs "hayotga singib ketgan nutq" bo'lsa, Yu.S.Stepanovning fikricha, diskurs ijtimoiy voqelik sifatida mavjud bo'lgan "til ichidagi tildir". Zero, diskurs eng avvalo matn ko'rinishida namoyon bo'ladi.

"Diskurs murakkab xususiyatli lisoniy va nolisoniy omillarni qamrab oladi. Mazkur omillar olam haqidagi bilim, fikr, mo'ljal, muloqot maqsadi, kommunikativ faoliyat ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi hamda muloqot kechayotgan zamon, makon kabilar ko'rinishida bo'lishi mumkin",-deb hisoblaydi.

Alisher Navoiyni «G'azal mulkining sultoni», «So'z mulkining sultoni» deya e'tirof etilishining asosi ham so'zdir. U so'zni naqadar ulug'vor, beqiyos, ruhparvar, ilohiyot mevasi ekanligini isbotlab bergan va «so'z» ta'riflarining eng mukammali va originalligi xaqida shunday deb yozgan: "So'zdurki nishon berur o'lukka jondin, So'zdurki xabar berur jonga jonondir. Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilki, guhari sharifroq yo'q ondin".

Til xuddi shunday murakkab hodisa ekanligi bois, uni tadqiq qilish, tahlil etish hamda o'rgatish o'ta ehtiyotkorlik, mas'uliyat, qadriyatlilik bilan birga turli yondashuvlarning maqsadli integratsiyasini talab qiladi. Shuning uchun Sh.Safarov shunday yozadi: "...til tizimining tabiatini to'liq anglash uchun uning alohida qismlari, shu qismlarni tarkib topdiruvchi bo'laklar va birliklarning avtonom xususiyatlarini bilish, ularning o'zaro munosabatlari doirasini aniqlashning o'zigina kifoya emas. Bu maqsadga erishish uchun til tizimining ishlashi, uning mexanizmlarining harakatidagi holatlarini o'rganishimiz lozim".

Diskursning tabiati va mohiyati Ye.S.Kubryakova tomonidan aniq tavsiflangan. Olimaning ta'rificha, diskurs "shaxsning ijtimoiy faolligini aks ettiruvchi va voqelik obrazini mufassal lisoniy

tavsiflovchi hamda insonlar o'rtasidagi muloqotning alohida qismidir. Ushbu hodisa tildan ma'lum vaqt oralig'ida foydalanish shaklidir". Bundan tashqari uning izlanishlarida diskurs yozma yoki og'zaki shaklda bajarilgan muloqotni ifodalovchi matn hosil bo'lishiga turtki beradigan hodisa ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni diskursiv faoliyat aniq mo'ljal va adresatga egadir. Shuning uchun ham diskursni u namoyon bo'ladigan muhimsiz yoritib bo'lmaydi. Nutqning ijtimoiy hodisa ekanligini yoritishda ham diskurs muhiti va uning mohiyati alohida o'rin tutadi. Bunday muhit kundalik-maishiy, ilmiy, kasbiy tavsifga ega bo'lishi mumkin. Ya'ni, diskurs ma'lum bir ijtimoiy-o'ziga xos kontekstni talab qiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda muloqotda suxbatdoshlarning maqomi (ijtimoiy roli) e'tiborga olingan holda diskurs shaxs va ijtimoiy fnuksiyalar mo'ljaliga ko'ra turlarga ajratiladi.

Birinchi holatda axborot ulashuvchining vazifasi tinglovchiga o'z ichki kechinmalarini bayon qilishi va bunda suhbatdoshini shaxs sifatida e'tirof etishdan iboratdir. Bunda kundalik-maishiy muloqot diskursning asosiy turi, manbasi sifatida qaraladi. Ijtimoiy maqom mo'ljalidagi diskurs, odatda, rasmiy ko'rinishga ega bo'lib, jamiyatda, ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy muassasalar faoliyatini aks ettiradi. Mazkur turdagi diskurs "insonlar o'rtasidagi maxsus qolipga solingan muloqot shakli" bo'lib, bunda muloqotdoshlar bir-birini tanimasligi mumkin, ammo ular ushbu jamoada qabul qilingan axloq qoidalariga bo'ysunishga majburdirlar.

Shunday qilib, diskurs hodisasiga inson hayoti uchun muhim bo'lgan til hududlaridan joy ajratar ekanmiz, barcha kognitiv fanlar uchun umumiy bo'lgan lisoniy qobiliyat (language competence), nutqiy ijro (speech performance), lisoniy faoliyat kabi tushunchalarning ham muhim. Shu o'rinda diskursning tasnifi yuqorida sanab o'tilgan belgi-ko'rsatkichlarga asoslanadi.

1.2-§. Ingliz tilini integrativ o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning sintaktik-axborot tizimi

Bugungi kunda til o'rgatish jarayonini samarali integrativ tashkil etishni kasbiy yo'nalgan elektron resurslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunda fan, ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytiruvchi innovatsion, raqamli mexanizmlarini ishlab chiqish, manzilli joriy etish, oliy ta'lim o'qitish shakllarini modifikasiyalash, mustaqil hamda masofaviy ta'lim jarayonida talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini tuzish va uni raqamlashtirish muhim shartlardandir. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda elektron ta'limiy resurslardan foydalanish talab etiladi. Ko'pgina tadqiqotlar²⁰ onlayn ta'lim talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishga sabab bo'lishini ko'rsatgan, ya'ni talabalarining mustaqil ta'lim olishiga, individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoniga integratsiyalashgan ta'limni qo'llashga asos bo'ladi. Shu munosabat bilan biz tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, ingliz tilini integratsiyalab o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar mohiyatini yoritishga harakat qildik. Buning uchun avvalambor, "elektron resurs" atamasi ta'rifini keltirsak:

Elektron resurs - ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi asosli mexanizmlarini tashkil etuvchi axborot-kommunikatsiya vositasi asosida tayyorlangan elektron mahsulot bo'lib, u o'qishni jadallashtirish, mustaqil bilim olishni individuallashtirish va o'zlashtirish kabi muhim vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Ingliz tilini o'qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, xususan, elektron resurslarni kasbiy kontekstda adaptiv qo'llash asosan ikki xil ko'rinishda amalga

²⁰ Абдупаттоев А. Матн ва дискурс муаммолари. - Тошкент: Фан ва технология, 2016. - 210 б.; Бодуэн де Куртене И.А. Избранные труды по общему языкознанию. - М.: Изд-во АН, 1963. Т.1. - С. 349.; Искандарова Ш. Тил системасига майдон сифатида ёндашув. - Т.: Фан, 2007. - 151 б.; Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн назарияси. - Фарғона, 2016. - 114 б.

oshiriladi. Bunda elektron resurslar birinchidan, texnik jihozlar sifatida inobatga olinsa, ikkinchidan, maxsus dasturiy ta'minotlar ko'rinishida qo'llaniladi.

Texnik jihozlar bilan ta'minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qo'rilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferensiya jihozlari va hokazo. Dasturiy ta'minotga qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta'minotlardan tortib shu soha uchun mo'ljallangan dasturlar to'plami kiradi.


"Axborot jamiyatiga o'tish zaruriyati jahon iqtisodiyoti va akademik muhitida yangi texnologik tartib shakllanishi va ustuvorligi, axborot resurslarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy resurslariga almashinuvi, jamiyatni axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish, ijtimoiy ishlab chiqish tizimida axborot kommunikatsion infrastruktura ahamiyatini oshishi, xalqaro axborot almashinuvlar asosida ta'lim, ilmiy-texnik va madaniy sohalarning takomillashuvi, «global axborot afzalliklarini» teng huquq asosida ishlatish bilan tavsiflanadi. Oxirgi yillarda elektron ta'limning an'anaviy ta'limga qaraganda afzallik jihatlari ko'proq aniqlanmoqda. So'nggi vaqtlarda ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar an'anaviy ta'limning ba'zi turlariga qaraganda onlayn ta'limning afzalliklari ko'proq degan xulosaga kelmoqdalar. Sababi, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan raqamli o'qitish platformalari ko'paymoqda, bunda an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlari birlashtirilib aralash ta'lim tizimi shakllantirilmoqda".²¹

Diskursiv xususiyatli elektron resurs- matn, paralingvistik ifoda vositalari, surat, teatr, kino, reklama, arxitektura, musiqa, ilmiy kashfiyotni multimedia va elektron holatda ifodalovchi manba. Madaniyat haqida xabar beruvchi har qanday elektron manbani diskursiv xususiyatli tushuncha vositasida izohlash mumkin. Demak,

²¹ Muratov X.X. Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. Ж.: Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723/ <https://cyberleninka.ru/article/n>.

diskurs matn mundarijasi va mazmunini to'g'ri anglash uchun zarur bo'lgan bilimlar to'plami manbasidir.

Dasturiy ta'minot sohasida diskursiv xususiyatli elektron resurs bir nechta integratsiya turlariga bo'linadi: 1) **vertikal integratsiya**; 2) **gorizontal integratsiya**; 3) **punkt-punkt integratsiya**.



1.2.1-rasm. Integratsiya shakllari

Vertikal integratsiya – Foydalanuvchi interfeysi va funksional modullar birgalikda ishlashi uchun muayyan ilovalar integratsiyasi.²²

Gorizontal integratsiya – Har xil ilovalar va xizmatlarning bir-biri bilan o'zaro ishlashini ta'minlash uchun ishlatiladigan integratsiya turi.

Punkt-punkt integratsiya – Maxsus dasturiy ta'minot yechimlarining o'zaro bog'lanishi uchun ishlatiladigan integratsiya turi.

Shu o'rinda ingliz tilini o'qitish jarayonida raqamli integratsiyaning usullari hamda texnologiyalari ham o'ziga xos tasniflarda qo'llanilishini ko'rib chiqamiz. Dasturiy ta'minot integratsiyasida foydalaniladigan usul va texnologiyalar quyidagilardan iborat:

²² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya>

API (Application Programming Interface) integratsiya – u turli dasturlar yoki tizimlarning bir-biri bilan **API (Application Programming Interface)** orqali ulash jarayoni bo'lib, ular yordamida ilovalar birgalikda ishlashiga erishish usullari joriylanadi.

Veb xizmatlari – RYESTful va SOAP kabi veb xizmatlari orqali tizimlarning bir-biri bilan o'zaro bog'lanishi.

Middleware – Turli tizimlar o'rtasida vositachi sifatida xizmat qiladigan dasturiy vositalar.

Integratsiya uchun foydalaniladigan zamonaviy platformalar quyidagilardan iborat:

Mulesoft – Katta kompaniyalar uchun keng ko'lamli integratsiya yechimlarini taqdim etuvchi platforma.

Zapiyer – Oson va tez integratsiyalar uchun iPaaS (Integration Platform as a Service) yechimlari.

iPaaS platformalari – iPaaS platformalari integratsiyalarni tez va samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Ingliz tilini o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar integratsiya sohasining rivojlanishida quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

An'anaviy ETL (Extract, Transform, Load) jarayonlari, ma'lumotlarni integratsiya qilishda dastlabki bosqichlardan biri bo'lgan.

Mikroservislar asosida ishlovchi zamonaviy integratsiya texnologiyalari, bu texnologiyalar katta va murakkab tizimlar uchun moslashuvchanlikni oshirishga yordam beradi.

Ingliz tilini integratsiyalab o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

Ish jarayonlarini avtomatlashtirish – Turli til tizimlarini birlashtirish orqali uni o'zlashtirish jarayonlarni tezlashtirish va resurslarini tejash.

Ma'lumotlarning aniq va ishonchli almashinuvi – Integratsiya tizimlari ma'lumotlarning o'z vaqtida va aniq almashinuvini ta'minlaydi.

Xarajatlarni kamaytirish – Integratsiya yechimlari yordamida infratuzilma va operatsion xarajatlarni qisqartirish mumkin.

Fanda paradigmalar almashinuvi tadqiqot ob'ekting murakkab tuzilishiga ega bo'lishi bilan bog'liq. Til tizimi va lisoniy faoliyat tadqiqiga bu tarzda har tomonlama yondashuvning asosiy metodologik tamoyili fanlararo munosabat yoki paradigmalar integrallashuvi yoki o'zaro hamkorligi ekanligi e'tirof etilgan haqiqatdir. Ushbu yondashuv odatda, ikki va undan ortiq fan sohalarining o'zaro munosabatga kirishuvini taqozo etadi.

D.U.Ashurova ta'kidlaganidek: "O'zaro munosabat ko'lamini oddiy g'oyalar almashinuvidan to nazariyalar yakdillashuvigacha, tadqiq metodologiyasi hamda usullarining umumlashuvigacha borib etishi mumkin".²³

Ingliz tilida elektron resurslar vositasida foydalanayotgan talabalar shaxsi, eng avvalo, uning ma'lum bir axborotni shakllantirish va muloqot qoidalariga amal qilgan holda boshqalarga uzatishni rejalashtiradi. Olamni bilish va muloqot qobiliyati faqat insonning biofizilogik imkoniyatlari bilan belgilanmasdan, balki ijtimoiy madaniy omillar qurshovida rivojlanadi.

Kognitiv tilshunoslik vakillari ham ijtimoiy voqelik va madaniyatning lisoniy tafakkur kechishini nazorat qilishdagi rolini inkor etmaydilar.

Hozirga kelib kognitologlar "tafakkurni belgilar va ramzlardan foydalanuvchi mavhum hodisa" deb qarash an'anasidan voz kechdilar. Bunday talqinning yuzaga kelishi, albatta, prototiplar nazariyasining taraqqiyoti bilan bog'liq. Ushbu nazariyaga binoan, tafakkurda kechadigan kategoriyalashtirish jarayoni insonning tajribasi, idrok etish qobiliyati hamda uning qaysi madaniyat vakili ekanligi bilan bog'liqdir.

Prototiplar nazariyasining targ'ibotchilari kategoriyalashtirishning asosiy xususiyatlarini quyidagilarda ko'radilar:

1) prototip kategoriyalarni yagona mezon ko'lamida aniqlab bo'lmaydi;

2) prototip kategoriya o'zaro o'xshash strukturaga ega bo'lishi kerak yoki boshqacha aytganda, ularning semantik strukturasi umumlashgan, o'zaro bog'liq ma'nolar to'plamidan tashkil topadi;

3) prototip kategoriyalar turli darajada namoyon bo'ladi, ularning umumiy maydonda tutgan o'rni.

V. Fon Humboldt, E.Benvenist, I.A.Boduen de Kurtene kabi olimlar zamonaviy tilshunoslikda antroposentrizmning asosiy tahlil tamoyiliga til tabiati va mohiyati, uning sohibi bo'lgan insonning ichki dunyosi, dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liqligini kiritishadi.

Ingliz tilini o'qitishda ta'lim jarayoniga axborot-kommunikasiya texnologiyalari (AKT) shiddat bilan kirib kelishi bilan birga, u ta'limning samaradorligini oshirishda eng qulay omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Ingliz tilini o'qitishda elektron ta'limiy vositalardan foydalanishda lingvodidaktik jihatdan til o'rganishga mo'ljallangan o'quv materiallarini taqdim etish va qayta ishlashga taklif etish bo'yicha o'quv jarayonini takomillashtirish tamoyillariga zamonaviy nuqtai-nazardan yondashish kerak bo'ladi. Bu yondashuv zamonaviy axborot texnologiyalari va ulardan kasbiy yo'nalganlikda, amaliy grammatika ustuvorligida qo'llashni ko'zda tutishi maqsadga muvofiqdir deb hisobladik. Ayniqsa, ingliz tilini amaliy jihatdan tez va integrativ o'rganishda diskursiv xususiyatli elektron resurslarni tatbiq etish ligistik muhitning samaradorligini ta'minlaydi. Shuning uchun quyida diskursiv xususiyatli elektron resurslarni joriy etishning o'ziga xos asosiy vazifalarni belgilashga ehtiyoj tug'ildi. Ular quyidagilardan iborat:

²³ Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. - Tashkent: Turon-Istiqbol, 2016. - 324 p.

1. Diskursiv xususiyatli elektron resurslarni lingvodidaktik jarayonga perosnal o'zlashtirish xususiyatlariga mos ravishda tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini takomillashtirish.

2. Til o'rganish uchun o'rganilayotgan til qonuniyatlariga mos ravishda diskursiv xususiyatli elektron resurslarni yaratish va mavjudlarini adaptivlashtirish.

3. Talabalarining axborot kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida maxsus o'quv topshiriqlari bazasini shakllantirish.

4. Modern diskursiv xususiyatli elektron resurslarni modullarni integrativ o'qitish jarayonida maqsadli qo'llash.

5. Diskursiv xususiyatli elektron resurslar samaradorligini davriy monitoringini yuritishni raqamlashtirish.

6. Diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish makonini ochiqlik, tushunarlik va vizuallik tamoyillari asosida jozibadorlashtirish.

Ingliz tilini o'qitishda nofilologik va filologik yo'nalish talabalarining til o'rganish imkoniyatlarini taqqosli tarzda diagnostika qilish ham amaliyotda dolzarb masala sanaladi. Shundan kelib chiqib, diskursiv xususiyatli elektron resurslarni yaratish, adaptiv qo'llash, ularning amaliy-lingvistik modifikasiyalarini yig'ish, saqlash, qulay axborot shaklida uzatish, qayta ishlashga taklif etish, qayta yaratilishini ta'minlash ichki va tashqi omillarga bog'liq:

Ichki omillarga talabalarining axborot kompetensiyasi bilan bog'liq harakatlar tizimini: axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va hakoazolarni kiritish mumkin.

Tashqi omillar sifatida texnik ta'minotni, ya'ni uskunalar, kompyuter vositalari orqali bajariladigan vazifalarning amalga oshirilishini aytish mumkin.

Talabalarining ingliz tilini egallash jarayoni natijadorligi ular tomonidan diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish holati, ya'ni muloqotda ulardan foydalanuvchilarning ko'nikma va

malakalariga bog'liq. Til o'rgatish amaliyotida diskursiv xususiyatli elektron resurslarning keng tarqalgan variantlarini taklif etish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun, telekommunikatsiya vositalari hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanishga oid tajribalar va nazariy ma'lumotlarga e'tibor qaratdik.

Ma'lumki, zamonaviy telekommunikatsiya vositalari turli sohalarida keng qo'llaniladi. Ularning imkoniyatlari juda keng bo'lib, an'anaviy kontekstda kompyuter, kompyuter tarmoqlari, multimedia vositalari, internet kabi tushunchalari orqali tushuniladi. Bundan tashqari yangi tushunchalar ham ularning imkoniyatlarini bayon etadi. Masalan, telekommunikatsiyada individual va maslahat mashg'ulotlari alohida o'rin tutadi. Texnologik, ilmiy aspektlarda olib boriluvchi ta'limiy va tadqiqiy jarayonda dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda diskursdan foydalanish orqali nafaqat o'qitish jarayonini, balki pedagoglar innovasion faoliyatini takomillashtirishga tez va samarali erishiladi. Chunki diskursning til o'rganish va muloqotni samaradorlashtirishdagi imkoniyatlari bu natijalarni ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki "Diskurs bir tomondan, nutq, muloqot, lisoniy hatti-harakat o'rtasidagi oraliq hodisadir. Boshqa tomondan esa, u muloqotning qoldig'i sifatida matnda voqelanadi". Карасик В.И. **О типах дискурса** // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. – Волгоград, 2000.

Biz tadqiqotning nazariy tahlil qismida qayd etilayotgan hodisalarni bir qatorga qo'yish unchalik ma'qul emas deb hisobladik. Shuning uchun ularning o'zaro ta'sir munosabatini inobatga olish zarur deb sanadik. Bunda diskursologlarning nutq va matn hodisalari yig'indisi diskursni tashkil qiladi, degan mulohazasiga ustuvorlik berdik.

Tilshunoslikning tadqiq predmeti kengayishini aks ettiradigan diskurs termini bilan bir qatorda "konsept" tushunchasi ham qo'llanilmoqda. Ushbu tushuncha axborot va mazmunni jamlaydigan

mental birlik bo'lib, uning vositasida talabalar bilimi to'planadi, tashkillashtiriladi va kategoriyalashtiriladi. Konsept termini ham, xuddi "diskurs" kabi umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib obraz, tasavvur, ma'no, tushuncha, g'oya, mazmun kabilarni o'zaro yaqinlashtiradi.

Jamiyat faoliyati uchun muhim bo'lgan diskurs turlariga ilmiy, ta'lim-tarbiyaviy, siyosiy, diniy, huquqiy, harbiy, tibbiy, tadbirkorlik kabilar kiradi. Ushbu turlar nafaqat muloqot mavzusi, balki lisoniy uslubiy xususiyatlari bilan o'zaro farq qiladi. Muloqot maqsadidagi farqlarga nisbatan badiiy, mifologik, tahliliy, reklama diskurslari ajratilsa, pragmatik vazifaning voqelanish usuli esa komik, yumoristik, o'yin, fatik, marosimiy muloqot turlari ajratiladi. Diskurslarda mentalitetning turli jihatlari aks topadi, jamoa lisoniy madaniyatining xususiyatlari turli darajada namoyon bo'ladi. Shu bois, ingliz tilini o'qitish metodikasida diskurs turlarining o'ziga xos belgi-ko'rsatkichlari tahlili bilan bir qatorda turli janrdagi diskurslarning o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga, ko'chib o'tish holatlari tavsifi ham muhimdir.

Janrlararo va matnlararo bog'liqliklarni o'rganishda intertekstuallik tushunchasiga murojaat qilinishi tilshunoslik va matnshunoslik sohalarida kognitiv-diskursiv yondashuv muqimlashuviga imkon yaratdi. Zotan, ingliz tilini o'qitish metodikasida intertekstuallik tushunchasi "bevosita kuzatish qiyin bo'lgan, murakkab hodisa bo'lgan diskursni anglash vositasi" bo'la oladi.

Intertekstuallik hodisasining mohiyatini aniqlashtirishga intilgan N.A. Kuzminaning fikricha, ushbu hodisani referensiya nazariyasi doirasida matnning voqelik va boshqa biron bir matn bilan bog'liqligi ko'lamida talqin qilinsa, axborot nazariyasi nuqtai nazaridan intertekstuallik axborotning nafaqat bevosita tajriba hisobidan, balki boshqa matnlarga murojaat qilish yo'li bilan to'planishidir. Bundan tashqari, intertekstuallikni matnning

"yaratilish tarixi", ya'ni lisoniy birliklarning o'zaro munosabatga kirishishi ko'lamida ham talqin qilish mumkin.

L.S.Vigotskiyning izdoshlaridan bo'lgan N.I.Jinkinining ishlarida nutqning botiniy mexanizmlari yoritilishi bilan bir qatorda, bilimning alohida shaxs va jamoaviy "mulkka" aylanishi hamda shaxs kognitiv faoliyatida bilim zahirasiining tutgan o'rniga oid muammolar muhokama qilingan.

Tadqiqotchilar diskursiv yondashuvning "ildizlarini" dunyoga mashhur filolog-olim M.M.Baxtinining ishlaridan izlashni tavsiya qiladilar. Olim pragmatika, sociolingvistik va uslubshunoslik uchrashuvini ta'minlaydigan "janrshunoslik" sohasining asoschisidir. Ushbu sohaning tadqiq ob'ekti til vositasidagi o'zaro ijtimoiy munosabat shakli bo'lgan dialogdir. Har bir nutqiy tuzilmaning o'ziga xosligini qayd etgan olimning xulosasicha, tildan har bir foydalanish holatida ma'lum ko'rinishdagi tuzilmalar shakllanadi va xuddi shu tuzilmalar nutqiy janrlar deb ataladi.

"Grammatika falsafasidan ocherklar" asarining muallifi, o'z navbatida, tilning ilmiy tadqiqida asosiy ko'rsatkich "insonvoqelik-zamon" bo'lishi kerakligini uqtiradi.

V.S.Yurchenkoning tavsificha, inson modallikni belgilaydi; voqelik mazmunga ishora qiladi, zamon esa strukturani shakllantiradi. Keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, lisoniy faoliyat, ya'ni insonning til orqali fikrlashi, muloqot qilishi va axborot almashishi nutqiy ifodalar, tizimli harakatlar orqali amalga oshadi. Bunda "inson +diskurs +axborot"li munosabat amalga oshadi. Axborot aniq bir ijtimoiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga qaratiladi. Shuning uchun lisoniy hodisalarni tahlil qilishda va bu hodisalarning ingliz tilini o'rgatish jarayonida voqelanishida shu uchlikning o'zaro aloqasi hamda ular bajaradigan vazifalarni aniqlashga ehtiyoj tug'iladi.

Bugungi kunda "Axborot", "Ma'lumot" tushunchalari bir qator sohalarida, xususan, ta'lim tizimining fan sohalarida uzluksiz

qo'llanib kelinayotganligiga qaramasdan, ularning izohlanishida yakdil xulosalarga erishilgani yo'q.

Axborotni saqlash va uzatish jarayonlari tadqiqi borasida muhim ma'lumotlar kibernetika sohasida to'plangani aniq.

K.E.Shennonning 1948 yilda nashr qilingan "Aloqaning matematik nazariyasi" nomli maqolasi axborotning statistik tahliliga asos soldi, albatta. Biroq, kibernetika va matematik nazariyada axborotning belgi xususiyatiga, uning formal jihatlariga e'tibor qaratilib, ma'lum qilinayotgan axborotning ma'no-mazmuni nazardan chetda qoladi.

"Axborot" tushunchasining mohiyatini to'g'ri anglash, ayniqsa, insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonlari tadqiqi uchun muhimdir. Tadqiqotchilar, ayniqsa ruhshunoslar, axborotning turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishini qayd etadilar. Taklif qilingan tasniflarda axborot sintaktik, semantik va pragmatik turlarga ajratiladi. Sintaktik axborot yagona bir tizimdagi belgilar vositasida shakllanadi. Axborot ifodalanishida ushbu belgilar ma'lum qoidalar qamrovida o'zaro aloqaga kirishadi va tartib oladi. Mazkur qoidalar matn tuzilishi uchun ahamiyatlidir, ularsiz xabarni qabul qilish va tushunish mushkullashadi.

Semantik axborot bu xabarning ma'lum ko'rinishdagi belgilar vositasida qayd etilgan mazmunini o'quvchi yoki tinglovchi tomonidan tushunib etish imkoniyatidir. Ravshanki, semantik axborot sintaktik axborotni yo'qqa chiqarmasdan, balki undan asos sifatida foydalanadi. Nihoyat, pragmatik axborot haqida gapirilganda, xabarning adresatda u yoki bu his-tuyg'ular paydo bo'lishidagi hissi, uning ma'lum bir harakatni bajarishga undalishi nazarda tutiladi. Bunda tinglovchiga qandaydir bir mazmunga ega axborotni uzatish bilan chegaralanib qolmasdan, balki unda ushbu axborotga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni qo'zg'atish maqsadi ko'zlanadi. Sanab o'tilgan semiotik tartibdagi axborot turlari orasida semantik axborotning o'rganilishi muloqot jarayonlarining nazariy va amaliy tavsifi uchun muhimdir. Muloqot

vaziyatida qo'yiladigan talablardan biri axborotni, uning mazmun mundarijasiga hech qanday ziyon yetkazmasdan turib, siqiq shaklda uzatishdir. Siqiq holga keltirilgan axborot oson qabul qilinishi bilan birgalikda, oson va mustahkamroq eslab qolinadi. Ushbu turdagi axborot ifodasi uchun kam miqdordagi lisoniy material talab qilinadi va nutqiy akt ixcham shaklni oladi.

O'qitish metodikasida, ayniqsa lingvodidaktikada "axborot" tushunchasi markaziy ob'ekt sifatida ko'riladi. Chunki til o'rganish jarayonida axborot almashinadi. Shuning uchun bu tushuncha hatto til hodisasiga berilayotgan ta'riflarda ham mavjuddir. Masalan, D.Hoshimovanning tadqiqotida jumladan shunday ta'kidlanadi: "...ichki yaxlitlik va butunlik xususiyatiga ega bo'lgan til ko'p vazifali tizimdir. Uning asosiy vazifalaridan biri axborotga nisbatan bajariladigan amallari bilan bog'liq holda yuzaga keladi".

Til jamiyatda, butun millatning tajribasini avlodga etkazishda muhim omilligi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun N.Maxmudov: "Til dunyoni bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga etkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi",-deb o'zining xulosasini keltiradi. Muallifning fikriga qo'shilgan holda "axborot" tushunchasi keng miqyosda tarqalgan va o'ziga xos tarzda talqin qilinadigan tushunchadir deb aytish mumkin.

O'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham axborot asosiy kategorial komponent sifatida o'rganiladi. Metodikaning ko'pchilik yo'nalishlarida axborot tushunchasining funksional talqini ustunlik qiladi. Lekin "axborot" va "bilim" tushunchalarining munosabati, ta'lim natijalaridagi o'rni to'liq yoritilmagan. Ushbu munozarali nuqta til hodisalariga oid tadqiqlarda o'z o'rniga ega bo'lgan faoliyat nazariyasi dorasidagi tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Ma'lumki, ushbu faoliyatli yondashuvda axborot kommunikativ vazifa bajarayotgan bilim sifatida qaraladi. Semiotik talqinda esa, aksincha, axborotga "belgi shaklini olgan bilim" maqomi beriladi.

“Axborot” tushunchasi falsafiy talqindan ham xoli emas. Faylasuflarning qaydicha, xabarning mundariyasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladigan axborot “yuqori darajada tashkil topgan material tizimning vazifaviy xususiyati sifatida mavjud bo‘ladi” hamda shakliy, mundarijaviy xususiyatlari bir xil bo‘lgan yagona bir axborot turli vositalar orqali voqelanadi. Faylasuflar (K.Tulenova, N.Safarova) ham axborotning ifoda shakli muhimligini uqtirishni unutmaydilar. Ammo ushbu shaklning tabiati haqida bildirilayotgan fikrlar turlicha. Axborotning ifodasi kodlashtirish orqali bajariladigan bo‘lsa, unda kodni shartli belgilar tizimi, deb qarash bilan birgalikda, axborotni taqdim etish qoidalarini ham shu tizimga kiritish ehtiyoji tug‘iladi. Biroq, axborot murakkab tarkibli hodisa ekanligi ma‘lum. U nafaqat shakliy (sintaktik), mazmuniy va pragmatik xususiyat sohibi bo‘lmasdan, balki o‘zgaruvchanlik yoki variantlashuv imkoniyatiga ham ega. Uning aniqligi, yangiligi, to‘liqligi, muhimligi kabi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi sub’ekt omilini taqozo etadi. Bunday sub’ekt rolini faqat inson bajara oladi.

D.Kristall tomonidan tuzilgan “A Dictionary of Linguistics and Phonetics” lug‘atida yozilganidek, metodistlar “ma‘nodan tilning boshqa xususiyatlarini o‘rganish mezoni sifatida foydalanadilar. “ma‘no” mavzusining tilga nisbatan muhokamasida tafakkur, vaziyat, bilim, maqsad kabi nolisoniy omillarga murojaat qilishni taqozo etadi”. Ingliz olimining ushbu fikrini ma‘no tushunchasiga berilayotgan ta‘riflar qiyosida ham ko‘rish mumkin. Masalan, mantiqshunoslar (Sh.Abdullaev, E.Komilov) “ma‘no – biron bir ob’ektning kundalik turmush, estetik, ilmiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy va boshqa faoliyatlarni bajarayotgan shaxslar uchun nimani anglatishini bildiradi”, - degan xulosaga kelishgan.

O‘tgan asrning mashhur tilshunoslardan bo‘lgan A.I.Smirnitskiy ta‘biricha, “so‘zning ma‘nosi predmet, hodisa yoki munosabatning (yoki voqelikning alohida elementlari tasviridan tuzilgan o‘xshash ko‘rinishdagi psixik tuzilmaning) ongdagi aksidir. Bu aks so‘zning strukturasidan uning ichki tomoni sifatida o‘rin oladi va unga

nisbatan so‘z talaffuzi material, qobiq xizmatini bajaradi”. Zamonamiz tilshunoslari ma‘no hodisasining yuqorida qayd etilgan mumtoz ta‘riflarini unchalik ma‘qullamasdan, ushbu hodisani yuzaga kelgan tushuncha bilan bog‘liq holda ta‘riflashga urinmoqdalar: “ma‘no – predmet haqidagi fikr bo‘lib, bu fikr ichki forma (aniqrog‘i - tasavvur) hamda shakllanayotgan yoki shakllangan tushuncha negizida hosil bo‘ladi”. Ma‘no “bir mavjud hodisaning so‘zda aks etishi va nutq tovushi yoki nutq tovushlari kompleksi bilan tarixan bog‘liq kelishi”, -deb hisoblaydigan M.Mirtojiyevning fikricha, “kishi ongida aks etgan ob’ektiv olamdagi narsa, hodisa, harakat, holat va belgi haqidagi tushuncha so‘zda o‘z ifodasini topadi”.

Fikrimizcha, semantik tadqiq jarayonida pragmatik, sosiolingvistik, psixolingvistik kabi til birliklari mohiyatining muhim qismlarini tashkil qiladigan ma‘lumotlarni e‘tiborga olish talab qilinadi.

Psixolog olim A.N.Leontev bergan ta‘rifda yuqorida sanab o‘tilgan talablar inobatga olingandek: “Ma‘no – bu insoniyat tomonidan shakllantirilgan va tushuncha, xatti-harakat shaklida qayd etilgan hamda ongning “mulki”ga aylangan voqelikning umumlashgan aksidir”. Demak, inson alohida predmetni emas, balki predmetlar olamini yaxlit holda idrok etadi, u alohida olingan ma‘nodan emas, balki ma‘nolar tizimidan foydalanadi”. Ma‘nolar tizimi olamning lisoniy manzarasi yoki ramzi shakllanishining negizida turadi. Olamning lisoniy ramzi esa inson ongida ma‘nolar tizimi hamda ma‘lum kognitiv tuzilmalar orqali real voqelikning aks topishidir. Shu jihatdan ma‘no hodisasini ham alohida shaxslar bilimi va tajribasi in’ikos topadigan lisoniy tafakkurning tayanch nuqtasi sifatida talqin qilish mumkin. Ma‘noning diskursda faollashuvi fikrni yuzaga keltiradi, fikr esa o‘z navbatida mazmunga asos yaratadi. Shu sabab psixologlar ma‘noni ong birligi deb hisoblashsa, tilshunoslar uchun u lisoniy hodisadir, - deb talqin

qilishadi. Fikrimizcha, ma'no tushunchasini tor va keng mazmunda talqin qilinishi mumkin.

Diskursiv xususiyatli resurslarda ma'no uch shaklda mavjud ekanligini tasdiqlash imkoniyati mavjud. Ya'ni, verbal, belgili shakldagi lisoniy ma'no til tizimida ma'lum turdagi lisoniy belgilar vositasida ifodalanadi. Bu holda ma'no so'z yoki boshqa bir ko'rinishdagi belgi ko'lamida namoyon bo'ladi. Ma'no tashqi shakl yoki lisoniy ifodaning obrazi ekanligi ko'p bora ta'kidlangan. Tilning aniq bir ko'rinishda faollashuvida uning moddiylikiga xos bo'lgan shakllar mavjud bo'lishini hech kim inkor etmaydi. Ma'noning yana bir shakli predmetli ma'no deb ataladi. Ushbu turdagi ma'no idrok, xotira va tasavvur ishtirokida yuzaga keladigan obraz negizida shakllanadi. Predmetli ma'no, lisoniydan farqli ravishda, predmetning mavjudligini nazarda tutadi.

Diskursiv xususiyatli resurslarda ma'noning yana bir turini ajratib, uning faoliyat komponenti sifatida namoyon bo'lishini qayd etish lozim. Masalan, ijtimoiy me'yorlar va bajariladigan rollar shu guruhga kiritiladi. Bizningcha, ushbu ma'noni oldingi ikkita turdagilar bilan bir qatorga qo'yib bo'lmaydi. Zero, ko'rsatilgan turlar ma'noning turli shakllari bo'lmasdan, balki asl predmetli mundarijaga ega ma'noning turlicha yuzaga kelish namunasi bo'lishi mumkin.

L.S.Vigotskiy aytganidek, "bizning har bir idrokimizning o'ziyoq ma'noga ega, predmetning ma'nosi so'zning ma'nosi bo'la olmaydi".

Diskursiv xususiyatli resurslarda "ma'no" tushunchasi, xuddi "belgi" tushunchasidek, bilish va muloqot harakatlarini semiotik qatlamda kechadigan faoliyat sifatida tavsiflashga turtki beradi. Ma'no o'z ob'ekti yoki referentiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Semiotik jarayonda ma'no ob'ekti denotat, signifikat yoki nominat ko'rinishini olishidan qat'iy nazar ifoda etiladi.

Semasiolog olim M.V.Nikitinining qaydicha, belgining ma'nosini tasvirlanayotgan hodisa emas, balki bajarilayotgan fahmiy amal hosil qiladi. "Ma'noning izini narsalar, faktlar, voqealar yoki ularning

aloqalari, munosabatlarida topib bo'lmaydi. U faqat ushbu aloqa biron kishi tomonidan olamda mo'ljal olish maqsadi ko'zlanganida paydo bo'ladi". Hodisalar o'rtasidagi aloqa olamning manzarasini shakllantiradi. Belgining ifodalanishi uning ma'nosi bo'lolmasligi aniq.

Diskursiv xususiyatli resurslarda lisoniy belgining ma'nosi olam obrazining ma'lum bir qismidir va ushbu qism muloqot maqsadini ko'zlayotgan shaxslar uchun muhim bo'lishi kerak. Zero, voqelik idrokida hamjihatlik bo'lmaganida muloqot maqsadiga erisha olmaydi. Ayrim metodist olimlar lisoniy va nolisoniy belgilarni ma'no ifodasi jihatidan tenglashtiradilar. Fikrimizcha, bunday talqin til tabiatiga ziddir.

M.V.Lebedeva hatto konseptlar tizimidan iborat konseptual sxemani ham lisoniy hodisa emasligini qayd etadi. Zero bunday "til" muloqot faoliyatini ta'minlay olmaydi, va uning vositasida odamlar o'zaro fikr almasha olmaydilar. Aksincha, konseptual sxemani tavsiflash uchun tabiiy tilga murojaat qilish kerak bo'ladi.

Shunday qilib, diskursiv xususiyatli resurslarda talabalar tomonidan ingliz tilini o'zlashtirish uchun ta'limga bo'lgan munosabati qandaydir narsalar, lisoniy belgilar orqali voqelanmaydi, bu vazifa faqat ma'noga tegishli. Demak, matn predmetning ideal shaklini aks ettiruvchi belgi shu narsaning aynisi yoki o'xshashi emas. Belgi boshqa-boshqa ideal shakllardan bajariladigan vazifasi bilan farq qiladi. Shuning uchun tilning semiotik tizimini inobatga olish va undan foydalanishga e'tibor qaratildi. Ya'ni tilning ijtimoiy, shartli, tizimli va ikki tomonli belgilardan iborat semiotik tizimi til o'rgatish amaliyotida muhim komponentdir. Bu haqida keyingi paragrafda keltiriladi.

1.3. Ingliz tilini integrativ o'qitishda tilning semiotik xususiyatlaridan foydalanish

Talabalarda nutq ko'nikmalarini shakllantirishning yangi modellarini joriy etish, chet tilida professional darajada muloqot

qilish uchun yetarli bilimlar to'plamini o'zlashtirish uchun axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayonida o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanish bo'yicha qator ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarning chet tilidagi nutqini kelajakda egallanadigan kasbiy faoliyatida pedagogik, psixologik va didaktik jihatdan o'zlashtirish zaruriyati oshmoqda.

Til birliklari orasidagi munosabatlar ham o'z xususiyatlariga ega. Bir darajadagi til birliklari orasidagi munosabatlar raradigmatik va sintagmatikdir. Raradigmatik munosabatlarda ozmi-ko'rmi bir chil, vazifasi jihatidan yaqin bo'lgan birliklar guruhlari mavjud. Morfema darajasida sintagmatik munosabatlar morfemalarning ingliz tilida bir morfemadan ikkinchisiga ergashish imkoniyatini tartibga soladi. Masalan, nonregular o'rniga irregular; revolution o'rniga revolution.

G.E.Beliskaya ta'kidlagandek, "til ikki tekislikda tashkil etilgan maxsus ramziy tizimdir. Bir tomondan, til jismoniy hodisadir: uni ishlab chiqarish uchun ovoz arrarati va idrok etish uchun eshitish arrarati vositachiligini talab qiladi. Bu moddiy dunyoda u kuzatish, tavsif va ro'yxatga olish uchun ishlatiladi. Boshqa tomondan, til nomoddiy tuzilma bo'lib, uni o'rab turgan olam hodisalari o'rnini bosuvchi belgilarni uzatishdan iborat vazifani utaydi. Tilning ikki tomonlama mohiyati shundaydir".²⁴ Demak, til odamlarning muloqot vositasi, nutq esa belgilar tizimidir. Bu ta'riflar bir-biriga zid emas, balki bir-birini to'ldiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda tilning funksional vazifalarini farqlash lozim.

Tilning ijtimoiy vazifalari va ularni til o'qitish amaliyotida talabalarga o'rgatish masalasi lingvistika (tilshunoslik)da juda muhim hisoblanadi. Mazkur masalaning hal etilishida pedagogik, psixologik, metodik, tashkiliy-texnik jihatdan yondashuvlar talab

etiladi. Bunda tilning maqsadlari va funksiyalariga ko'ra yondashuvlar xususiylashadi.

Ma'lumki, maqsadiga ko'ra, til aloqa vositasidir, ya'ni insonlar o'rtasida axborot almashishga xizmat qiladi. Axborot almashish insonning aqliy faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, fikr va his-tuyg'ularni shakllantirish va uzatish, insonning tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarini to'plash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Til tarkibidagi ichki o'zgarishlar provardida uning jamiyatdagi faoliyati bilan belgilanadi. Tilning vazifalari deganda uning mohiyati, maqsadi va jamiyatdagi harakati, tabiati, ya'ni, uning xususiyatlari bo'lib, ularsiz tilning o'zi bo'la olmaydi.²⁵

Demak, til birligining vazifasi uning o'ziga xosligi bo'lib, unda uning mohiyati namoyon bo'ladi.

Tilning kommunikativlik funksiyasi jamiyat ichida aloqalarni, munosabatlarni tartibga soladi, undagi axborot oqimlarini ta'minlaydi va fikrni shakllantirish hamda kognitiv sohasini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda atrofdagilar, muloqotga kirishuvchilarning mushohada yuritish dinamikasini kengaytirishdan, real va chayoliy dunyo tasvirining nutq timsolidan iborat.²⁶

Tilning ikkinchi umumiy kognitiv funksiyaning bir qismi sifatida ba'zan maxsus - kognitiv (yoki akkumulyator) funktsiya ajralib turadi. Inson dunyo haqida bilgan narsalarning ko'r qismi unga til orqali o'rganadi, chunki, sezgilar orqali to'rlangan tajriba uning bilimining kichik bir qismini tashkil etadi, cholos. Masalan, *Please, help me to learn English. (Iltimos, menga ingliz tilini o'rganishga yordam bering.)*

- Do the tasks on the interactive whiteboard! (Mashqlarni interaktiv doskada bajaring!).

Ko'rib turganimizdek, bu gaplar turli lingvistik vositalarni bevosita qabul qiluvchiga turli kuch ta'siri orqali yetkaziladi.

²⁵ Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – 447 с.

²⁶ Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. –М.:Изд-во АН, 1963. Т.1. – С. 349.

²⁴ Белицкая Г. Е. Язык как знаковая система. - М.: Наука, 1989. - 240 с.

Warm outside (Tashqarida iliq havo).

It is cold outside (Tashqarida sovuq).

The auditorium is light (Auditoriya yorug').

It's dark in the auditorium (Auditoriya qorong'u).

Shu bilan birga, til hodisalarini tasvirlash va tushuntirish tilning o'zi yordamida amalga oshiriladi. Bu ham tilning metalingvistik funksiyasini namoyon qiladi.

Tilning referensial funksiyasi fonemalarning o'ziga xos namunalarida me'yorlar rolini o'ynashida ifodalanadi va nutq tovushlarini idrok qilishda ishtirok etadi.

Ingliz tilini o'qitishning differensial funksiyasi esa fonemalar yordamida so'z va so'z shakllarini ajratishga xizmat qiladi. Fonemalarda morfema, so'zlarga xos bo'lgan boshqa funksiyalar mavjud emas. Har qanday tilda ular aniq tizimlashtirilgan va tilning fonetik tizimini tashkil qiladi.²⁷

1. Ferdinand de Saussurening nutqning tilga qarama-qarshiligi haqidagi asosiy qoidalar quyidagilardan iborat deb hisoblaydi: "til faoliyatini o'rganish ikki qismga bo'linadi: ulardan biri va eng asosiysi, o'z predmeti sifatida tilga egalik, ya'ni mohiyatiga ko'ra ijtimoiy va shaxsga bog'liq bo'lmaganlikda, ikkinchisi esa, ikkinchi darajali, o'z predmetiga ega nutq faoliyatining individualligida namoyon bo'ladi; nutq va til bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'zaro bir-birini taqozo qiladi, til ijtimoiy, jamoat hodisasi bo'lsa, nutq individualdir, uni shaxs boshqaradi; nutq faoliyati bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy, ham psixofiziologikdir; tilning tizimli xususiyatlari: tovush tarkibi, so'zning tuzilishi va uning ma'no xususiyatlari, tovushlar, morfemalar va so'zlarni birlashtirish qoidalar muhim ahamiyatga ega; nutq jarayonida notiq yoki so'zlovchi doimiy ravishda yangi kompozitsiyalar, so'zlarning birikmalarini yaratadi, lekin tilda allaqachon mavjud bo'lgan

qoidalar doirasida ushbu tilning barcha so'zlovchilari foydalanadigan belgilarida namoyon bo'ladi".²⁸

Shundan kelib chiqib, tilda umumiy va doimiy, nutqda esa birlik va o'zgaruvchanlik ustunlik qiladi, degan xulosaga kelish mumkin. Ya'ni tildagi har bir yangi narsa nutqdan kelib chiqadi, u birinchi marta raydo bo'ladi, keyin u takroriy takrorlash va ko'paytirish shaklida "qayta ishlov" dan o'tadi. Shu bilan birga, nutqda paydo bo'ladigan hamma yangi narsa keyinchalik tilda mustahkamlanadi. Til va nutq bir-biriga qarama-qarshi hodisalar emas, balki faqat umumiy mohiyatning turli ko'rinishlari bo'lib, ularni to'g'ri tushunish uchun ikkalasini birgalikda - umumiyning bir qismi sifatida (tilshunoslikda yaxlit tizim sifatida) va alohida o'rganish kerak.

Yuqorida aytilganlarga asosan, biz tilda fonetik, morfologik, leksik va sintaktik tizimlarning mavjudligi haqida fikr yuritishimiz mumkin.

Til mavhum tizim sifatida so'zlashuvchilar jamoasining mulki bo'lganligi bis til ma'lum bir hayotiy vaziyatda tilning individual ko'rinishi sifatida nutqga tubdan qarama-qarshidir va nutq til bilan uzviy bog'liqdir. Chunki til haqiqatda faqat nutqda mavjud. Til tizimi haqidagi barcha ma'lumotlar, jumladan, lug'at va grammatika olimlar tomonidan ushbu tilda so'zlashuvchilarning nutq amaliyotidan olingan. Shu bilan birga, nutq atamasi har qanday tilda (ingliz, o'zbek tillarida garirish va yozish) amalga oshiriladigan nutq faoliyatining sinonimi sifatida ham qo'llaniladi va natijada ushbu faoliyatning mahsuli, ya'ni, berilgan tildagi og'zaki va yozma matnlardan iborat tuzilmada ifodalanadi.

Tilning semiotik xususiyatlari uning muhim vazifasini belgilaydi va aloqa vositasi (kommunikativ) bo'lishida ifodalanadi. Bu odamlar o'rtasidagi lingvistik muloqot amalga oshiriladigan

²⁷ Авесто / тарж. ва изоҳлар муаллифи А. Маҳкам. - Тошкент: Шарқ, 2001. - 368 б.

²⁸ Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. - Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 1999. - 432 с.

maxsus belgilar tizimi ekanligi tufayli muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.²⁹

Belgi – ma'lum sharoitlarda (belgili vaziyat yuzaga kelganda) ma'lum bir qiymatga mos keladigan ma'lumotni uzatish vositasi, moddiy ob'ekt [86; 191-b.].³⁰ Belgining asosiy oltita xususiyatlari bor. Ikki tomonlamalik belgining birinchi asosiy xususiyatidir. Belgi ikki tomonlama mavjudlikdir: bir tomondan, u moddiy, ifoda rejasiga (belgilovchiga) ega, ikkinchi tomondan, u nomoddiy ma'no tashuvchisi, ya'ni, mazmuni (ma'nosi) rejasiga ega hodisa.³¹

Har qanday ob'ektga belgi funksiyasi berilishi mumkin, agar u aloqa jarayonida xabar qilinadigan ob'ektlarning o'zidan emas, balki ushbu ob'ektlarni ifodalovchi o'rnini bosuvchi narsadan foydalanilganda sodir bo'ladigan belgi holatiga kiritilgan bo'lsa, misol uchun, svetoforming yashil chirog'i piyodaga yo'l ochiq ekanligini bildiradi.³² Demak, belgining o'ziga xos xususiyati biror narsani almashtirish, har qanday predmetning vakili bo'lish xususiyatidir. O'rnini bosuvchi til birliklari belgining ikkinchi asosiy xususiyatidir.

Ingliz tilini o'qitishda talabalarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun bir necha turdagi belgilar qo'llaniladi: belgi-belgi, belgi-ishora, belgi-ramz, lingvistik belgilar. Haqiqatan ham, belgilar - bu belgi-ishoralar, belgi-ramzlar va lingvistik belgilar, chunki ular ma'lum bir ma'noni bildirish, kelishuv, (konvensiya) bo'yicha ma'lumot olib borish uchun maxsus, ataylab qo'llaniladi.³³ Belgilovchi bilan belgining o'zi o'rtasidagi bog'lanish, qoida tariqasida, shartli, ixtiyoriy bo'lishi mumkin. Shu bilan birga,

²⁹ Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. - Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 1999. - 432 с.

³⁰ Максимова В. Н. Межпредметные связи в процессе обучения. - М.: Просвещение, 1988. - 191 с.

³¹ Кибрик А.Е. Очерки по общим и прикладным вопросам языкознания (универсальное, типовое и специфическое в языке). - 2-изд. -М.: Эдиториал, 2001. - С. 9.

³² Моррис Ч. Знаки, язык и поведение. - М.: Прогресс, 1982. - 192 с.

³³ Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. - Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 1999. - 432 с.

belgining ikki tomoni o'rtasidagi munosabatlarning shartliligi bo'lishi shart emas, ko'p hollarda belgining ma'nosi qandaydir tarzda uning belgisi (ifoda rejas) bilan ifodalanadi.

Belgining uchinchi xususiyati motivasiyalik xususiyatidir. Bunga misol tariqasida ramz belgilari (gerblar, qo'l siqish tasvirlangan rasm (do'stlik ramzi)) motivasiya xususiyatiga ega bo'lib, ularning belgilangan ob'ektdan (hodisada) uning ayrim xossalari va belgilarini abstraksiya qilish asosida shakllanganligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ob'ektlarning (hodisalar) individual xususiyatlari yoki belgilari belgining asos nuqtasida muhrlanadi va butun hodisaning vakili, o'rnini bosuvchi rol o'ynaydi.

"Belgilar (alamatlar) boshqa belgilar turlaridan farqli o'laroq, ular bilan tabiiy bog'liqlik tufayli ob'ektlar yoki hodisalar haqida ma'lumot tashuvchi motivasiyaning yanada yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Masalan, tutun olovni, tumanli shisha derazadan tashqaridagi past haroratni, osmondagi bulutlar yomg'ir yog'ish ehtimolini ko'rsatadi".

Muloqotda belgilarning ma'nosi suhbatdoshlari o'rtasidagi kelishuvga bog'liq emas, balki moddiy ob'ektning belgilangan tabiiy bog'liqligi bilan baholanadi. Shuning uchun ramzli belgilar nutqdagi "to'g'ri" belgilar hisoblanmaydi.³⁴

An'anaviylik belgining to'rtinchi asosiy xususiyati bo'lib, u qandaydir o'zaro ta'sir ishtirokchilari uchun ma'lum bir sifat va xususiyatlarni tan olishga rozi bo'lgandan keyin ob'ekt tomonidan qo'lga kiritiladi. Ma'lum bo'lishicha, har qanday sub'ekt nomining asosini shartnoma (konvensiya), kelishuv tashkil qiladi. Ma'lum bir tovush shakliga muayyan tarkibni berishga qaror qilish belgining paydo bo'lishiga olib keladi.³⁵

Belgining beshinchi muhim xususiyati uning izchilligidir. Har bir belgi ma'lum belgilar tizimining a'zosi hisoblanadi. Belgining ma'nosi u bilan bog'liq bo'lgan boshqa belgilarning ma'nosi bilan


³⁴ Пирс Ч. С. Избранные философские произведения. - М.: Логос, 2000. - 448 с

³⁵ Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. - Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 1999. - 432 с.

belgilanadi va ma'lum bir tizimni tashkil etuvchi belgilarga nisbatan, yoki, ularga qarama-qarshilikda aniqlanishi mumkin. Jamiyatda faoliyat ko'rsatuvchi belgilar tizimlari axborotni saqlash va uzatish uchun mo'ljallanganligi sababli, ularning zaruriyligi bu tizimlarni tashkil etuvchi belgilarning barqarorligi yoki takrorlanishidir. Belgi tugallangan shaklda takrorlanadi, u an'anaviy va o'zboshimchalik bilan almashtirilishi mumkin emas. Shaxs, yohud jamoat jamiyatda mavjud bo'lgan belgilarni o'z xohishiga ko'ra erkin o'zgartira olmaydi, buning uchun tilshunoslikda yangi til normalari paydo bo'lishi zarur.

Barqarorlik (qayta ishlab chiqarish) belgining oltinchi asosiy xususiyatidir. Belgilarning barcha sanab o'tilgan xususiyatlari: ikki tomonlamalik, o'rnini bosuvchi belgi, motivasiya, shartlilik, izchillik, takrorlanuvchanlik - lingvistik birliklarga chosdir. Bu jihatdan til ishora (semiotik) sistemadir.

Tadqiqot doirasida til birliklarining semiotik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, til belgisi ikki tomonlama ekanligiga amin bo'lamiz:



1.3.1-rasm. Semiotik xususiyatga ko'ra til belgilari

Eng asosiysi, har bir til birligi ham belgi emas, chunki hamma til birliklari ikki tomonlama xususiyatga ega emas. Masalan, tovush va

bo'g'inlar ifoda rejasiga ega, mazmun rejasiga ega emas. Demak, tovush, bo'g'in tilning ramziy birliklari emas.³⁶

Moddiy shakl (tovushlar ketma-ketligi) va unga berilgan ma'noga ega bo'lgan so'z asosiy lisoniy belgidir. Semiotik xususiyatga ko'ra, so'z majoziy ma'noga ega turg'un birikmalarga (frazologik birliklar) - mazmunan yaxlit bo'lgan, muloqot jarayonida so'zlar kabi, tugallangan shaklda ko'paytiriladigan rasmiy ravishda ajratilgan birliklardan tashkil toradi. Morfemalar ham alohida turdagi lisoniy belgilardir.

Morfemalar (ildizlar, prefikslar, qo'shimchalar) so'zlar kabi ikki tomonlama xususiyatga ega, ammo so'zlardan farqli o'laroq, ular odatda nutq aloqasida mustaqil ma'lumot tashuvchisi sifatida ishlatilmaydi, faqat so'zlar va so'z birikmalarining bir qismi sifatida ishlatiladi. Ularning ma'nosini boshqa morfemalar bilan birikmalarda ifodalaydi. Shu munosabat bilan morfemalarga yarim belgilar deyiladi.

Ingliz tilida til belgilari, boshqa belgilar kabi, boshqa ob'ektlarning o'rnini bosuvchi, ifodalovchi ob'ektlar vazifasini bajaradi. So'z mos keladigan narsa yoki hodisa haqida tasavvur hosil qiladi, shuning uchun u bu fikrning belgisi sifatida xizmat qiladi. Lingvistik belgining muhim xususiyati bitta ob'ektni emas, balki ko'rlab ob'ektlar va hodisalarni belgilash, almashtirish xususiyatiga egaligidir. Masalan, *tree* - *daraxt* so'zi faqat ma'lum bir daraxtga emas, balki barcha daraxtlarga tegishli. Lingvistik belgi ob'ektlar va hodisalarni bildiradi, shuningdek, belgilab qo'yilgan ob'ektning tabiati, xususiyatlari haqida shaxsning tasavvurini shakllantiradi. Til belgisi ikki tomonlama: narsalar olamiga va g'oyalar olamiga (narsalar haqidagi tasavvurlar, bilimlar) munosabatiga ega.

Tilshunoslikda belgi, u bildirayotgan ob'ekt va uning boshqa ob'ektlar bilan aloqalari o'rtasidagi munosabatni aniq aks ettirmasligi mumkin. Xuddi shu belgi turli ob'ektlarni bildirishi

³⁶ Нурмонов А. Принцип экономии в фонетических изменениях узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1973. – 182с.;

mumkin, bu esa omonimiyaga misol bo'ladi. Masalan, **kamon** (**qoshlari kamon-majoziy ma'noda-qayrilgan qosh**), yoki **kamon - qurol, aslaha** ma'nosida ishlatilishi mumkin. Qarama-qarshi holat sinonimiya bo'lib, unda ikki, yoki, undan ortiq turli belgilar bir xil referent bilan bog'liq. Belgi, uning ma'nosi va belgi o'rtasidagi munosabatlarning barcha tavsiflangan turlarini nafaqat tabiiy leksikada, balki boshqa belgilar tizimlarida ham ko'rish mumkin, ammo bu munosabatlarning noparallelligi lingvistik belgining assimetriyasi deb ataladi.

Lisoniy birliklar ma'nosining tahlili, so'zsiz, grammatik ma'noni e'tiborga olishni talab qiladi. Aks holda, leksik ma'noni bilim, axborotni saqlovchi hodisa ekanligini isbotlab bo'lmaydi. M.Mirtojiev leksik va grammatik ma'nolar o'rtasida jips bog'lanish borligi "kitobni oldim" birikmasi tahlil orqali izohlaydi. Bu yerda "kitobni" unsurining leksik ma'nosi ma'lum bir tushunchani ifodalash bilan ot turkumiga mosligi va tushum kelishigida ekanligi, "oldim" unsuri esa, tushunchani ifodalash bilan fe'l turkumiga mansubligi va o'tgan zamonda, aniqlik maylida, o'timsiz ekanligi qayd etilgan

Leksika sohasida lisoniy belgining ikki tomonining assimetriyasi, masalan, bir semantik guruhning bog'lanishlari turlicha rivojlanishi mumkinligida namoyon bo'ladi. Demak, bir semantik soha doirasida ijobiy va salbiy sinonimlar turlicha rivojlanadi: "sekin" ma'nosiga qaraganda "tez" ma'nosiga sinonimlar ko'proq.³⁷ Tabiiy tilda baholashning o'ziga xos xususiyati baholashning ijobiy va salbiy zonalarini o'rtasidagi assimetriyadir. "Mantiqiy baholash nazariyalarida baholash shkalasining ijobiy va salbiy qismlari, albatta, bir-birini taxmin qiladi, tabiiy tilda esa "+", "-" simmetriya faqat alohida holatdir".³⁸ Ta'kidlanayotgan so'zlar, masalan, "+" zonasida va "-" zonasida ko'r hollarda qarama-qarshi (antonim) juftlarni tashkil etmaydi.

³⁷ Никитин М. В. Основы лингвистической семантики. - М.: Высшая школа, 2007. - 168 с.

³⁸ Ульман С. Семантика. Введение в науку о значении. - М.: Прогресс, 1970. - 320 с.

Ingliz tilini o'qitishda lisoniy belgining ikki tomonlama assimetriyasini inobatga olish muhimdir. Asimmetrik antonimik juftlarning boshqa misollarini solishtiramiz: *bright holiday - mournful holiday; light mood - night mood; a light thought - a mournful thought; bright laughter - mournful laughter; bright memoriyes - dark memoriyes* (quvonchli bayram - motamli kun; yaxshi kayfiyat - tushkun kayfiyat; yengil fikr - qayg'uli fikr; jarangdor (quvnoq) kulgi - g'amgin kulgi; yorqin xotiralar - og'riqli (yoki g'amgin) xotiralar).

Ingliz tilini o'qitish metodikasida belgining motivatsiyasi muhim o'rin egallaydi. Agar, belgilovchi bilan belgi o'xshashlik yoki tutashlik munosabatlari bilan bog'langan bo'lsa, unda bu motivatsiyaga turtki bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, belgining motivatsiyasi berilgan ob'ekt yoki hodisaning nima uchun aynan shunday belgi (so'z) bilan belgilanishini ko'rsatadi. Masalan, to shout, to knock, to laugh, to meow, to hiss, to growl; *qichqirmoq, taqillamoq, kukulamoq; miyovlash, shivirlash, gurillash* so'zlari lingvistik motivatsiyaga turtki bo'ladi, chunki ob'ekt va uning nomi (uni bildiruvchi belgi) o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud. Bu bog'lanish jonli va jonsiz tabiat jismlari chiqaradigan tovushlar va ularning nomidagi tovushlarning o'xshashligida namoyon bo'ladi. Bu motivatsiya tilshunoslikda fonetik motivatsiya deb ataladi.³⁹

Tilda motivatsiya hodisasi bir xil darajadagi boshqa birliklar mazmuni va shakliga ko'ra ayrim birliklarning mazmuni va shakli shartli bo'lgan taqdirda ham sodir bo'lishi mumkin. Ko'pgina lisoniy belgilar motivsiz bo'lib, ular belgilovchi va belgi o'rtasidagi shartli bog'lanish bilan tavsiflanadi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, berilgan ob'ekt nima uchun berilgan belgi bilan belgilanishini tushuntira olmasak, belgi (so'z) motivsizdir. Masalan, *qo'l, uy, o'rmon, yo'l* va ingliz tilidagi *hosila*

³⁹ Есперсен О. Философия грамматики = The Philosophy of Grammar / О. Есперсен; пер. с англ. В. В. Пассека, С. П. Сафроновой; под ред. Б. А. Ильиша. - М.: Издательство иностранной литературы, 1958. - 404 с.

bo'lmagan *buqa, qo'ziqorin, o'g'il, buva* va boshqa ko'plab motivasiyasiz so'zlar.

Motivatsion munosabatlar barcha tillarda uchraydi, lekin ingliz tilida ular asosan leksik darajadagi birliklar orasidagi munosabatlarni tavsiflaydi.

Til va boshqa semiotik tizimlar haqida fikr bildirar ekanmiz, bunda signal tizimlari ko'p va chilma-chil ekanligi ayon bo'ladi. Vaqtning har bir daqiqasida biz bir vaqtning o'zida bir nechta belgilar tizimidan foydalanamiz: birinchi navbatda, o'zlashtirilishi erta boshlangan til belgilari, yozuv belgilari, odob-ahloq tizimini bildiruvchi belgilar, minnatdorchilik belgilar, transport vositalarining harakatini tartibga soluvchi belgilar, shaxsning ijtimoiy mavqeini ko'rsatadigan - "tashqi belgilar"; "banknotalar", iqtisodiy hayotning o'lchovlari va ko'rsatkichlari, marosim, diniy belgilar, san'at belgilari (musiqqa, tasviriy san'at).⁴⁰ Shunday qilib, til eng muhim bo'lsa ham, ishora tizimlaridan faqat bittasidir. Barcha turdagi belgilar tizimlari semiotikaning predmeti hisoblanadi.

Ingliz tilini o'qitish metodikasida tafakkurni tilga qarama-qarshi qo'yuvchi quyidagi g'oyalar an'anaviy tarzda ko'rib chiqilishi mumkin.

1. Tafakkur voqelikni aks ettiradi; til voqelikni ifodalaydi.

2. Tafakkur ideal (materiya xossalari ega emas: massa, kengayish, zichlik); til moddiydir (uning barcha birliklari tovushlar va belgilar bilan qoplangan).⁴¹

Til va tafakkur o'rtasidagi munosabatda ham namoyon bo'ladi. Axborotni tuzatish, uzatish va saqlash vositasi bo'lgan til tafakkur bilan, odamlarning ob'ektiv mavjud dunyoni tushunishga, uni inson ongida aks ettirishga (modellashtirishga) qaratilgan barcha ma'naviy faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, yaqin dialektik birlikni shakllantirgan holda, til va tafakkur bir xillikni tashkil etmaydi: ular bir-biridan farq qiladi, garchi bir-biriga

⁴⁰ Моррис Ч. Основания теории знаков // Семиотика: Антология. - М.: Академический проект, 2001. - С. 45-97.

⁴¹ Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999. - 352 с.

bog'langan hodisalar bo'lsada, ularning sohalari kesishadi, lekin to'liq mos kelmaydi.⁴²

Muloqot kabi, fikrlash ham verbal va nonverbal bo'lishi mumkin. Og'zaki bo'lmagan fikrlash voqelik taassurotlarini idrok etish natijasida paydo bo'ladigan va keyin xotirada saqlanadigan va tasavvur tomonidan qayta tiklanadigan vizual-sensorli tasvirlar yordamida amalga oshiriladi. Noverbal fikrlashning yuqori darajada rivojlangan shakllari (og'zaki fikrlash bilan birgalikda) odamlarda uchraydi. Shunday qilib, og'zaki bo'lmagan - bu texnik xarakterdagi ijodiy muammolarni hal qilishda aqliy faoliyat (masalan, fazoviy muvofiqlashtirish va mexanizm qismlarining harakati bilan bog'liq) fikrlash mavjud bo'lib, u muammolarni hal qilish uchun odatda ichki (va undan ham ko'proq tashqi) nutq shakllarida davom etmaydi. Bu maxsus "texnik" yoki "muhandislik" fikrlashdir. Shaxmatchining tafakkuri bunga yaqin. Vizual-majoziy fikrlashning alohida turi rassom, haykaltarosh va bastakor ijodiga xosdir.⁴³

Verbal fikrlash so'zlar, mulohazalar, xulosalar bilan mustahkamlangan tushunchalarda namoyon bo'ladi, uning yordamida ma'lumotlar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi, farazlar va nazariyalar quriladi. U tilda o'rnatilgan shakllarda davom etadi, ya'ni ichki yoki ("baland ovozda fikrlash") tashqi nutq jarayonlarida amalga oshiriladi. Aytishimiz mumkinki, til insonning dunyo haqidagi bilimlarini ma'lum bir tarzda tartibga soladi, bu bilimlarni qismlarga ajratadi, mustahkamlaydi va keyingi avlodlarga beradi. Konseptual tafakkur, shuningdek, ikkinchi darajali, sun'iy tillarga, inson tomonidan qurilgan maxsus aloqa tizimlariga asoslanishi mumkin.⁴⁴

Ushbu faktlarning barchasini hisobga olgan holda, inson tafakkuri ko'p komponentli, har xil aqliy faoliyat turlarining murakkab majmui bo'lib, doimiy ravishda bir-birini almashtiradi, to'ldiradi va ko'pincha sintezda, o'zaro bog'liqlikda harakat qiladi.

⁴² Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1984. - 397 с.

⁴³ Леонтьев А. Н. Проблемы развития психики. - М.: Издательство МГУ, 1981. - 584 с.

⁴⁴ Потебня А. А. Мысль и язык. - М.: Лабиринт, 1999. - 300 с.

Og'zaki fikrlash inson tafakkurining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Til insonning barcha aqliy faoliyati bilan, ya'ni nafaqat tafakkur, balki his-tuyg'u va iroda bilan ham bog'liqdir.

Dunyo tillarining ko'pligi va juda xilma-xilligi inson tafakkurining asosiy birligiga, aqliy faoliyat davom etadigan mantiq qonunlarining birligiga hech qanday putur yetkazmaydi; biroq, so'z va grammatik shakllarda mustahkamlangan tushunchalar inventarizatsiyasi, albatta, bir-biridan farq qiladi (masalan, ingliz tilidagi "go", "make" fe'llari bir nechta ma'nolarni bildiradi.⁴⁵ Garchi nutqda va tilda hamma narsa semantik mazmunni ifodalash vazifasiga bo'ysundirilgan bo'lsada, til tuzilishi va nutq faoliyati jarayonlaridagi ba'zi jihatlar oraliq bo'g'inlarning butun zanjiri orqali faqat bilvosita ifodalangan fikr bilan bog'lanadi.⁴⁶

Shunday qilib, ilmiy manbalar tahlilidan ayon bo'lishicha, tilning tafakkur bilan aloqasi uning ikkala vazifasini ham: kommunikativ va kognitiv funksiyalarni bajarishga imkon beradi. Til va tafakkur ijtimoiy faoliyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ikkita turidir. Biroq, bu aloqaning tabiati va sifati haqida turli xil fikrlar mavjud: fikrlash mexanizmi og'zaki kod bilan bog'lanmaydi va tildan mustaqil ravishda amalga oshiriladi; tafakkur mexanizmi til bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz tafakkur bo'lmaydi; fikrlash ham og'zaki, ham noverbal (vizual obrazli) bo'lishi mumkin. Ingliz tilida til darajasi tizimi mavjud.⁴⁷ Til tizimining murakkabligi tilning jamiyat hayotidagi eksklyuziv roli, til va tafakkurning murakkab munosabati bilan belgilanadi.

Tilga nisbatan umumiy yondashuvlardan biri uni turli darajadagi birliklardan tashkil topgan murakkab tizim yoki "tizimlar sistemasi" deb qarashdir.⁴⁸

⁴⁵ Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.

⁴⁶ Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.

⁴⁷ Зарубина Н.Д. Текст: лингвистический и методологические аспекты. – М.:Русский язык, 1981. – 183с.

⁴⁸ Реформатский А. А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 1996. – 536 с.

Darajalar umumiy til tizimining quyi tizimlari bo'lib, ularning har biri nisbatan bir xil birliklar va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi qoidalar to'plami va turli sinflar va kichik sinflarga guruhlanishi bilan tavsiflanadi.

Tilning barcha elementlarining chambarchas bog'liqligi, ularning o'zaro bog'liqligi haqida yagona tuzilma sifatida tan olinishiga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda tilning kelib chiqishining bir nechta nazariyalari mavjud: onomatoroetik, interjektsiya, mehnat va boshqalar.

Fikrimizcha, ingliz tilini integratsiyalab o'qitishda diskurs xususiyatlari *antroposentriklik, intensionallik, vaziyatlilik, struktur-semantik yaxlitlik, ochiqlik, dinamiklik* kabilar elektron resurslar tarkibiga lisoniy hodisalarning asl mohiyatini tasavvur qilish imkoniyatini kengaytirish asosidagi metodikani takomillashtirish zarur.

Shunday qilib, ushbu nazariyaning ijobiy tomoni birinchi inson so'zlarini ishlab chiqarish mexanizmining kelib chiqishini ko'rib chiqishga urinishdir. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri tilning funksional vazifalarini aniq anglash va shu asosda kelgusidagi kasbiy faoliyatini tashkil qilishda muhim ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi, chunki, ijtimoiy til amaliyoti jarayonida vujudga kelgan hodisalarni grammatika, ma'lumotnomalar, lug'atlarda qayd etish uchun mo'ljallangan umumjahon majburiy normalari va ularning kodifikatsiyasi; normalashtirish, ya'ni, noto'g'ri foydalanishdan to'g'ri foydalanishni afzal ko'rishning yorqin tuyg'usi sifatida ifodalanishini amaliyotda qo'llash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

M.I.Rasulova ko'rsatib o'tganidek, "hozirgi taraqqiyot bosqichida til unsurlari tasnifi masalasini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud, zotan ushbu masalaning yechimini topmasdan turib tadqiq ob'ektiga muqobil lingvistik nazariya shakllantirishning imkoni yo'q". Demak, kognitiv o'qitish metodikasida "diskursiv burilish" yuzaga kelgani

sezilib turibdi. Bunga sabab, tahlil ob'ekti sifatida alohida olingan so'z yoki gap emas, balki diskurs tanlanayotganidir.

“Chet tili” ta'lim sohasi o'zaro bog'liq sohalardan iborat: so'zlar tilning asosiy birliklaridan biri sifatida; inson muloqotining eng muhim vositasi bo'lgan til va tilshunoslik (tilshunoslik) inson tilining tuzilishi va faoliyatining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan sifatida tushuniladi.

O'qitish metodikasida asosiy kommunikativ birlik sifatida matn muammosi bilan shug'ullanadi. Matn ma'lum bir madaniyatning belgisidir, undan ma'lum davrlar va davrlarda tarix, madaniyat, iqtisodiy rivojlanish, geografik xususiyatlar, ma'lum bir sinf va ijtimoiy guruhlarning umumiy atmosferasi, shuningdek asar muallifi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish mumkin. Matnning tuzilishi, uning adabiy tahlili uning badiiy o'ziga xosligini baholashga imkon beradi. Shunga ko'ra, «chet tili» ta'lim sohasi fan va san'at tilining fan sohalarini o'z ichiga olgan tizimni ifodalaydi. Ingliz tilini integrativ o'qitishda ham matn, axborot, ma'lumot kabilar qo'llanilmasin, barchasi til funksiyalariga ko'ra lingvodidaktik jarayonda o'quv materiallari sifatida muhimdir. Ulardan foydalanishda diskursiv elektron resurslarga e'tibor qaratish kutilgan natijalarni ta'minlash imkoniyatini kengaytiradi.

II-BOB. TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI O'QUV MATERIALINI SAMARALI O'ZLASHTIRISHLARIDA INTEGRATIV O'QITISHNING SHART-SHAROITLARI

2.1. Ingliz tilida taqdim qilinadigan o'quv materiallarida diskursiv komponentlarning integrativ tamoyillari

Zamonaviy ta'lim nazariyasi va o'qitish metodikasi sohasida o'tkazilayotgan tadqiqotlarda tahsil oluvchilarning o'quv-biluv faoliyati dinamikasidagi ko'rsatkichlarni taqqoslash shartlari mavjud bo'lib, ular zahirida gumanitar bilimlarning ilmiy xarakterga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlar, manbalarni o'rganishimiz natijasidan aniqlanishicha, talabalar faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalarni egallashga yo'naltiriladi. O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va talabalarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi. Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida o'qituvchi talabalariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u talabalarda dunyoqarash va axloq normalarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi.

Taqdim qilinayotgan ingliz tilidagi o'quv materialida semantik munosabatlarning jumladan qanday ifodalanishini

tahlil qilish asosida aloqa usullari tahlili keltirilishi talabalar uchun jumladagi so'zlarning tartibiga, ma'lum qoidalariga amal qilishga yordam beradi. O'quv materialidagi leksik va sintaktik vositalar orasida takrorlash: leksik, pronominal, sinonim va semantik jihatlar muhim bo'lib, takrorlash jummalarni birlashtirishning keng tarqalgan vositasi sifatida qo'llanilishiga e'tiborni qaratish lozim. Har qanday o'quv materialida vizual va eshitiladigan so'zlarning toifalaridan foydalangan holda talaba nutqini izchil shakllantirishga zamin hozirlanadi, demak, tahlillardan "o'quv materiali" istilohiga quyidagicha ta'rifni shakllantirsak bo'ladi:

O'quv materiali-o'qitish jarayonida foydalaniladigan, tahsil oluvchilarni nazariy hamda amaliy bilimlar bilan qo'rollantiradigan o'quv moduli, yoki o'quv kursi bo'yicha malaka talablari asosida ishlab chiqilgan ta'limiy resurs.

Ijtimoiy buyurtma asosida har bir modul mazmunini tashkil etgan o'quv materiali kasbning, yoki o'rganilayotgan tilning mohiyati, qonuniyatlari asosida yaratiladi. Mazkur o'quv materiali lingvodidaktik jarayonda ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida amaliyotda qo'llaniladi. O'quv materiali oliy ta'limning pedagogik jarayonlarida muhim komponentligi sababli, ayniqsa, ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar orqali talabalarga taqdim etiladi, amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari shaklida taqdim etiladi va aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash asosida talabalar tomonidan tahliliy o'zlashtiriladi.

O'quv materiali qanchalik vizual va diskurs xususiyatli bo'lsa, talabalarining til o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shuning uchun talabalarining ingliz tilidagi o'quv

materialini samarali o'zlashtirishlarida o'quv motivasiyasining o'rni beqiyosdir.

Motivasiya ruhiy - fiziologik jarayon bo'lib, u inson harakatini boshqarish, maqsad sari yetaklovchi vosita, tashkillashtirish, faollik va bardoshlilik kabi ma'nolarni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, motivasiya-inson xulq-atvorini boshqaradigan, uning yo'nalishi, faolligi va barqarorligini belgilovchi psixofiziologik jarayon; insonning o'z ehtiyojlarini faol ravishda qondirish qobiliyati.

O'quv-biluv motivasiyasi - bilim egallashga bo'lgan maqsad, intilayotgan holat, maqsadga erishish uchun muhim bo'lgan sababdir. Borliqni anglash uchun ta'lim jarayonida egallanadigan axborotlar yordamida bilishga bo'lgan ehtiyoj. Psixologiyada motivasiya ikki ma'noga ega: inson xatti-harakatlarini boshqaradigan motivlar yig'indisi va bu boshqaruv jarayonining o'zi. Oliy ta'limda ingliz tilini o'rgatish bilan bog'liq ravishda talabalarining o'quv-biluv motivasiyasini kuchaytirish tashkiliy, faoliyatli, fiziologik va psixologik yondashuvlarga tayanadigan dinamik jarayonidir. Bunda talabalarga o'quv materiallari orqali taqdim etiladigan va amaliy-grammatik jarayon orqali o'zlashtiriladigan bilimlar alohida ahamiyatlidir. Kasbiy bilimlarni egallash, kelgusidagi faoliyatga tayyor bo'lish, kirishish motivlari majmuasiga bog'liqdir.

Talabalarining ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlarida integrativ tamoyillar integrativ jarayonlarni o'rganish va sharoitlarni sintez qilish strategiyasidir. Uni amalga oshirish uchun integratsiya tamoyillaridan foydalaniladi:

1. Ingliz tili mashg'ulotlarini, lingvodidaktik jihatdan to'g'ri tashkil qilish.

2. Talabalarining bilimlarini bevosita va bilvosita sintez qilish.

3. Umumlashtirilgan ko'nikmalarni kompetensiya darajasida shakllantirish.

4. Lingvokorreksiya jarayonni modellashtirish.

5. Til o'rganish va o'rgatishga tayyorlashda faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligi (nutq, aloqa va boshqalar)ga ustuvorlik berish.

Keltirilgan tamoyillarning zarurati va ahamiyatligini ochib berishdan oldin, chet tilini o'qitishda integrativ yondashuvning tuzilishini ko'rib chiqish kerak. U ta'limning boshqa yondashuvlari kabi jihatlar, tamoyillar, maqsadlar va natijalarni o'z ichiga oladi.

Ingliz tilini integrativ o'qitish shakllariga vebinar-konferensiya, Aylanma stol davrasida, debat, raqamli matnlar kabi turlarini keltirib o'tish mumkin.

Ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuvning didaktik xususiyatlari uning tamoyillarini shakllantiradi. Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy usullarining o'ziga xos xususiyati ko'pincha o'quv jarayoni sharoitlarini tabiiy aloqa sharoitlariga iloji boricha yaqinlashtirish bilan belgilanadi. Ushbu shartni amalga oshirish uchun talaba muloqotga muhtoj bo'lishi kerak.⁴⁹ Bungi kunda V. N. Maksimovning "Ob'ektlararo darslar",⁵⁰ N. M. Talanchukning ikkilik yoki kombinatsiyalangan darslari, N. Sayidahmedovning kombinatsiyalangan ekskursiyalar, F. Ikramxanovning ob'ektlararo seminarlar, L. Axmedovning tematik kechalari, D. Hoshimovning integrativ darslari mavjud. An'anaviy ta'lim shakllarida ham mavzulararo murakkab vazifalar, savollar va muammoli vaziyatlar shakllantiriladi.

Ingliz tilini o'qitishda metodik jihat turli fanlarni o'qitish usullarini birlashtirishni o'z ichiga oladi. Masalan, loyiha, rolli

o'yinlar, munozara, keys, geymifikasiya kabi integrativlashgan pedagogik texnologiyalar vositasida talabalarning bilim o'zlashtirishlarini samarali tashkil etish mumkin. Shuningdek, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar hodisaning mohiyatini tushunishga yanada intilishadi, bu esa ularning o'zlarini chuqurroq tushunishga olib keladi. Shuningdek, o'quv matndagi voqea va hodisalarni tushunish, o'rganmoqchi bo'lgan ehtiyojlarini bilish orqali talabalar o'zlarini rivojlantirish uchun yanada ko'proq intilishadi. Yuqorida aytilganlarning barchasi ingliz tilini o'qitishda o'quv materialiga nisbatan motivasiyasining oshganligining ko'rsatkichidir.

Ingliz tilini o'qitishda tashkiliy va faoliyat komponenti turli fanlar bo'yicha ta'lim shakllarini birlashtirishni o'z ichiga oladi, bu esa ijodkorlikni rivojlantirish, motivasiya va o'qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'proq ijodiy vazifalardan foydalanishga yordam beradi.

Ingliz tilini o'qitishda diskursiv xususiyatli kontent komponentiga o'quv faoliyati (yuqorida tavsiflangan usullardan foydalangan holda, o'qitishda integrativ yondashuv maqsadlariga erishishga hissa qo'shadigan materialni sifatli tanlash) va mustaqil o'qish (madaniyatlararo o'zaro ta'sir, materialni mustaqil o'rganish) kiradi.

Talabalarning o'quv materiallarni o'rganishlarida yetakchi element insonparvarlik bo'lib, u mustaqil ijodiy fikrlash va o'zini doimiy ravishda takomillashtirish qobiliyatiga ega erkin shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

Oliy ta'limda ingliz tilini o'qitish jarayoni alohida talablarga bo'ysunishini inobatga oladigan bo'lsak, ularni samarali amalga oshirish nutq faoliyatining barcha turlarini o'qitishning o'zaro bog'liqligi, talabalarni o'qitish mazmuniga gumanitar, mintaqaviy va madaniy jihatlarni faol kiritish sharoitida tashkil qilinadi.

⁴⁹ Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.

⁵⁰ Максимова В. Н. Межпредметные связи в процессе обучения. – М.: Просвещение, 1988. – 191 с.

Ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuvning quyidagi asosiy tamoyillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- diskursiv kontentli materialda madaniy muvofiqlik prinsipi;
- ijodkorlik prinsipi;
- diskursiv xususiyatli resurslarda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirish prinsipi;
- o'zgaruvchanlik prinsipi;
- shaxsning ko'p madaniyatli o'zini o'zi belgilash va o'zini namoyon qilish prinsipi;
- tolerantlik prinsipi;
- madaniy muloqot prinsipi.

Ingliz tilini o'qitishda o'quv-biluv faoliyati tuzilmasi uch bosqichni o'z ichiga oladi:



2.1.1-rasm. Ingliz tilini o'qitishda o'quv-biluv faoliyati bosqichlari

Birinchi bosqichda ingliz tili mashg'ulotlarida diskursiv xususiyatli o'quv resurslaridan foydalanganda talabalarning faoliyat turini belgilash, ularning oldiga qo'ygan maqsadlarini prognoz qilish va ularda til o'rganishga ehtiyoj, motivlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchi bosqichda lisoniy vazifalarni integratsiyalash, maqsadlarni birlashtirish, kommunikativ munosabatlarni o'rnatish va amalga oshirish operatsiyalarini modellashtirishda diskurs resurslarni turli

shakllarda tayyorlash talab etiladi. Ulardan foydalanish evaziga talabalar nutqiy operatsiyalarni analiz va sintez qiladilar. Uchinchi bosqichda aloqa harakatlari yakunlanib, nutq harakatlari namoyon bo'ladi. Masalan, Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asarini Amaliy ingliz tili o'quv kursida 1-bosqich talabalariga mustaqil o'qish uchun tavsiya etish mumkin. Bunda quyidagi matn asosida talabalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish (shu jumladan axloqiy xarakterdagi materiallar); asosiy kompetensiyalarni shakllantirish (kommunikativ, ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy va kognitiv)ga imkoniyat kengayadi. Dissertasiya sahifalarida shunday diskursiv xususiyatli matndan parcha keltirsak:

Jack London

Love of Life

"They limped down to the creek, and once the one in front staggered, tripping in the middle of a rocky scree. Both were tired and exhausted, and their faces expressed the patient resignation of long privations. Their shoulders were burdened by heavy packs, tied with straps. Each of them carried a gun. Both walked hunched over, with their heads bowed low and their eyes downcast. Bill had already climbed out on the other side and was trudging on. His lips were trembling so violently that the stiff red moustache above them was moving. He licked his dry lips with the tip of his tongue.

- "Bill!" he cried.

It was the desperate plea of a man in trouble, but Bill did not turn his head. His companion watched him for a long time as he limped and stumbled awkwardly up the gentle slope toward the wavy line of the horizon..."

Topshiriq: Matnda diskursiv xususiyatli gaplar (so'roq gap, undov gap, darak gap va b.), so'z birikmalarni toping. Matnni davom ettiring va o'zingiz interpretatsiya qiling.

Talabalar tomonidan elektron tarzda taqdim qilingan diskursiv xususiyatli interpretasiya qilingan matn:

The sun was shining dimly just above the horizon, barely visible through the haze and thick fog that lay like a thick veil, without visible boundaries or outlines. Leaning on one leg with all his weight, the traveler took out his watch. It was already four o'clock. He had lost count for the last two weeks; since it was the end of July and the beginning of August, he knew that the sun should be in the northwest.

He squatted down in the middle of the muddy stream, as if the endless desert were crushing him with its invincible power, oppressing him with its terrible calm. He trembled as if in a fever, and his gun fell into the water with a splash. This brought him to his senses. He overcame his fear, gathered his courage, and, lowering his hand into the water, groped for his gun, and slowly and carefully

Talabalarga matnni diskurs tahlilga tortish topshirig'i berilganda, ular tomonidan ishlatiladigan og'zaki va yozma nutqni o'rganishga zamin yaratildi. Bu tahlil tilning shaklini ham, vazifasini ham tekshirishga imkon yaratdi.

Ravshanki, diskursiv xususiyatli matn-mantiquy, ratsional sezgi, intuitivdan farqli o'laroq, talabalarni diskursiv fikrlashga, ya'ni belgilangan aqliy operatsiyalarga voqea-hodisani mukammal moslashtirishga mo'ljallangan apparat bo'lib, u insonning ehtiyojlaridan kelib chiqib borliqni in'ikos etishga undaydi. Shu bois, asarning yaxlit manzarasini tasavvur etish uchun talabalar o'quv matnni integrativ prinsiplar asosida o'zlashtirdilar, ya'ni elektron tarzda uni internet orqali yozib olib, o'qidilar, yuklab olingan matnni parchalarga ajratdilar, lug'at xaxiralarini boyitish uchun yangi so'zlarni daftarlariga

yozdilar, so'ngra ijodkor maqsadini yaxshiroq tushunish uchun, o'quv matnida keltirilgan mantiqiy bog'lanishlar va ular o'rtasidagi bog'liqlikni angladilar va shu bilan o'quv jarayoni uchun motivasiyasini oshirdilar.

Ingliz tilini o'qitishda integrativ yondashuvdan foydalanish natijasida o'quv jarayonini jadallashtirish, o'quv va kognitiv faoliyatni tizimlashtirish, asosiy kompetensiyalarni shakllantirish, samarali madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxsni shakllantirish, talabalarning kasbiy mahoratini shakllantirish, har tomonlama shaxsiy rivojlanish, o'zgaruvchan fikrlashni shakllantirish, o'quv jarayonini shakllantirishga imkoniyat kengayadi. Buni aynan talabalarga taqdim qilingan Jek London asari bo'yicha ishlangan san'at asarlari integratsiyasida ham namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin (2.2.2-rasmga qarang).



2.2.2-rasm. Integrativ o'qitish yondashuvlari asosida talabalar tomonidan J.London asari bo'yicha diskursiv xususiyatli matnni interpretasiya qilinishi

Ushbu diskursiv xususiyatli matnni talabalar interpretatsiya qilishar ekan, integrativ yondashuvning asosiy maqsadlari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish kerak:

-tizimlarni o'zaro boyitish va o'zaro boyitish orqali yangi ko'nikma va malakalarni shakllantirish (shu tufayli talabalarning imkoniyatlari kengayadi);

-stereotiplardan xoli va o'z harakatlarida erkin bo'lgan shaxsning yangi turini shakllantirish, bu konstruktiv madaniyatlararo muloqotga tayyor shaxsni shakllantirish bilan bog'liq;

-jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lgan bag'rikeng shaxsni shakllantirish;

-nostandart vaziyatlarda yechim topishga tayyor ijodiy shaxsni shakllantirish (muammoli vaziyatlarni yaratish orqali).

Tadqiqot mavzusi doirasidagi adabiyotlar va ilmiy maqolalarni tahlil qilish natijasida ingliz tilini o'qitish usullarining uchta guruhini ajratish mumkin: a) kognitiv-tadqiqot; b) kommunikativ-muammo; v) muammo-qidiruv.

Ingliz tilini o'qitishning zamonaviy o'quv jarayoni muqarrar ravishda talaba uchun ijtimoiy va shaxsan muhim motivlar va maqsadlar, aniq aloqa ehtiyojlari, amaliy foydalanish sohalari va holatlari bilan bog'liq. Amaliy maqsadlar, birinchidan, chet tilida muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ikkinchidan, til tizimi haqida bilim berish, buning asosida tilni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu vazifani integrativ yondashuv asosida hal qilish uchun ta'limning mazmuni va jarayon jihatlarini o'zgartirish va talabaning emotsional-hissiy omiliga ham ta'sir qilinadi.

Integratsiya-bu o'qitishning mazmuni, shakllari, usullari va tamoyillarini bir butunga birlashtirish va umumiy va madaniy sohalarida til o'qitishning o'zaro ta'sirini anglatadi.

OTtlarda ingliz tilini o'qitishning maqsadi talabalarni qiziqtirgan sohalari bilan bog'liq oddiy matnlarni tushunishga va kundalik suhbatda aniq gapirishga, oddiy faktik ma'lumotlarni yetkazishga, harakatlar sabablarini ko'rsatishga, orzular, umidlar va ambitsiyalarni tasvirlashga o'rgatishdir.

Matn materialida ishlatiladigan voqealar syujetlari talabalarning haqiqiy ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rganish asosida tuziladi. Asosiy akademik matn raqamli dialog oynasidir. Bu til materialini aloqa vaziyatlari ko'rinishida taqdim etish imkonini beradi va uni haqiqiy muloqot amaliyotida modellashtirish, o'zgartirish va birlashtirish imkonini yaratadi. Dialogik nutq namunalariga asoslangan o'quv matnlari tabiiy ravishda elementar so'zlarni o'z ichiga oladi, ular dialogning nusxasi sifatida bir vaqtning o'zida monologik nutqning asosiy talablariga javob beradi va talabalarning nutq qobiliyatlari yaxshilanishi bilan kengaytirilgan monologik so'zlarga aylanishi mumkin, chunki asosiy til birliklari, jumladagi so'zlarni bog'lash vositalari va boshqalar matnda ta'kidlangan jumlar orasida dialogik nutq ham, monologik nutq ham bir xil ko'rinish egallaydi.

Ingliz tilini o'qitishda o'qituvchi "diskursiv so'zlar" atamasi bir ma'noli talqinga ega emasligini talabalarga tushuntira olishi kerak.

Tilshunoslar nutqning izchilligini ta'minlovchi, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni ko'rsatuvchi, shuningdek, so'zlovchining aytilgan gapga munosabatini bildiruvchi leksemalarni diskursiv so'zlar guruhiga kiritishadi.

I.V Sherstyaniy fikricha: "...aynan shu birliklar muloqot jarayonini boshqaradi: ular haqiqat va axloqiy baholarni, taxminlarni, fikrlarni ifodalaydi, muloqotga kirishuvchilar, yoki ma'ruzachilarning turli bayonotlarini o'zaro bog'laydi, taqqoslaydi va solishtiradi".⁵¹ Muallifning fikriga qo'shilgan holda ta'kidlash joizki, 20 - asrning 70-yillaridan e'tiboran, o'qitish metodikasi va tilshunoslikdagi kommunikativ-pragmatik burilish munosabati bilan tadqiqotchilarning bayonotda tasvirlangan voqelik bo'lagining elementlari

⁵¹ Шерстяных И. В. Дискурсивные слова в структуре современного русского языка. – Иркутск: Изд-во Иркутского государственного университета, 2005. – 192 с.

o'rtasidagi munosabatlarni emas, balki kommunikativ vaziyat sifatida tushuniladigan nutq strukturasi elementlari o'rtasidagi munosabatlarni, shu jumladan kommunikativ ongini o'zida aks ettiradigan so'zlarga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra (K. Kiseleva, D. Payar), "diskursiv so'z doirasini tashkil etuvchi diskursiv ketma-ketlikning ma'lum bir bo'lagiga alohida diskursiv maqom beradigan shunday lingvistik birliklar"ga diskursiv so'zlar deyila boshlandi.⁵²

Diskursiv so'zlar "muloqotning alohida tarkibiy qismlarining mazmuni yoki shaklini tushuntiruvchi, eksplikatsiya sifatida tahlil qiladigan yoki sharhlovchi bayonotlar" tarzida belgilanishi mumkin bo'lgan metakommunikatsiya sohasiga tegishli bo'lgan so'zlar tushuniladi.

Diskursiv matnlardagi dialogni o'rganish talabalarida matn semantikasidan kelib, ingliz tilini mukammal tushunishga undaydi.

Dialog-bu til mavjudligining eng tabiiy va birlamchi shakli; L. S. Vigotskiy "til o'zining haqiqiy mavjudligini dialogda ochib beradi",- deb ta'kidlaganligi bejiz emas.⁵³

Tadqiqotchilar tashqi nutqning shakllanishi ichki nutqning shakllanishiga bog'liqligini isbotladilar. Nutqni yaratish jarayoni »... har qanday fikrni yaratadigan motivdan, fikrning o'zini dizayniga, uning ichki so'zdagi vositachiligiga, keyin tashqi so'zlarning ma'nolarida va nihoyat so'zlarda« amalga oshiriladi.

Til, nutq va aqlning o'zaro ta'siri ichki nutqda yuzaga keladi, bu nafaqat til va aql o'rtasida, og'zaki va yozma nutq o'rtasida, balki milliy tillar o'rtasida ham vositachi bo'lib xizmat qiladi. Demak, ichki so'z ichki nutqda, tashqi so'z esa gapirishda ma'noga ega bo'ladi.

⁵² Киселева К. Л., Пайар Д. Дискурсивные слова русского языка: контекстное варьирование и семантическое единство. – М.: Азбуковник, 1998. – 207 с.

⁵³ Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999. - 352 с.

Vigotskiyning fikriga ko'ra, ichki nutqning tuzilishi o'zining tarkibiy xususiyatlariga ko'ra, dialogik nutqqa o'xshaydi va u ichki nutqning shakllanishiga hissa qo'shadi, ularsiz "tashqi so'zlar" bo'lishi mumkin emas.⁵⁴

O'quv materiali ichidagi integratsiya barcha uch darajada amalga oshiriladi. Quyidagi uch turdagi dialogik matnlardan foydalaniladi: a) savol-javob xarakteridagi dialoglar; b) ma'lumotlarning ustun xabari bo'lgan dialoglar; v) savollarning ustun bayoni bilan bog'liq dialoglar.

Ingliz tilini o'qitishda trening shakllari o'zining samarasini beradi. Trening ijtimoiy va kundalik darajadagi savol-javob dialoglaridan boshlanadi, unda suhbatdoshlar ma'lumot almashib, nutq aktida teng darajada faol ishtirok etadilar. Ushbu dialogik birliklarning materialiga kundalik lug'at kiradi. So'z yoki jumlada ifodalangan ma'lumot, so'rov, minnatdorchilik, taklif, tasdiqlash, apellyatsiya, rozilik yoki rad etish uchun so'rovni shakllantirish ko'nikmalari shakllantiriladi. Barcha jumlarlar so'roq (kommunikativ vazifasi ma'lumot olish bilan bog'liq) va ijobiy (ularning kommunikativ vazifasi ma'lumot uzatishga qisqartiriladi) bo'linadi. Masalan, nutq niyatlari bilan dialog matnlari: «ma'lumot olish uchun so'rov», «xabar», «tanishuv», «bayonot», «qaror» kabilarga ajratish mumkin.

Masalan, Nima uchun Jek London asari "Hayotga muhabbat" deb nomlanadi? Yoki, asarning hatti-harakati qayerda sodir bo'layapti? Nega aynan muallif asarda ifoda etilgan yo'lovchini uning safardagi birodari tashlab ketmasligini hohlaydi. Bu ingliz tilida taqdim qilingan parchada o'z aksini topadi:

⁵⁴ Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — 75 с.

“...But as hard as it was for him to walk, it was even harder to convince himself that Bill had not abandoned him, that Bill was certainly waiting for him at the hiding place. He had to think so, otherwise there was no point in struggling any further - all that was left was to lie down on the ground and die. And while the dim disk of the sun was slowly disappearing in the northwest, he had time to calculate - and more than once - every step of the path that he and Bill would have to take...”

Talabalar ushbu savollarga javob berishar ekan, inson hayotda yashashdan maqsadi nima ekanligini anglashga harakat qilishadi. Va asar qahramonining oxirigacha o'z do'stiga bo'lgan ishonchi yo'qolmasligini isbotlashga kirishadilar. Shuningdek talabalar ingliz tilida keng ishlatiladigan so'z birikmalarini qo'llashga harakat qilishadi. Ushbu darajada til vositalarini tezkor tanlashning oddiy stilistik ko'nikmalari ishlab chiqiladi.

Nutqni shakllantirish uchun til tuzilmalari, harakatlarni amalga oshirish qobiliyati va matnlarning lingvistik vositalaridan bir butunlikni shakllantirish uchun foydalanish mumkin:

- axborotni so'rash va ularga javob berish;
- gapni ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikda qurish qobiliyati;
- tushuntirish qobiliyati;
- fikrni yakunlash va rivojlantirish, uni belgilash yoki misollar bilan tasvirlash qobiliyati;
- faktlarni taqqoslash, xulosa chiqarish qobiliyati. Shu o'rinda, talabalarga asarning quyidagi gapini tarjima qilish topshirig'i beriladi:

“...The sun rose in the northeast - or rather, it began to get light in that direction, because the sun was hiding behind gray clouds...” Talabalar buning uchun pronominal munosabat:

shaxsiy-namoyish olmoshlari: u, siz, ular; aniqlovchi va shaxsiy olmoshlar: bu, o'sha, bu; va hokazolarga e'tibor qaratishadi.

Matn mazmunini yetkazish uchun talabalar birinchi navbatda matndan asosiy semantik yukni ko'tarmaydigan jumalarni chiqarib tashlashlari kerak. Ushbu ishning natijasi konspektidir.

Talabalar konspekt yozishni o'rgangach, tezislar yozishga o'tadilar. Buning uchun har bir nisbatan to'liq matn uchun quyidagi savollar beriladi:

- diskursiv xususiyatli matndagi asosiy g'oya nima?
- diskursiv xususiyatli matnning bu qismida nima xaqda fikr bildirilgan?
- diskursiv xususiyatli matnning har bir semantik qismini nomlang. Masalan,

When he reached a small hollow, white partridges rose up from the rocks and hummocks to meet him, rustling their wings and crying: kr, kr, kr... He threw a stone at them, but missed. Then, putting the bundle on the ground, he began to creep up on them, crawling, like a cat creeping up on sparrows. His trousers were torn on the sharp stones, a bloody trail stretched from his knees, but he did not feel this pain - hunger drowned it out... By mid-day he had reached a swamp where there was more game. As if teasing him, a herd of about twenty deer passed by, so close that they could have been shot with a gun. He was seized by a wild desire to run after them, he was sure that he would catch up with the herd. A silver fox with a partridge in its jaws met him. He screamed. The scream was terrible, but the fox, jumping back in fear, still did not let go of its prey.

(“Umidni yo'qotishni istamagan inson nidosi...”) deb nomladilar. Va matnda uchraydigan fe'llar konstruksiyalarini tahlil qildilar.

Asarda keltirilgan axborot xabarlari dialoglari ustida ishlashni boshlaganda mavzulararo integratsiya darajasiga erishiladi. Qoida tariqasida, dialoglarda ikki kishi ishtirok etadi

va ulardan biri nutq tashabbusiga ega va dialog mazmunini belgilaydi. Ushbu turdagi dialoglar talabalarga har xil turdagi jumlar tuzilishini o'zlashtirishga imkon beradi. Aynan mana shu holatni biz talabalarining Jek London asarini o'rganganlarida ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, bo'ysunuvchi aniqlovchi jumla va predikat bilan murakkab konstruksiyalarda ifodalangan axborot xabarini shakllantirish ko'nikmalari rivojlanadi.

Muloqotning nusxasi bo'lgan izchil dialektik gaplar monologik nutqning asosiy talablariga ham javob beradi, ishlab chiqilishi, birlashtirilishi va monologik so'zlarga aylanishi mumkin. Rivojlangan nutq tashabbusi bilan ma'ruzachiga tegishli matnlar materiallari asosida talabalar superfrasal birliklarning tuzilishini o'zlashtiradilar, kommunikativ-kuchli jumlaning ajratishini o'rganadilar va ushbu jumlaning boshlanishi bo'lgan gaplarni tuzadilar.

Savollarning asosiy sozlamalari bilan dialoglarda suhbatdoshlardan biri moderator vazifasini utaydi – uning vazifasi kerakli ma'lumotlarni olishdir. Suhbatning ushbu turi suhbatdoshlarning tilni tayyorlash darajasiga bog'liq bo'lib, tilni bilish darajasi past bo'lgan talabalarga tashabbuskor-reaktiv nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ularni berilgan savollarga javob berishga undaydi.

Taqdim qilingan o'quv materialini tushunish amalda ma'lum so'zlar va tuzilmalarni kuzatish uchun material bo'lgan matndan boshlanadi. Shu munosabat bilan o'quv matnini mashqlar tizimining tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblash mumkin. Ba'zi parchalar tavsif, rivoyat va mulohaza matnlarini tuzish ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, fikrni uzatish ko'nikmalari takomillashtiriladi.

O'quv matni materiali o'zgaruvchan bo'lsa, til faktlarini eslab qolish osonroq. Shu maqsadda nutq faoliyatini o'qitish

«ta'lim jarayonining kommunikativligini ta'minlash, unga kommunikativ shakl berish» orqali amalga oshiriladi.⁵⁵

Tahlillarimizdan aniqlanishicha, individual semantik segmentlar, leksik va sintaktik aloqa vositalari ichidagi diskursiv xususiyatli mantiqiy aloqalarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarining ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlarida integrativ o'qitish bosqichlari bir necha algoritmlardan iborat:

1. **Motivatsion bosqich.** bosqich-nutq g'oyasini etkazish uchun diskursif xususiyatli kommunikativ niyat mahorati (ma'lumot, xabar, so'rov va hk.) badiiy matn materiallari asosida.

2. **Analitik va sintetik bosqich**-nutqning grammatik dizayni uchun til tuzilmalarini diskursiv xususiyatda tanlashda o'z ifodasini topadi. Masalan: so'roq gaplarning kommunikativ munosabati ma'lumot olishga undashdan iborat. Savol quyidagicha ifodalanadi: a) savol so'zi bilan so'roq konstruksiyalari; b) savol so'zisiz so'roq konstruksiyalari; v) befarq jumlar; D) bilvosita savol; e) so'roq intonatsiyasi. Eng ko'p ishlatiladigan konstruksiyalar savol so'zli jumladir.

3. **Ijro bosqichi**- diskursiv xususiyatli fikrlarni ifodalash bilan bog'liq nutq harakatlarini amalga oshirish qobiliyati (ma'lumot, xabarlar, bayonotlar, tushuntirishlar)da ifodalanadi. Mazkur bosqich talabalarda badiiy matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi:

-matnlarning til vositalaridan foydalanish mahorati – rivoyatlar, tavsiflar va mulohazalar;

-turli xil aloqa vositalaridan foydalangan holda bitta semantik bir butunning alohida jumlarini shakllantirish qobiliyati;

-aloqa holatiga muvofiq stilistik vositalarni tanlash qobiliyati.

⁵⁵ Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.

Ushbu ko'nikmalar bilimlarni birlashtirish asosida shakllanadi.

Ko'nikmalar ham o'z navbatida talabalar tomonidan egallanadigan malaka talablariga o'zaro ta'sir qiladi va bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Masalan, reja tuzish mahorati asosiy g'oyani ta'kidlash, izchil matn yaratish va hokazolar ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Demak, agar, talabalar tomonidan ingliz tilini o'qitish jarayonidagi barcha ko'nikmalarni shakllantirish birlashtirilsa, nutq faoliyatining har bir turida mos keladigan ko'nikma va qobiliyatlarni ketma-ket shakllantirishda intensiv taraqqiyot ta'minlanganligining guvohi bo'lamiz.

Talabalarning ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlarida integrativ o'qitishning shart-sharoitlari xususida fikr bildirar ekanmiz, integrativ yondashuvni amalga oshirish samaradorligi bir qator tashkiliy va pedagogik sharoitlarga muvofiqligiga bog'liqligini ta'kidlash joiz. Bularga quyidagilar kiradi: fanlararo va umumiy ilmiy aloqalarni amalga oshirishda muammoli yondashuvga asoslangan kognitiv faoliyatni faollashtirishning asosiy vositalaridan foydalanish; o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasida ijobiy shaxslararo munosabatlarni o'rnatish, bu talabalarga ijtimoiy munosabatlarning namoyon bo'lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadigan qulay ijodiy muhit yaratadi. Bunda badiiy matndagi integrativ o'qitishda differentsiatsiya bilan qarama-qarshi bo'linish jarayoni bilan dialektik birlik orqali namoyon bo'ladigan tarkibiy qismlarni yaxlit ta'limga birlashtirish jarayoni tushuniladi.

Bunga o'quv matnlardagi o'xshashliklar, til konstruksiyalarining o'ziga xosligini o'rganishga qaratilgan mashqlar yordam beradi.

Ushbu mashqlarni talabalar bajarayotganda, misollar, o'xshashliklar, uyushmalar va yetakchi savollar matn g'oyasini

uzatishda asosiy semantik yukni ko'tarmaydi. "Matnning ushbu qismida nima deyilgan?" kabi semantik segmentiga va savolga javob topish uchun talabalar tomonidan mustaqil ravishda daftarlarga yozib qo'yilgan matnning tezislarni shakllantirish talab etiladi. Bundan tashqari, tezislarni qisqartirish, ularni mos yozuvlar iboralari bilan taqdim etish orqali ma'lum bir mantiqiy ketma-ketlikdagi bayonotlarni qurish qobiliyatini rivojlantirishga zamin hozirlanadi. Buning uchun quyidagi metodik ish turlarini bajarish talab etiladi:

1. O'qigan matn uchun savollarni shakllantirish.

2. Rejaning har bir bandining mazmunini ochib beradigan matnning asosiy jumllarini nomlash.

3. Taqdim etilgan rejani to'ldirish.

4. Taklif etilgan rejadagi qo'shimcha yoki yetishmayotgan narsalarni aniqlash.

5. Rejaning taklif qilingan elementlarini matnga muvofiq to'g'ri mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish.

6. Matnda berilgan g'oyalarni ketma-ketlikda joylashtirish.

7. Matn uchun reja tuzing, shunda birinchi xatboshi matnning butun mazmuniga bo'ysunadigan asosiy narsani aks ettirish va boshqalar.

Ingliz tilidagi diskursiv xususiyatli o'quv resurslari asosida talabalarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish matnni siqishning barcha turlarini o'zlashtirish, talabalarning izchil matn bilan ishlash ko'nikma va malakalarini oshirish kerak. Bu alfozda, o'quv jarayonida matn va grammatik materiallar bilan ishlashning integrativ shakllari amalga oshiriladi, talabalarda esa, umumiy ilmiy ko'nikmalar shakllanadi.

Motivasiya talabalarning didaktik jarayonlarda bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Xuddi shu bilimlar talabalar tomonidan o'quv faoliyati natijasida qayta ishlanadi va ijodiy o'zlashtiriladi. Talabada vujudga kelgan ilmiy

nuqtai nazarining barqarorligi unda hosil bo'lgan ob'ektiv dunyoqarashning tadrijiyligi va izchilligini ta'minlaydi. Shuning uchun "pedagogik jarayon - bu o'qitish, tarbiyalash, o'qitish va rivojlanish jarayonlarining organik birligi sifatida qabul qilinadi".⁵⁶ Oliy ta'lim muassasasidagi pedagogik jarayonning vazifalari, mazmuni, usullari va shakllari nafaqat ehtiyojlarga, balki jamiyatning imkoniyatlariga, ushbu jarayon sodir bo'ladigan sharoitlarga (moddiy, gigiyenik, axloqiy va psixologik va boshqalar) bog'liq. Pedagogik jarayonning yuqorida ifodalanganligi uning tashqi aloqalari bilan bog'liq.

Mazkur muammo ko'plab olimlar va tadqiqotchilar diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilib kelayotgan muammo bo'lib, jamiyatning moddiy va ma'naviy rivojlanish taraqqiyoti darajasi zahirida yoshlarni ma'rifatli qilishga xizmat qiladi. Tadqiq qilinayotgan masalani shu alfozda talqin qilish ta'lim sub'ektlarining didaktik jarayonlardagi faoliyatini o'rganishga undaydi.

Talabalarda o'quv-biluv motivatsiyasini rivojlantirish jarayonida ularni hayotiy ko'nikmalarni egallashlariga imkon berish, o'z professional, nazariy va amaliy bilimlarini uzluksiz oshirib borish, o'zining dunyoqarashi, bilim va tajribasini doimiy ravishda kengaytirish, yangi bilimlarni o'zlashtirishga intilish, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan xolda yangi axborotlarni olish, ilg'or tajribalarni o'rganish; moddiy va ma'naviy boyliklarimizni asrab-avaylash, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan munosabatda bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, talabalarda yuksak kasbiy malaka va ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish, sezgirlik, ziyraklik, kuzatuvchanlik, hamda bilish bilan bog'liq intellektual salohiyatni rivojlantirishni davr taqoza etmoqda. Binobarin, har tomonlama

keng bilim va yuksak professional mahoratga ega, favqulodda va keskin sharoitlarda o'zi mustaqil ravishda nostandart qarorlar qabul qila oladigan, o'z kasbiy bilimdonliklarini doimiy tarzda oshirib boruvchi yoshlar mamlakat taqdirini belgilab beradi.

2.2-§. Talabalarining diskursiv elektron resurslar asosida til o'zlashtirishini rivojlantirishda "Til portfeli" texnologiyasidan foydalanish

Bugungi kunda til o'rgatish jarayonini ta'lim oluvchilar uchun qulay, qiziqarli va amaliy yo'nalgan tarzda tashkil etishga oid innovatsion tajribalar yo'lga qo'yilgan. Bunda metodist olimlar ingliz tilini o'qitishda pedagoglarning kasbiy, kreativ kompetentligini rivojlantirish maqsadida pedagogik va raqamli texnologiyalardan, shuningdek shaxsga yo'naltirilgan, muammoli o'qitish metodikalaridan, faol metodlardan dasturlaridan foydalandilar.

Retrospektiv jabhada tahlil ko'rsatadiki, pedagogik texnologiyalarning ommaviy kiritilishi XX asrning 60-yillari boshiga borib taqaladi va oldiniga Amerika, keyinchalik Yevropa maktablarini reforma qilish bilan bog'liq. AQShda "pedagogik texnologiya" tushunchasi paydo bo'lar-bo'lmas, u tezda barcha rivojlangan mamlakatlarga tarqala boshladi. G'arb pedagogik adabiyotida bu tushuncha boshida o'quv jarayonining texnizatsiya g'oyasi bilan, ta'limning texnik vositalaridan foydalanish bilan mos tushadi. XX asrning 70-80-yillaridan boshlab o'quv jarayonining boshqariluvchanligi g'oyasi mustahkamlandi. Slavenin V.A., Rudenko N.G., Levina M.M. va boshqalarning izlanishlarida amaliyotga pedagogik texnologiyalarning amaliyotga joriylanishi natijalari tahlil etilgan va tavsiyalar taklif etilgan.

⁵⁶ Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.

Bugungi kunda chet el adabiyotida pedagogik texnologiyalar ta'limning texnik vositalar bilan olib borilishi, ta'limning boshqarilish jarayoni ko'rinishida ham uchraydi.⁵⁷

Levina M.M. ta'kidlaydiki, pedagogik texnologiya tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixida turli xil tushuntirishlar paydo bo'ldi. Texnik vositalar yordamida ta'lim berish deb atalgan ilk talqindan tortib to ta'lim loyihalashtirilgan jarayonini tizimli va uzluksiz tashkil qilish haqidagi tasavvurlargacha bu tarix davom etadi.⁵⁸

Ma'lumki, "texnologiya" atamasi yunoncha "techne" – san'at, mahorat va "logos" – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan. O'z-o'zidan "pedagogik texnologiya" izohi to'g'ridan to'g'ri tarjimada pedagogik san'at, mahorat haqidagi ta'limotni anglatadi.

Selevko G.K. o'qitish amaliyotida "pedagogik" va "ta'lim" texnologiyalari tushunchalarini farqlash lozimligini aytadi. Uning fikricha: " *Ta'lim texnologiyasi* nisbatan keng tushuncha hamda ta'lim va o'sib kelayotgan avlod taraqqiyoti jarayoniga turli xil ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy, boshqaruv, iqtisodiy jihatlarni bog'lanishni nazarda tutadi. *Pedagogik texnologiya* va uning amaliyotdagi realizatsiyasi ta'limning turli xil darajalarida bilim olishning maqsadlari va vazifalarini belgilab beradigan nisbatan konkret jabhalarga ega bo'ladi".⁵⁹

Slastenin V.A., Rudenko N.G. ta'kidlashadi, pedagogik texnologiya - ta'lim-tarbiya jarayonining o'zgaruvchan sharoitlarida bashorat va diagnostika qilnadigan natijaga erishishni instrumental jihatdan ta'minlab beradigan harakatlar, operatsiyalar va proseduralarning tartibli

⁵⁷ Слостенін В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика: учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. – М.: Академия, 2002. – 576 с.

⁵⁸ Левина М. М. Технологии профессионального педагогического образования. – М.: Академия, 2012. – 256 с.

⁵⁹ Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – С. 32.

to'plamidan iborat. Pedagogik texnologiya pedagogik mahorat bilan o'zaro aloqadadir. Pedagogik texnologiyani mukammal egallash mahoratdir. Mahoratli pedagog ta'lim jarayonida texnologiyalarni tanlashni, qo'llashni va zarur elementlar bilan boyitishni uddalaydi.

Shu jihatdan olganda disskurs resurslardan foydalanishda ham pedagoglarning mahorati muhimdir. Kasbiy mahorat, pedagogik mahoratning ingliz tilini o'rgatishdagi zarurati, ayniqsa, talabalardagi til malakalarining turlicha shakllanishiga bilan bog'liq ravishda o'quv materialini taqdim etishda, nutqiy vaziyatlarni ijro etishda va talabalarning ijrosini baholashda seziladi.

Umuman olganda pedagogik mahorat pedagogik texnologiyani muvaffaqiyatli egallash va qo'llashdir. Bunda pedagogik mahorat faqat operatsion komponent bilan chegaralanib qolmaydi. Har bir texnologiyani turli fan o'qituvchilari turlicha qo'llashlari mumkin. Bunda ularning kasbiy improvizatsiyasi va professionalizmi hamda pedagogik mahorati yuzaga chiqadi.

Maxmutov M.I. pedagogik texnologiyani qo'yilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro ta'sirining u yoki bu darajada qat'iy o'rnatilgan dasturlashtirilgan (algoritmashgan) jarayoni sifatida ta'riflaydi.⁶⁰

Selevko G.K. tomoindan berilgan ta'rif pedagogik texnologiyaning ingliz tilini o'rgatish jarayonidagi imkoniyatlarini ochib beradi. Ya'ni uning fikricha: "Pedagogik texnologiya rejalashtirilgan natijalarga olib boradigan, makon va vaqtda dasturlashtirilgan, ilmiy asosga ega pedagogik jarayonning barcha komponentlari tizimini o'zida

⁶⁰ Махмутов М. И. Проблемное обучение: основные вопросы теории. – М.: Педагогика, 1993. – 192 с.

mujassamlashtiradi”^{.61} Olim pedagogik texnologiyani tushunish va amaliyotda qo'llashga erishishning to'rtta pozitsiyasini ajratib ko'rsatadi:

1. *Pedagogik texnologiya vosita sifatida, ta'limning texnik vositalari* va o'quv uskunalarining, apparaturaning metodik instrumentariyni ishlab chiqarish va qo'llash (V. Buxvalov, V. Palamarchuk, B.T. Lixachyov, R. de Kiffer, M. Meer);

2. *Pedagogik texnologiya uslub sifatida* (V.P. Bepalko, M.A. Choshanov, V.A. Slastyonin, B. Skinner, S. Gibson, T. Sakamoto va boshq.);

3. *Pedagogik texnologiyalar ilmiy yo'nalish sifatida* (P.I. Pidkasistiy, V.V. Guzeev, M. Eraut, R. Kaufman, S. Vedemeer);

4. *Pedagogik texnologiyalar ko'p o'lchamli tushuncha sifatida*. Mazkur pozitsiya ko'p jabhali yondashuv hisoblanadi va pedagogik texnologiyalarni ko'p o'lchamli jarayon sifatida qarashni taklif etadi (M.V. Klarin, G.K. Selevko, e.V. D. Finn, K. Silber, P. Mitchell, R. Tomas).^{.62}

Oleshkov M. Yu. “texnologiya” atamasini ishlatish muammosiga nisbatan hozirgi zamon tadqiqotchilarining qarashlarini tahlil qilar ekan, ta'kidlaydiki, uning ishlatilishining to'rtta asosiy sohasini ajratib ko'rsatadi va quyidagi jadvalni keltiradi.^{.63}

Jadval 2.2.1

№	ATAMANING MA'NOSI	TEXNOLOGIYA
	Texnologiya har qanday pedagogik jarayon sifatida	Gumanitar va tolerant yo'nalishlarning barcha pedagogik tizimlari
I	Pedagog san'ati (pedagogik texnika)	Novator o'qituvchilar metodikalari (V. Shatalov, Sh.

⁶¹ Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – С. 32.

⁶² Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. – М.: Педагогика, 1994. – 222 с.

⁶³ Олешков М. Ю. Педагогическая технология: проблема определения понятия // Педагогика. – 2005. – № 6. – Стр. 3–7.

		Amonashvili va boshq.)
II	Algoritmik paradigma	Blokli-modul texnologiyalar, o'yin texnologiyalari (ishga oid, rol, didaktik o'yinlar, imitatsion trening va boshq.); - ishning algoritmizatsiya guruh shakllari; - yangi informatsion (multimedia) texnologiyalari; - loyiha-tadqiqot texnologiyalari («loyihalar metodi»); global informatsion tarmoqlarda (TOGIS) ta'lim texnologiyalari.
V	Stoxastik (ehtimoliy) paradigma	Shaxsga yo'naltirilgan, shaxsni rivojlantiruvchi, shaxsni markazlashtiruvchi va individual-shaxsiy ta'limning texnologiyalari

Shunday qilib, mazkur jadvaldan kelib chiqadiki, texnologiyaning to'rtta tushunchasidan har biriga texnologiyalarning o'zlarining umumiy tavsifi mos keladi. Bizning fikrimizcha, professor-o'qituvchilar Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarining diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida til o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan “Til portfellari” integrativ texnologiyasini qo'llash maqsadida foydalanilishi mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, talabalarining ingliz tilidagi nutqiy kompetensiyalarining shakllanishiga va rivojlanishiga yordam beradigan samarali vositalar va shart-sharoitlar pedagogik texnologiyalar va texnologik yondashuv hisoblanadi. Keng ma'noda *texnologik yondashuv* – bu moddiy va ma'naviy qadriyatlarni ishlab

chiqish, atrof-muhitni o'zgartirish maqsadlarida inson tomonidan qo'llaniladigan faoliyatning ilmiy va amalda asoslangan tizimidir. Ta'limda va o'qitishda texnologik yondashuv u yoki bu ta'lim yoki pedagogik texnologiyasiga mos keladigan o'quv jarayonini va ta'limni aniq boshqarishni nazarda tutadi.

Asadov Yu.M. (2010)ning fikriga ko'ra, ta'limda texnologik yondashuvning tadqiqotchilari va uni ishlab chiquvchilar (V.P. Bepalko, M.V. Klarina, V.Ya. Pilipovskiy, G.K. Selevko, L. Anderson, Dj. Blok, B. Blum va boshq.) pedagogik nazariyada ta'lim va pedagogik texnologiyalarni quyidagi turlarga ajratadi: "avtoritarlar", "erkin tarbiya", "antroposentrik va pedosentrik", "didaktosentrik", "sosiosentrik", "shaxsga yo'nalgan", "faoliyatga yo'nalgan", "o'rta yo'nalgan". Pedagogik amaliyotda mazkur texnologiyalarning qo'llanilishi ta'limning turli xil tizimlarida foydalaniladigan ta'limning konseptual modellariga, ularning maqsadli yo'nalganligiga, mazmuniga va tamoyillariga bog'liq. Ta'lim va pedagogik texnologiyalarining o'zi ma'lum "texnologik modellar" bo'lib, ular tizimli belgilarga egadirlar va ilmiy bilimning tizimli, texnologik va modeli tiplari asosida ishlab chiqiladi. Ingliz tilini samarali o'qitishda "Til portfellari" texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.⁶⁴

"Til portfeli" - bu chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi bo'lib, u talabaning samarali o'quv va kognitiv faoliyatini rivojlantirishni va o'quv jarayonining sub'ekti sifatida uning shaxsiy o'sishini ta'minlaydi. Til portfeli - bu talabaning mustaqil ishi uchun hujjatlar to'plami bo'lib, u uch qismdan iborat: pasport, foydalanuvchining til tarjimai holi va fayl.

⁶⁴ Асадов Ю. М. Технологический подход в образовании: теория и практика. – Ташкент: Фан, 2010. – 184 с.; Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.; Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. – М.: Педагогика, 1994. – 222с.; Блум Б., Энглхарт М., Ферст Э., Хилл У., Кратвол Д. Таксономия педагогических целей. Классификация целей обучения. – М.: Педагогика, 1976. – 256 с.; Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – С. 32;

Pasportda talaba o'zining kommunikativ va kommunikativ bo'lmagan vakolatlarini qisqacha aks ettiradi.

Ingliz tilini o'qitishda klassik tizimdan tashqari innovatsion usullarni hamda "Til portfellari"ni qo'llash samaralidir. Bunda "Til portfellari"ning interaktiv, vizual, kommunikativ, intensiv, unikal dizaynli, o'yinli va raqamli variantlari tadqiqotda qo'llanildi.

Kapustina T.V. til o'qitish amaliyotida qo'llaniluvchi texnologiyalarga oid fikri bilan kelishgan holda shuni aytish mumkinki, "Til portfellari" texnologiyasi quyidagi ko'rinishlarda faoliyat ko'rsatadi: fan, ta'lim, faoliyat algoritmlari va boshqalar. U o'z jabhalarining barcha kompleksi, yoki ilmiy ishlanma, yoki harakatlar dasturining tavsifi, yoki jarayon sifatida amaliyotda real amalga oshiriladi. "Til portfeli" texnologiyasi o'zining maqsadlariga, mazmuniga, qo'llaniladigan metodlari va vositalariga ko'ra yetarli darajada ko'p o'xshashliklarga ega va bu umumiy belgilarga ko'ra bir qancha umumlashgan guruhlarda klassifikasiya qilinishi mumkin:

1.Keng tarqalgani *avtoritar va didaktikosentrik texnologiyalar* bo'lib, ularda pedagog ta'lim-tarbiya jarayonining yagona sub'ekti hisoblanadi, o'quvchi esa faqatgina ta'sirning "ob'ekti"dir; ta'lim tarbiyadan ustun qo'yiladi.

2.Shaxsga yo'nalgan texnologiyalar, bunda *o'zini o'zi rivojlantirish va ta'limda mobillikka erishishni ta'minlaydigan elementlar qo'llaniladi*. Ular: Qadriyatga yo'nalgan va adaptiv; shaxsning ijodiy rivojlanishi, jumladan, loyihaviy texnologiya, tadqiqiy texnologiya, ijodiy ustaxonalar texnologiyasi, hamkorlik texnologiyasi va h.k.); yevristik texnologiyalar (ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi); amaliy texnologiyalar;

3.Mazmunning xarakteri va texnologiya tuzilmasiga ko'ra: ta'lim beruvchi va tarbiyalovchi; dunyoviy va diniy; umumta'limiy va kasbiy yo'nalgan; gumanitar va texnokratik; turli xil tarmoqli; predmetli; monotexnologik va kompleks texnologiyalar.⁶⁵

⁶⁵ Капустина Т. В. Языковой портфель как средство развития автономии учащихся при обучении иностранным языкам. – М.: Просвещение, 2008. – 144 с.

Bukova G.N. va Sibikova S.N.⁶⁶ larning ilmiy ishlarida “Til portfeli” texnologiyalari keltirilgan bo‘lib, bizning nazarimizda ulardan foydalanish ham o‘qituvchilar, pedagoglarning, ham talabalarning ijodiy va kasbiy-ijodiy kompetentligining rivojlanishiga ko‘proq mos keladi.

Masalan, Bukova G.N. texnologiyalarning turli variantlari vositasida o‘qitish jarayonini tashkil etishga oid olib borgan izlanishida texnologiyalarning quyidagi turlarini ajratadi: “1)informatsion-kommunikativ texnologiya; 2)muammoli ta’lim texnologiyasi; 3)loyihaviy texnologiya; 4)rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi; 5)o‘yin texnologiyalari; 6)modul texnologiyasi; 7)ustaxonalar texnologiyasi; 8)keys-texnologiya; 9)integrallashgan ta’lim texnologiyasi; 10)hamkorlik texnologiyasi; 11)interfaol ta’lim texnologiyasi; 12)guruhiy texnologiyalar; 13)debatlar”.⁶⁷

Texnologik yondashuv asosida Kirgueva F.X. tomonidan taklif etilgan texnologiya diqqatni tortadi. Muallif tomonidan “*Bilish – Interpretatsiya – Ijod*” (BII) degan umumiy nom bilan atalgan farqlovchi va ta’lim texnologiyalari ishlab chiqilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lib, uning yordamida kasbiy-pedagogik va informatsion-kommunikativ kompetensiyalarning rivojlanishi, shuningdek bo‘lajak o‘qituvchilarining, talabalarning mustaqil ishlash tajribasi shakllanadi. Mazkur texnologiya talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida barcha o‘qituvchilar tomonidan ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlarida qo‘llanilgan, pedagogik OTM talabalarining u yoki bu qobiliyatlarini rivojlantirishda farqlangan va maqsadga yo‘naltirilgan holda foydalanilgan.⁶⁸

Stiven Krashenning mualliflik texnologiyasi o‘zida bo‘lajak o‘qituvchi ijodiy kompetentligini rivojlantiruvchi metodlar, uslublar,

⁶⁶ Сыбикова С. Н. Технология языкового портфеля в обучении иностранному языку. – Алматы: Қазақ университети, 2021. – 196 с.

⁶⁷ Букова Г. Н. Языковой портфель в системе обучения иностранным языкам. – М.: Флинта, 2019. – 180 с.

⁶⁸ Киргуева Ф. Х. Технология “Познание – Интерпретация – Творчество” в подготовке будущих педагогов. – Владикавказ: СОГУ, 2019. – 210 с.

usullarni, ularning ta’lim amaliyotida foydalanish xususiyatlarini batafsil tushuntiradigan pedagogik OTMlarda ta’lim olayotgan talabalar bilan o‘tkaziladigan 7 ta mashg‘ulotning tavsifini mujassamlashtiradi.

Muallif mazkur metodika va texnologiyani eksperimental jihatdan “Bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish (tizimli yondashuv asosida)” mavzusi bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish jarayonida pedagogik OTM bazasida aprobatsiyadan o‘tkazgan. Tadqiqot natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan va o‘zida monografiyani, o‘quv rejasini va o‘quv dasturini, o‘quv va o‘quv-metodik qo‘llanmani, metodik tavsiyalarni, nazorat-o‘lchash materiallarini mujassamlashtirgan o‘quv-metodik kompleks shaxsiy amaliy faoliyatda ham, o‘zga pedagog va o‘quv muassasalarining faoliyatida ham qo‘llaniladi.⁶⁹

Shunday qilib, yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy ishlarda mualliflar pedagogikada va psixologiyadagi turli xil hamma ma’lum ta’riflarni, mazmunning xarakteristikalarini, ularning umumlashgan interpretatsiyasida pedagogik va o‘zga texnologiyalarni aks ettirganlar.

Fikrimizcha, talabalarning diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida til o‘zlashtirishlariga yo‘naltirilgan “Til portfeli” integrativ texnologiyasini quyidagicha tavsiflasak bo‘ladi:

–“Til portfeli” texnologiyasi asosida shakllantiriladigan loyihalar. Ularning qimmatli tomoni shundaki, u ta’lim olayotganlarni mavzuni oddiygina o‘rganishga emas, balki konkret ta’lim mahsulini yaratishga yo‘naltiradi;

- *Portfeldagi turli xil darajali* materialni tushunish, amaliy ishlarni bajarish va natijalarni baholash jarayonida talabalarning individual xususiyatlari va o‘quv materialini o‘zlashtirishning turli darajalariga yo‘nalgan topshiriqlardan iborat;

⁶⁹ Stephen D Krashen Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.

- *Portfel asosida* modul mazmunini egallash uchun o'quv, ilmiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash jarayonida talabalar tomonidan bilimlarning mustaqil holda egallanishiga asoslangan ta'lim bo'lib, u yordamida talabalar o'quv mazmunini umumlashtiradi;

- *Portfel asosida* quyidagi metodlardan foydalaniladi: dialog, o'yin, refleksiv, pedagogik qo'llash, diagnostik, tanlov va muvaffaqiyat vaziyatini yaratish, shuningdek talabalarining imkoniyatlari inobatga olingan o'quv topshiriqlaridan iborat kartochkalar tuziladi va tarqatiladi, bu holat ularning rivojlanishiga yordam beradi.

"Til portfeli" asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonining asosiy tamoyillari: o'zini o'zi faollashtirish, sub'ektivlik, tanlov, ijod va muvaffaqiyat, ishonch va qo'llashdir.

Talabalarining diskursiv xususiyatli matnlar asosida til o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan "Til portfeli", "AKT yordamida tezkor til o'zlashtirish" integrativ texnologiyalarining samaradorligini aniqlash uchun biz tadqiqot davrida ushbu texnologiyalarga murojaat etdik.

Ma'lumki, "Til portfeli"- talabaning o'quv faoliyatining ma'lum tajribasi va natijasini ifodalovchi ishchi materiallar to'plamidan iborat. Talaba unga o'quv yillari mobaynida, yoki, muayyan bitta kurs moduli bo'yicha jamlangan barcha ma'lumotlarni, rasmlar, slaydlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar, kichik loyihalarini joylashtirishi mumkin.

"Til portfeli"dan texnologiya sifatida foydalanish uchun o'qituvchi yaxlit o'quv mashg'uloti, yoki, auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulot sifatida undan foydalanishi mumkin.

"Til portfeli" asosida:

-talabalarda lingvistik, grammatik, leksik, pragmatik kompetensiyalari rivojlantiriladi, ilmiy bashoratlash qobiliyatlari shakllanadi;

-bilim egallashga bo'lgan motivatsiyasi rag'batlantiriladi;

-guruhdagi barcha talabalarining mustaqil fikrlashiga imkoniyat yaratiladi.;-turli manbalardan bilim egallashlarida semantik maydon vujudga keladi va bunga zamin yaratiladi;

-yangi egallangan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, ulardan foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi;

-darsda egallangan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalari rivojlantiriladi;

-o'qituvchi va talabalarda analitik, tanqidiy, sintetik, ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Tajriba-tadqiqot mobaynida biz diskursiv xususiyatli elektron resurslarni quyidagicha tasnifladik:

"Til portfeli" asosida talabalar soniga qarab: a) individual b) guruh (juftlikda ishlash, kichik jamoalarga birlashish va h.k.) vositasida matnlar ustida, loyihalar ustida ishlash; c) mavzu bo'yicha slaydlar, sxemalar yaratish; kichik insholar yozish va b.

Ingliz tilini raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalab o'qitishda "Til portfeli" asosida:

1) AKT vositasida, san'at asarlari vositasida integratsiyalashgan o'quv moduli orasidagi aloqador slayd-shoular ishlab chiqildi;

2) davomiylik asosida tashkil etilgan til o'zlashtirish loyihalari yaratildi:

a) qisqa muddatli (mini-loyiha: haftasiga 1 marotoba qo'llaniladigan loyiha; b) uzoq muddatli loyihalar (o'quv choragi mobaynida qo'llaniladigan loyihalar tizimi);

3) axborotli loyihalar - har qanday ta'lim muammolari uchun ma'lumot to'plash, ularni qayta ishlash va tahlil qilish, axborot qidirish, uni umumlashtirish, tartiblash va tasniflashni nazarda tutuvchi; tadqiqotchilik loyihalari Til portfeliga kiritildi. Talabalar tomonidan ilmiy izlanishlar holatini uning mantiqiy tuzilmasi asosida tadqiq qilish, mavzuning ob'ekti, maqsadi, vazifalari, farazi, usullari, bosqichlari, yangiliklarini, tadqiqotning amaliy ahamiyatini aniqlashga qaratildi. Natija tadqiqot hisoboti shaklida taqdim etildi; ijodiy loyihalar "Til portfeli"ga kiritildi;

4) ingliz tilining til normalariga rioya qilishga mo'ljallangan matnlarni "Til portfeli"ga kiritish va gapirish, yozish, tinglab-tushunish ko'nikmalarini talabalarda rivojlantirish.

Tahlillarimizning ko'rsatishicha, ta'lim muassasalarida "Til portfeli" texnologiyasini tanlash, konkretlashtirish, aprotatsiya qilish va hayotga tatbiq etish mazmunini to'liq tavsiflanishi etarli darajada emas. Biroq pedagogik OTM talabalari bilan o'tkazilgan alohida tadqiqotlardan, mazkur texnologiyadan foydalanish eksperimental jihatdan tekshirildi va ularning amaliy samaradorligi isbotlandi.

Ingliz tilini o'qitishda "Til portfeli" texnologiyasi ta'lim jarayonida maxsus o'quv-tarbiyaviy muhitni yaratishni nazarda tutadi:

a) shaxsni rivojlantirish komponentiga ustanovka (qadriyatli-pedagogik, motivatsion kompetensiyalar);

b) ijodiy kompetentlikning faoliyatli-rivojlantiruvchi komponentiga ustanovka (tashkiliy, metodik, psixologo-pedagogik kompetensiyalar);

v) verbal-kommunikativ, noverbal kompetensiyalar asosida ijodiy jarayon sifatida pedagogik muloqotni shakllantirish va rivojlantirish;

g) didaktik, informatsion kompetensiyaga, tushunchali tafakkur asosida kasbiy o'sishga ustanovka;

d) pedagogik tajribani chuqur o'zlashtirish (ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'zini o'zi takomillashtirish kompetensiyasi).

Biz tadqiqot davrida (2022-2025 y.y.) "Til portfeli" ichiga talabalarining mustaqil ravishda ishlashi uchun turli topshiriqlarni joylashtirdik. Bunda biz didaktikadagi "oddiydan murakkabga tomon..." tamoyiliga tayandik. Ma'lumki, zamonaviy izohli lug'atlarda polisemantik inglizcha so'zlarning ma'nolari soni 3 dan 4 gacha bo'lishi kuzatilgan. Shu sababli topshiriqlarda talabalar uchun ingliz tilidagi so'zlarning ma'nolarining ortishi o'zgaras so'zlarga xos bo'lgan funksiya va ma'nolarning kengayishi – bog'lovchi,

qo'shimcha, modal so'z bilan bog'liq ekanligini ko'rsatish maqsadida ingliz tili leksemalarining yorqin semantikasi va katta funksional moslashuvchanligini namoyon etuvchi gaplarni tarjima qilish, ular bilan matn tuzish, diskursiv xususiyatli so'zlarni nutq janrlaridagi holatini o'rganishga e'tiborni qaratdik.

"Til portfeli" texnologiyasi zahiridagi topshiriqlar:

1-topshiriq: Matnda nutqiy vaziyatli-pragmatik mazmunga ega bo'lgan birlik sifatida quyidagi nutq janrlari va nutqiy harakatlarda muntazam qo'llaniladigan gaplarni toping:

For almost any person, there is nothing more important in the world than their family. I love my family too. Today I would like to tell you about them.

My family is quite big. It consists of my mother, father, my three siblings and our cat Bob. Well, most people would say that a pet is not a family member but no one in our family would agree with that. We all love Bob and consider him a family member.

My mother's name is Anna, she is a teacher. She has been working in our local school for a long time. My mom teaches History and Social Studies, the subjects that I really love. She loves reading very much, and her favorite book is "A Street Cat Named Bob" by James Bowen. If you are familiar with the book, you can guess why she named our ginger cat Bob.

2-topshiriq: O'zingiz haqingizda ma'lumot shakllantiring. Buning uchun quyidagi tavsiyaga murojaat eting:

Kirish sifatida o'zingiz haqingizda gapirish qiyinligini eslatib o'tamiz, chunki sizni faqat atrofdagilar xolis ko'ra oladilar. Keyinchalik, suhbatdoshingizni diqqatli tinglovchiga aylantiradigan "Men o'zimni tanishtiraman" iborasi juda mos keladi. Keling, o'zimiz haqidagi hikoyaning taxminiy konturini ko'rib chiqaylik:

Ism va familiya.

Yoshi va tug'ilgan joyi.

Mening oilam haqida.

Men nima qilaman va nima uchun menga yoqadi.

Kelajak uchun rejalar.

Mening xarakterim va tashqi ko'rinishim haqida.

Qiziqishlar va sevimli mashg'ulotlar.

It is hard to speak about myself as only people surrounding me can see me objectively. Then the phrase "Let me introduce myself" will be quite appropriate, which turns your interlocutor into an attentive listener. Let's look at a rough outline of a story about yourself:

Name and surname.

Age and place of birth.

About my family.

What I do and why I like it.

Plans for the future.

About my character and appearance.

Interests and hobbies.

Shuningdek, "Til portfeli"ga quyidagi diskursiv xususiyatli mavzuiy kichik topiklar joylashtirildi. Talabalar ularni o'qishi va tinglab-tushunishi uchun elektron tarzda audio eshitish yozuvlari yuklandi.

Shundan so'ng, talabalar tomonidan yozilgan kichik matnlarni "Til portfeli"ga yuklash bo'yicha topshiriqlar berildi. "Til portfeli"ga joylashtirilgan diskursiv xususiyatli audio yozuvli va matnli kichik topiklar:

Mening hayotim

Bu ruknga talabalar shaxsiy xarakterdagi insholar, o'zi, oilasi, o'yin-kulgilari, ta'til, sevimli mashg'ulotlari, eng yaxshi do'stlari haqidagi hikoyalarni kiritishi mumkinligi e'tirof etildi. Ushbu bo'limdagi barcha mavzular u yoki bu tarzda bevosita hikoya qiluvchining shaxsiyati bilan bog'liq holda qaralishi talabalarga uqtirildi.

Kitoblar

Talabalar tomonidan ushbu bo'limga o'qilgan kitoblari, adabiyot va kitobxonlikning inson hayotidagi umumiy ahamiyati haqidagi hikoyalar kiritilishi uqtirildi va ingliz tilida "Mening sevimli kitobim", "Mening hayotimdagi kitoblar" kabi mavzularda insholar kiritilishi tavsiya etildi.

Mamlakat geografiyasi

Ushbu bo'limga geografik ob'ektlar, shaharlar, mamlakatlar, qit'alar tavsifiga bag'ishlangan kichik matnlarni kiritish tavsiya etildi. Ularning siyosiy tuzilishi xususiyatlari, rivojlanish tarixi, iqtisodiyoti va madaniyati haqida ma'lumotlar talabalar tomonidan o'rganilib, ingliz tilida kichik ma'lumot sifatida joylashtirilishi tavsiya etildi.

Ta'lim

Ingliz tilini o'qitishda o'rganilayotgan mavzular, ma'lum bir mamlakatda ta'limning xususiyatlari, maktab va universitetlarda ta'lim haqida talabalar ushbu bo'limga ma'lumot kiritishlari kerak. Ushbu bo'limdagi barcha ingliz tilidagi insholar ta'lim mavzulariga bag'ishlangan bo'lishi talab etiladi.

Yer sayyorasi: iqlim va atrof-muhit

Ushbu bo'limga talabalar tomonidan atrof-muhit muammolari, iqlimning ifloslanishi, inson faoliyatining atrof-muhitga ta'siri - shu va boshqa shunga o'xshash mavzular bo'yicha mavzular yuklashi tavsiya etiladi.

Tarjimai hol (Biography)

Bu bo'limda buyuk odamlarning tarjimai holi, ularning ilmiy kashfiyoti va ixtirolari hamda ularning ishlari insoniyat kelajagiga qanday ta'sir qilgani haqida ingliz tilidagi hikoyalar to'plangan bo'lishi talab etiladi.

Media, OAV

Ushbu bo'limda ommaviy axborot vositalari haqidagi matnlar mavjud: televizor, gazeta, radio, Internet, senzura, kasbiy etika, ommaviy axborot vositalarining afzalliklari va kamchiliklari masalalari muhokama qilinadi.

San'at: rasm, musiqa, she'riyat

Mazkur bo'limda madaniyat, san'at, rasm, musiqa va kino haqida ingliz tilida matnlar jamlangan. Unda mamlakatimiz va xorijdagi mashhur muzeylar, ko'rgazma galereyalari haqidagi hikoyalar ham o'rin olgan.

Bayramlar va an'analar

Dunyoning turli mamlakatlarida qanday bayramlar mavjudligi va ular qanday nishonlanishi haqida hikoyalar. Milliy urf-odatlar va madaniyatlarning xususiyatlari haqidagi insholar jamlangan bo'lishi tavsiya etiladi.

Kasblar va karera (Professions and careers)

Ushbu bo'limda kasb va kasb tanlash haqida ingliz tilida insholar kiritilgan bo'lishi shart. Bu yerda "Mening kelajakdagi kasbim", "Ish bilan ta'minlash" kabi mavzular bo'yicha mavzular jamlangan bo'lishi tavsiya qilinadi.

Jamiyat va uning muammolari

Zamonaviy jamiyatning asosiy muammolari: axloq, jinoyat, yomon odatlar, oila muammolari, huquq va majburiyatlar, o'smirlik muammolari bo'yicha to'plangan insholar mazkur bo'limdan o'rin egallagan.

Fan

Ilmiy mavzulardagi mavzular: buyuk ixtirolar, kosmik tadqiqotlar, sayyoralar tavsifi, kompyuter texnologiyalari va boshqalar haqida qisqa ma'lumotlar jamlangan.

Sport (Sports)

Mazkur bo'limda sport mavzularida insholar to'plami mavjud. Sport tavsiflari, sport tadbirlari, dunyoning turli mamlakatlarida sportning rivojlanishi, sportning hayotimizga ta'siri.

Dialoglar

Ushbu bo'limda talabalar turli mavzularda: "Aeroportda", "Fasllar", "Mening oilam", "Avtobiografiya", "Mening shahrim" kabi diskursiv xususiyatli mavzularda dialog tuzib, joylashtirishlari talab etiladi. Masalan, "In an Airport" dialogi:

Passenger: Excuse me, where is the check-in counter for flight 456?

(Yo'lovchi: Kechirasiz, 456-reys uchun ro'yxatdan o'tish hisoblagichi qayerda?)

Airport Staff: It's to your left, right next to the information desk.

(Aeroport xodimi: U sizning chap tomoningizda, ma'lumot stoli yonida.)

Passenger: Thank you! Also, where can I find a luggage cart?

(Yo'lovchi: Rahmat! Bagaj aravachasini qayerdan topsam bo'ladi?)

Airport Staff: There are luggage carts near the entrance doors.

(Aeroport xodimi: Aravalar kirish eshiklari yonida joylashgan.)

Passenger: Can I get a boarding pass here or do I need to go online?

(Yo'lovchi: Bortga chiqish talonimni shu yerda olsam bo'ladimi yoki buni onlayn qilishim kerakmi?).

Shu va shunga o'xshash dialoglarni talabalar diskursiv xususiyatli elektron resurslardan: <https://skeng.ru/articles/dialogi-na-anglijskom/in-an-airportlardan-topishlari-mumkin>.

Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqilgan metodik tavsifga ega bo'lgan fikrlar "Til portfeli" texnologiyasining mazmuni, ularning

tasnifi, maqsadlarini yoritib beradi Shu bilan birga, turli metodikalar va dasturlarni integrativ o'qitishga zamin hozirlaydi. Uning qo'llanilishi texnologik yondashuv nuqtai nazaridan "Til portfeli" texnologiyasini talabalarning nutqiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatini, shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish amaliyotida u yoki bu texnologiyani tanlash, konkretlashtirish va eksperimental aprobatsiyadan o'tkazish zaruratini ta'minlaydi.

2.3-§. Diskursiv resurslar asosida til o'zlashtirishga yo'naltirilgan konseptual pedagogik model

Diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida talabalarning **ingliz tilida og'zaki, yozma nutqi, eshitish va o'qish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan** model quyidagi ketma-ketlikka asoslangan I -bosqichida amalga oshirildi:

1) ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish bo'yicha ilmiy adabiyotlar, tajribalarni o'rganish;

2) muammoga doir o'tkazilgan tadqiqotlar, amaliyotga taklif etilgan pedagogik modellarning blok-tuzilmasini, shuningdek, diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida til o'rgatishga yo'naltirilgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar hamda metodik amaliyotda qo'llanilgan pedagogik texnologiyalarni qiyosiy-nazariy tahlil qilish;

3) talabalarning diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida til o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan metodikani takomillashtirish uchun ingliz tilini o'qitishda metod va vositalarni aniqlashtirish, konkretlashtirish va tizimlashtirish;

4) ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish algoritmini, jumladan, eksperimentator, ta'lim olayotganlar, pedagoglarlar hamkor faoliyati va o'zaro harakati asosida tashkil etish va o'tkazish yo'li bilan hayotga tatbiq etishni ishlab chiqish, asoslash va tavsiflash.

Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish modelini hayotga tatbiq etish negizidagi metodik tamoyillarga ustuvorlik berildi:

1. Insonparvarlik tamoyili. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda talabalarning nutqiy kompetensiyalarini diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalangan xolda rivojlantirishga nisbatan shaxsga nisbatan yo'nalgan yondashuvni hayotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

2. Demokratizatsiya. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar tizimining mavjudligini ta'minlab beradigan ochiq axborot tizimi va til o'rganishning erkin muloqotli muhiti.

3. Amaliy yo'nalganlik va didaktik ta'minlanganlik. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslarning "Til portfellari"dan o'rin egallashini ko'zda tutadi.

4. Refleksivlik. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish metodikasining qayta aloqaga moslashuvchanligini ko'zda tutadi.


5. Integrativlik. Kompetentlikning mazkur turi rivojini tashkil etish va ta'minlashda shaxsga yo'nalganlik, kompetentlik, texnologik yondashuvlar asosida ingliz tilini integratsiyalab o'qitishni nazarda tutadi.

6. Variativlik. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar mazmuni, o'qitish vositalari, shakllari, metodlari, texnologiyalarini ko'p variantli, bir xil bo'lmagan holda tanlashni ta'minlab beradi.

7. Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning ustuvorligi. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish jarayonini rag'batlantirish va faollashtirish uchun ijobiy bo'lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga yo'nalgan pedagogik (yoki psixologik-pedagogik) qo'llab-quvvatlash tizimini ko'zda tutadi.

Talabalarning diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida ingliz tilini o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan yuqorida ta'kidlangan texnologiyalar bosqichma-bosqich vazifalar shaklida farqlanadigan mashg'ulotda nutq qobiliyatlari va kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zamin yaratdi va nutq faoliyatining har xil turlari: o'qish, tinglash, gapirish, yozishga xizmat qildi.

Talabalarning diskursiv xususiyatli o'quv matnlari asosida til o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan integrativ o'qitish modelini takomillashtirish zarurati aniqlandi va ularning diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida til o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan "Til portfeli" integrativ texnologiyasi ta'lim jarayonini loyihalashtirish, sifatli ta'lim berishga erishish, mashg'ulot maqsadi natijalarini ta'minlashdan iborat bo'ldi (2.2.1-rasmga qarang).



Diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish orqali ingliz tilini o'zlashtirishga mo'ljallangan model-andoza sifatida, ya'ni, biron bir pedagogik hodisaning andozasi, ishlanmasi sifatida qaraldi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, ingliz tilini o'qitish nazariyasida quyidagi model turlari farqlanadi:

- 1) o'qitish maqsadlarini oydinlashtirish va resurslardan oqilona foydalanishga mo'ljallangan - **nazariy modellar**;
- 2) metodologik manba bo'lib xizmat qiluvchi, ma'lumotlar bazasi va harakatlar dasturiga tayangan **konseptual modellar**;
- 3) quyilgan maqsadlarni amalga oshirish va ta'sir o'tkazish vositalari bilan ishlashga mo'ljallangan **vositachilik modellar**; 4) kutilmagan vaziyatlarda qarorlar qabul qilish va ishlab chiqishga yo'naltiruvchi **refleksiv modellar**.

Ko'rsatib o'tilgan modellar talabalarining diskursiv xususiyatli elektron resurslar asosida til o'zlashtirishlariga yo'naltirildi va sifatli ta'lim berishga erishish, mashg'ulot maqsadi natijalarini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Ta'lim jarayonida integrativ texnologiyalar: "Til portfeli", AKT texnologiyalari: Veb-kvest, Loyiha kabilarning qo'llanilishi, mashg'ulotlarning rang-barangligiga, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o'quv materiallarining chuqur o'zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Modeldan o'rin olgan zamonaviy o'qituvchining ijtimoiy-pedagogik faoliyati bosqichlari, ya'ni motivasion, faoliyatli-tizimli, idrok-mushohada, refleksiv, monitoring-baholovchilarni loyihalashtirish uchun tajriba davomida:

- 1) dialogga asoslangan interfaol texnologiyalar: Keys-stadi, Morfologik quti, Modul-reduktiv o'quv texnologiyasi va h.k.;
- 2) Dasturlashtirilgan texnologiyalar: diagnostik, prognostik;
- 3) Raqamli o'qitish texnologiyalari: Veb-kvest, Striming, Skamper;
- 4) o'yinli o'qitish texnologiyalari: Geymifikatsiya, Breyn-Ring, Barrel jumboqlari va boshqalardan foydalanildi.

Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik modelning asosiy bloklari bir necha qismlarga ajratildi (2.2.2-jadvalga qarang).

2.2.2-jadval.

Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish modelining asosiy bloklari

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar		
Diagnostikaning mezonlari va metodlari	Ingliz tilini integratsiyalab o'qitish	Til portfeli texnologiyasida diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish
Modelning asosiy tuzilmaviy komponentlari		

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning pedagogik modeli quyidagi bloklardan iborat:

1. "Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar" markaziy bloki. Ushbu blokda eksperimental guruhda ishtirok etayotgan respondentlar va eksperimentatorning o'zaro ta'siri va faoliyati vositasida o'zga bloklarning realizatsiyasiga yo'naltirilgan.

2. "Modelning tuzilmaviy komponentlari" – asosiy (fundamental), chunki u mazkur modelning tuzilmasiga kiradigan o'zga bloklarning mazmuni va funksiyasi uchun nazariy va metodologik asos hisoblanadi.

3. "Diagnostikaning mezonlari va metodlari" – diagnostikasining mezonlari va metodlari kiradi. Eksperimental guruhda quyidagi mezonlardan foydalaniladi: tashkiliy, faoliyatli, motivatsion, kognitiv, kreativ, refleksiv. Diagnostika natijalarini

baholashda quyi, o'rta, optimal, yuksak darajalarini xarakterlaydigan darajaviy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Diagnostika metodlari: diagnostik suhbat, bevosita kuzatish, anketa so'rovnomasi, test o'tkazish, ekspert baholari va o'zini o'zi baholash.

4. "Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar".

Ingliz tilini integratsiyalab o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning shart-sharoitlari, tartiblashtiradigan normativ aktlar, talabalarining o'zini o'zi rivojlantirish jarayonlarini tashkil qilishni ilmiy-metodik ta'minlash va h.k. Shu bilan birga, eksperimental guruhlarda o'tkazilgan mashg'ulotlarda quyidagi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar saqlanadi: **kreativ pedagogika**⁷⁰ sohasida o'qituvchini predmetli, metodik, kommunikativ ijodi haqidagi bilimlar bilan ta'minlash. Erkin, majburiy bo'lmagan o'quv vaziyatini, ochiq, ishonchli muomala muhitini yaratish. Talabalarining ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirish, noodatiy savollarga, noodatiy g'oyalarga, takliflarga diqqat bilan munosabatda bo'lish va ijodiy ish uchun ularning ahamiyatini baholash; ta'lim oluvchilarning ijodiy faolligini faollashtiradigan masalalardan foydalanish ("Aqliy hujum", mavzuviy munozaralar, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, yechish va boshq.); ijodiy muhitni yaratish va til treninglari va boshqa mashg'ulotlar uchun muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish.

5. "Rivojlantirish texnologiyalari va monitoringi" - ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning diagnostikasi, trening mashg'ulotlari, boshqa tadbirlar natijalarini va eksperimental guruhlardagi natijalarini kuzatish va qayd etish hisoblangan pedagogik monitoringni o'tkazish uchun "Til portfeli" texnologiyasidan foydalanish maqsadida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, integratsiya masalalari o'qitish bosqichiga va talabalarining yosh guruhiga qarab o'zgarib turadigan kontent

⁷⁰ Киргуева Ф. Х. Технология "Познание – Интерпретация – Творчество" в подготовке будущих педагогов. – Владикавказ: СОГУ, 2019. – 210 с.

bloklarini qo'shish yoki almashtirish orqali hal qilinadi. O'zgaruvchan modulli bloklarning tarkibi farqlanadi. Integratsiya haqida ko'p gapirilganiga qaramay, shunga qaramay, turli fanlar va hatto bir xil fanning eng xilma-xil bo'limlari hali ham o'rganilmagan qirralari mavjudki, ular fanning boshqa jihatlarini va boshqa o'quv fanlari bilan deyarli bog'liq bo'lmagan masala sifatida taqdim etiladi. Talabalar turli fanlar va ularning tarkibiy qismlari o'rtasidagi funksional aloqalarni ko'rishlari va bilimlarni o'zlashtirishda umumiy uslubiy yondashuvlarni aniqlay olishlari kerak.

Modelning tuzilmaviy komponentlari.

Mazkur Modelga kirgan tuzilmaviy (asosiy) komponentlarga quyidagilar kiradi: maqsadli; metodologik; mazmuniy; diagnostik; kognitiv; kreativ; motivatsion; faoliyatli; kommunikatsion; refleksiv; monitoringli. Mazkur komponentlar, ularning mazmuni va funksiyalari 2.2.3- jadvalda o'z aksini topgan.

2.2.3- jadval.

Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish modelining asosiy tuzilmaviy komponentlari

Nomi	Komponentning funksiyasi va mazmuni
Maqsadli komponent	Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar maqsadlari va vazifalari tizimiga kiradi. Bu komponent tizimni tashkil etuvchi bo'lib, ularning mazmuniy tomonini ishlab chiqishning asosiy omili hisoblanadi. Kutilgan natija sifatida bizning tomonimizdan model realizatsiyasining maqsadi – ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning tashkiliy, metodik va amaliy ta'minlash.
Metodologik	Metodologik yondashuvlarning to'plamidan iborat: Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda

komponent	diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish metodikasi realizatsiyasi asosida yotadigan tizimli, shaxsga yo'nalgan, faoliyatli, kompetentli, texnologik yondashuvlar. Shuningdek o'qitish jarayonini boshqaradigan tamoyillar.
Mazmuniy komponent	Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish bo'yicha nazariy va metodik bilimlardan iborat; tushunchali atamali apparat; ijodiy kompetentlikning ta'rifi va tuzilmasi; mezonlari va ko'rsatkichlarining; pedagogik diagnostika metodikalari, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, "Til portfeli" texnologiyasi mazmuni. Ingliz tilini o'qitishning ta'limiy-rivojlantiruvchi jarayon mazmuni.
Tashkiliy komponent	Bu komponent ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirishga yordam beradigan kompleks tadbirlarni tashkil etish uchun mo'ljallangan. Unga quyidagilar kiradi: -tajribaviy-eksperimental ishda tashkiliy-pedagogik sharoit yaratish; qo'shimcha suhbatlar, mini-ma'ruzalar; - Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda eksperimental guruhlarda o'qituvchilar bilan guruhiiy maslahatlar, suhbatlar o'tkazish; - anketali so'rovnoma va test sinovlarini o'tkazish); -"Til portfeli" texnologiyasidan foydalangan holda ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish mashg'ulotlarini o'tkazish -diagnostik tadbirlar, trening mashg'ulotlari va

	boshqa tadbirlar natijadorligi va samaradorligini baholash maqsadida ularning natijalarini muhokama qilish bilan bog'liq bo'lgan diskussiya, guruhiiy suhbat o'tkazish.
Diagnostik komponent	Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishga yo'naltirilgan metodikani tatbiq qilish; o'zini o'zi kasbiy-ijodiy rivojlantirish; nutqiiy kompetentligini o'zi baholashi va uning rivojlanganlik darajasi (eksperimental ishni o'tkazguncha va tugagandan keyin) baholash maqsadida diagnostik tadbirlar (diagnostik suhbatlar, anketa so'rovnomalari, test o'tkazish va boshq.)ni amalga oshirish uchun mo'ljallangan.
Kognitiv komponent	Mazkur komponentning realizatsiyasi ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish metodikasini tatbiq qilish, shuningdek, shaxsiy, kasbiy-ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish masalalari bo'yicha zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishga oid talabalarning bilish faolligini ta'minlashga yo'nalgan.
Kreativ komponent	Mazkur komponentning realizatsiyasi ijodiy faoliyatga nisbatan talabalarning ingliz tilini o'zlashtirishlarida ijodiy sifatlari va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'nalgan. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslarning shaxsning yuksak yoki etarli darajadagi optimal intellektual qobiliyatlari va ijodiy sifatlarni rivojlantirishda foydalaniladi.
Motivasion komponent	Mazkur komponentning realizatsiyasi trening mashg'ulotlari va suhbatlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

	Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning zahirida talabalarning shaxsiy va kasbiy-ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishning konkret ijobiy motivlarini; kreativ qobiliyatlarini; kommunikativ malakalarini ishlab chiqish maqsadida ularni faollashtirish va motivasiyasini rag'batlantirish; shuningdek, ularning ijodiy rivojlanishi uchun malakalaridan foydalanishga nisbatan intilishi hisoblangan motiv nazarda tutiladi.
Faoliyatli komponent	Ijodiy faoliyatda talabalarning bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, ijodiy tajribasi va shaxsiy sifatleri to'plami realizatsiyasi. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalangan holatda talabalar o'zlarida ijodiy faoliyatni amalga oshiradigan harakatlar (operasiyalar), metodlar va usullar to'plamini mujassamlashtiradi.
Kommunikasion komponent	Samarali pedagogik muomalani tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan kommunikativ ijod nuqtai nazaridan qaralgan kommunikativ malakalarni rivojlantirish nazarda tutiladi. Mazkur komponent ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslarning optimal kommunikasiyani va o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirishda xizmat qilishini anglatadi.
Refleksiv komponenti	Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar talabalarni individuallik va o'zining shaxsiy va ijodiy qobiliyatlarini o'zi baholovchi; o'z ijodiy kompetentligining darajasini baholovchi; shuningdek, o'ziga o'zi ta'lim berish va kasbiy-ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish yo'li bilan o'zini o'zi

	takomillashtiruvchi sifatida xizmat qiladi.
Monitoring	Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslar diagnostika natijalarini, trening mashg'ulotlarini va boshqa tadbirlarni, shuningdek, ijodiy kompetentlikni rivojlantirish natijalarini kuzatish va qayd etish hisoblangan pedagogik monitoringni o'tkazish maqsadida tatbiq etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish almashtiriladigan real ob'ektning soddalashgan model ko'rinishida foydalanishiga asoslanadi (masalan, moddiy, texnik, sxematik, informatsion, kompyuter va h.k.). Tashkil qilingan model amalda yoki ma'lum pedagogik ob'ektni tushuntirish, o'rganish, aniqlashtirish maqsadida uni tasvirlashning (reprezentatsiya qilishning) tadqiqiy usuli sifatida foydalanildi; ob'ektning model bilimlarning tahlili asosida o'sha ob'ektning tuzilishiga, faoliyatiga, rivojlanishiga ta'sir qilish imkoniyatini beradigan instrument sifatida foydalanildi. Jumladan, ingliz tilini integratsiyalab o'qitishda ta'lim tizimlari, shaxsning shakllanishi va rivojlanishining "Til portfeli" texnologiyasi va dasturining mazmunini ishlab chiqishda o'z tasdig'ini topdi.

Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish asosida talabalarning til o'zlashtirishlari uchun ingliz tili o'qituvchisidan har bir mashg'ulotni tashkil etishda quyidagi pedagogik talablarga alohida ahamiyat berish taqozo etiladi: talabalarning o'rganilayotgan ingliz tilidagi matn yuzasidan avvalgi olgan bilimlarini tartibga solish va ulardan foydalanish; diskursiv xususiyatli o'quv materiallarini modellashtirishda unikal dizayn va taqdim etishda interfaol usullar keng foydalanish; modul bo'yicha o'quv materiallarini tayyorlashda aniq mavzuli va kontekstli tarzda pedagogik jarayonga kiritilishiga e'tibor qaratish; o'zlashtirilayotgan

materialga talabalarining o'zlashtirish xususiyatlariga ko'ra usullarni qo'llash; muammoli o'rinlarda talabalarining tanqidiy fikrlashini va erkin muloqot harakatlarini ta'minlashga sharoit yaratish; talabalar bilimlari va amaliy harakatlari nazoratini tizimli amalga oshirish.

Ingliz tili o'qituvchisi "Til portfeli", "Tilni tezkor o'zlashtirish" integrativ texnologiyalarini quyidagi ta'lim turlarida tatbiq etiladi (2.2.4-jadvalga qarang):

2.2.4-jadval.

Integrativ ta'lim texnologiyalarining ta'lim turlarida tatbiq etilishi va ingliz tilini o'qitish jarayoniga adaptivlashishi

TA'LIM TURLARI	Maqsad	Natija
Jamoaviy	Talabalarining ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishlariga erishish	Hamkorlik, birgalikda harakat qilishga erishiladi
Shaxsga yo'naltirilgan	Badiiy matndagi g'oyaviy-semantik belgilarni aniqlash	demokratlashtirish, liberallashtirish, munosabatlarni teng huquqli qilishga yo'naltirish;
Belgili-kontekstli	Diskursiv xususiyatli matn orqali talabalarining o'zga til madaniyatini chuqur o'rganish	o'zaro bir va yaxlit maqsadga, ya'ni ta'lim samaradorligini ta'minlashga, uning natijaliligini ta'minlashga yo'naltirish
Faol va interfaol o'qitish	guruhlarda ishlash, SWOT analiz, aqliy hujum, akvarium,	Emosional-mazmuniy munosabat

	zinama-zina, idrok haritasi, klaster, tahsil oluvchi o'qituvchi rovida, rolly o'yinlar, keys-stadi, ARIZ, bumerang, suhbat, diskussiya orqali ta'lim maqsadiga erishish	
Modullashtirilgan ta'lim turlari	Liderlik maktablari, oratorlik turnirlari, ORYeN space, video konferensiya, E-learning, mobil ta'lim va boshqalar orqali o'quv materialini samarali o'zlashtirish	ma'lumotlarning ochiqligi, transparentligi, milliylik va umumbashariylik tamoyillarining ishlashi va amal qilishi
Dasturlashtirilgan ta'lim	Lingofon kabinetlardan foydalanish orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish	Konstruktiv ta'lim
Rivojlantiruvchi ta'lim	Loyihalar asosidagi ta'lim va metodikani rivojlantirish	o'quv-ta'limiy jarayonni yangi mazmunda qayta shakllantirish va tashkil qilishdagi barcha ijobiy yangilanish va o'zgarishlar;

Talabalarining diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanish orqali ingliz tilini o'zlashtirishlariga yo'naltirilgan integrativ texnologiyalar ularda o'qish ko'nikmalarining rivojlanganligini nazorat qilishga keng imkoniyat yaratdi. Bunday

texnologiyalar elektron platforma va raqamli ta'lim muhitida turli janrdagi autentik matnlar bilan ishlash, interaktiv topshiriqlar orqali mazmunni anglash, tahlil qilish hamda interpretatsiya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda tilni intensiv o'zlashtirish imkonini beruvchi kompetensiyaviy yondashuvlar, adaptiv ta'lim texnologiyalari, loyiha metodlari, til malakalari shakllanganligini o'z vaqtida va shaffof monitoring qilishga qaratilgan formativ baholash instrumentlaridan foydalanish tajribalardan kutilgan natijalarga erishish imkonini berdi. Shuningdek, ingliz tilini o'rganish va bu tilda samarali muloqot qilishga o'rgatish uchun talabalarning individual ta'lim trayektoriyasini hisobga olgan holda elektron resurslar orqali mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etish, refleksiya va o'z-o'zini baholash elementlarini joriy etish o'quv jarayoni samaradorligini yanada oshirdi. Bundan tashqari, diskursiv tahlil, kritik fikrlash va metakognitiv strategiyalarga asoslangan topshiriqlarni elektron muhitda qo'llash talabalarning matn bilan ishlashda chuqur anglash, xulosa chiqarish va kommunikativ maqsadni anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada, integrativ texnologiyalar nafaqat ingliz tilini o'zlashtirish jarayonini optimallashtiradi, balki talabalarning o'qish ko'nikmalarini ob'ektiv va tizimli baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, diskursiv yondashuvga asoslangan elektron topshiriqlar orqali talabalarning o'qish ko'nikmalarini shakllantirish va nazorat qilishda formativ va summativ baholash usullari, diagnostik testlar hamda adaptiv baholash vositalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Natijada, diskursiv xususiyatli elektron resurslarga tayangan integrativ texnologiyalar talabalarning ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini samarali rivojlantirish bilan bir qatorda, mazkur ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini ilmiy asoslangan tarzda baholash imkonini yaratdi. Bu esa tadqiqotning metodik ahamiyatini oshirib, uning nazariy va amaliy qiymatini belgilaydi. Shuningdek, yozish ko'nikmalari mashg'ulot davomida turli xil topshiriqlar asosida tekshirib ko'rildi.

XULOSA

Ingliz tilini o'qitish metodikasida «integratsiya» - o'qitishning mazmuni, shakllari, usullari, tamoyillarini bir butunga birlashtirish va ilmiy, kasbiy, umumiy ta'lim va til o'qitish elementlarining o'zaro bog'liq majmuidir. Integratsiyani jarayon sifatida tavsiflash ushbu proseduraning quyidagi eng zarur o'zgarmas bosqichlarini aniqlashga yordam beradi: tizimni shakllantiruvchi omilni aniqlash, yangi dastur tuzilishini yaratish, tarkibni qayta ishlash, samaradorlikni tekshirish va natijalarni tuzatish kabilardan iborat. Ushbu invariantlar professor- talabalar uchun o'quv dasturini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin. Binobarin, o'qitish metodikasida integratsiya yaxlit o'quv jarayonini modellashtirish maqsadida paydo bo'lgan,-degan xulosaga kelish mumkin.

Integrator vazifasini bajaradigan tizimni tashkil etuvchi omil bo'lmasa, talabalar tomonidan o'quv materialini samarali o'zlashtirish, bilimlarni birlashtirish murakablashadi.

Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda o'qituvchining faoliyati talaba shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsek, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda talabalar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Talabalarga qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. Ta'lim jarayonida talabalarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Ingliz tilini o'qitishda talabalar uchun taqdim qilinadigan diskursiv xususiyatli o'quv materialida katta ahamiyatga ega, chunki u asosida o'qituvchi o'qitish jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi. Ingliz tilidagi o'quv materialida fe'llar, ot, olmoshlar, bog'lovchilar va ba'zi qo'shimchalar so'zlarning tarkibiy birliklarini bog'lash uchun sinonimlar, antonimlar va parallel sintaktik konstruksiyalar mavjudligi sababli, ular til

o'zlashtirishda samarali ekanligi tilni o'zlashtirish davomida o'z tasdig'ini topadi.

Til portfeli" texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda diskursiv xususiyatli o'quv materialidan individual yo'nalganlikda foydalanish talabalarining o'zlari haqida va shaxsiy stereotiplari haqidagi tasavvurlari o'zgaradigan refleksiv muhitni yaratadi, bunda interfaol ma'ruzalar; video va audio materiallar, amaliy masalalar, keys-metod, ishtirokchi amaliyotidan vaziyatlarni tahlil qilish; videoyozuvlarni tahlil qilish bilan amalga oshiriladigan rolli o'yin; kichik guruhlardagi ish; guruhiy diskussiya; ijodiy muammoli metod; intensiv o'zaro ta'sir orqali qaytar aloqa; g'oyalar taqdimoti; modul-loyiha; test o'tkazish; natijalarning keyinchalik tahlil qilinishi bilan kechadigan imtihonni qamrab oladi.

Diskursiv xususiyatli elektron resurslar, ya'ni prezentatsiyali taqdimot asosida talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmalari shakllantiriladi: bunda muammo yechimini topish uchun: tahlil, solishtirish, qiyoslash, ma'lumotlar to'plash, ilmiy farazni ishlab chiqishga, tajriba-sinov o'tkazishga, umumlashtirishga keng yo'l ochiladi.

GLOSSARY

1. **Integrativ yondashuv** - turli metod va ko'nikmalarni birlashtirib o'qitish usuli.
2. **Diskurs** - nutqning kontekstga bog'liq holdagi kengroq shakli.
3. **Diskursiv kompetensiya** - matn va nutqni mantiqiy bog'lab tushunish qobiliyati.
4. **Elektron resurs** - internet yoki texnologiya orqali foydalaniladigan o'quv material.
5. **Multimodal material** - matn, audio va video birgalikda ishlatilgan material.
6. **Kommunikativ kompetensiya** - samarali muloqot qilish qobiliyati.
7. **Interaktivlik** - o'quvchi va tizim o'rtasidagi faol aloqadorlik.
8. **Autentik material** - real hayotdan olingan asl o'quv materiallari.
9. **Pragmatika** - tilning amaliy qo'llanilishi haqidagi fan.
10. **Nutq akti** - ma'lum maqsad bilan aytilgan gap yoki ibora.
11. **Ko'nikma integratsiyasi** - tinglash, gapirish, o'qish va yozishni birlashtirish.
12. **Didaktik vosita** - o'qitishda foydalaniladigan yordamchi material.
13. **O'quv platformasi** - online ta'lim beruvchi tizim.
14. **Feedback (fikir-mulohaza)** - o'quvchining ishiga berilgan baho yoki izoh.
15. **Motivatsiya** - o'rganishga bo'lgan ichki rag'bat.
16. **Kontekst** - nutq yuzaga kelgan sharoit yoki vaziyat.
17. **Lingvistik kompetensiya** - grammatika va lug'atni bilish darajasi.
18. **Sotsiolingvistik kompetensiya** - tilni ijtimoiy vaziyatga mos qo'llash qobiliyati.
19. **Strategik kompetensiya** - muloqotdagi muammolarni hal qilish qobiliyati.
20. **Virtual muhit** - raqamli o'quv muhiti.
21. **Onlayn ta'lim** - internet orqali olib boriladigan ta'lim.

22. **Blended learning** - an'anaviy va onlayn ta'limning uyg'unlashuvi.
23. **E-learning** - elektron vositalar orqali o'qitish.
24. **O'z-o'zini o'rganish** - mustaqil ravishda bilim olish jarayoni.
25. **Adaptiv ta'lim** - o'quvchiga moslashgan o'qitish tizimi.
26. **Vizual material** - ko'rish orqali qabul qilinadigan material.
27. **Audio material** - eshitish orqali o'rganiladigan material.
28. **Video dars** - videoko'rinishdagi o'quv mashg'uloti.
29. **Platforma navigatsiyasi** - tizim ichida harakatlanish qulayligi.
30. **Interfaol topshiriq** - faol ishtirokni talab qiladigan mashq.
31. **Til muhiti** - til ishlatiladigan tabiiy yoki sun'iy muhit.
32. **Kommunikativ vazifa** - muloqotga yo'naltirilgan topshiriq.
33. **Metodik yondashuv** - o'qitish usullarining tizimi.
34. **Pedagogik texnologiya** - ta'limni samarali tashkil etish usuli.
35. **Baholash mezoni** - natijani aniqlash uchun kriteriyalar.
36. **Formatif baholash** - jarayon davomida baholash.
37. **Summativ baholash** - yakuniy natijani baholash.
38. **Raqamli savodxonlik** - texnologiyalardan foydalanish qobiliyati.
39. **Kollaborativ o'qitish** - guruhda o'rganish usuli.
40. **Individual yondashuv** - har bir o'quvchiga alohida e'tibor berish.
41. **Gamifikatsiya** - o'qitishda o'yin elementlaridan foydalanish.
42. **Diskurs tahlili** - nutqni chuqur tahlil qilish jarayoni.
43. **Til faoliyati** - nutqiy harakatlar (gapirish, yozish va h.k.).
44. **Refleksiya** - o'z o'rganishini tahlil qilish.
45. **Kognitiv jarayon** - fikrlash va anglash jarayoni.
46. **Metakognitiv strategiya** - o'z o'rganishini boshqarish usuli.
47. **Interkultural kompetensiya** - boshqa madaniyatlarni tushunish qobiliyati.
48. **Kontent asosida o'qitish** - mavzu orqali til o'rgatish.
49. **Task-based learning** - vazifaga asoslangan o'qitish usuli.
50. **Resurs integratsiyasi** - turli materiallarni birgalikda qo'llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. – T.: 2020- y. 23- sentyabr/ <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi 2003-yil 11-dekabrda 560-son "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonun, 560-son // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. — 2004.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

4. Abdullayeva Sh. Oliy ta'lim didaktikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 56-b.
5. Абдупаттоев А. Матн ва дискурс муаммолари. — Тошкент: Фан ва технология, 2016. — 210 б.
6. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. — М.: Языки русской культуры, 1999. — 896 с.
7. Асадов Ю. М. Технологический подход в образовании: теория и практика. – Ташкент: Фан, 2010. – 184 с.
8. Ашурова Д. У. Матн лингвистикаси. — Тошкент: Фан ва технология, 2012. — 240 б.
9. Бакарева Л. Н. Интеграция учебных дисциплин в современной школе. — М.: Педагогика, 2000. — 176 с.
10. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
11. Белиская Г. Е. Язык как знаковая система. — М.: Наука, 1989. — 192 с.
12. Беляева А.П. Интеграционные процессы в педагогике. — Санкт-Петербург: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2005. — 256 с.

13. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М. : Прогресс, 1974. – 447 с.
14. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию. –М.:Изд-во АН, 1963. Т.1. – С. 349;
15. Блум Б., Энглхарт М., Ферст Э., Хилл У., Кратвол Д. Таксономия педагогических целей. Классификация целей обучения. – М.: Педагогика, 1976. – 256 с.
16. Букова Г. Н. Языковой портфель в системе обучения иностранным языкам. – М.: Флинта, 2019. – 180 с.
17. Есперсен О. Философия грамматики = *The Philosophy of Grammar* / О. Есперсен; пер. с англ. В. В. Пассека, С. П. Сафроновой; под ред. Б. А. Ильиша. — М.: Издательство иностранной литературы, 1958. — 404 с.
18. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М. : Прогресс, 1984. – 397 с.
19. Джураев Р.Х. У мумий уРта таълимда интеграциялашган таълим-давр талаби // Фанларни интеграциялаб укитишнинг педагогик шарт-шароитлари:Тез.докл. Респ. Илмий-амалий конф. 18-19 май 2007 й. - Тошкент, 2007, 5-8 б.
20. Жуманиёзова М, Таълимда билимлар интеграцияси. Фанларни интеграциялаб укитишнинг педагогик шарт шароитлари. УзПФИТИ. Т.: 2007.-Б.47-49.
21. Жуманиёзова М.Р. Интеграция таълим самандорлигини ошириш омили. Таълим муаммолари конференция материаллари.ТДГ1У. Т.: 2005.
22. Зарубина Н.Д. Текст: лингвистический и методологические аспекты. -М.:Русский язык, 1981. -183с.;
23. Икрамханова Ф. М. Интеграция учебных дисциплин как фактор повышения эффективности обучения. – Ташкент: Фан, 2008. – 148 с.
24. Искандарова Ш. Тил системасига майдон сифатида ёндашув. -Т.: Фан, 2007. -151б;
25. Капустина Т. В. Языковой портфель как средство развития автономии учащихся при обучении иностранным языкам. – М.: Просвещение, 2008. – 144 с.
26. Кибрик А.Е. Очерки по общим и прикладным вопросам языкознания (универсальное, типовое и специфическое в языке). - 2-изд. –М.: Эдиториал, 2001. –С. 9.
27. Киргуева Ф. Х. Технология “Познание – Интерпретация – Творчество” в подготовке будущих педагогов. – Владикавказ: СОГУ, 2019. – 210 с.
28. Киселева К. Л., Пайар Д. Дискурсивные слова русского языка: контекстное варьирование и семантическое единство. – М.: Азбуковник, 1998. – 207 с.
29. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. – М.: Педагогика, 1994. – 222 с.
30. Stephen D Krashen Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
31. Леонтьев А. Н. Проблемы развития психики. — М.: Издательство МГУ, 1981. — 584 с.
32. Левина М. М. Технологии профессионального педагогического образования. – М.: Академия, 2012. – 256 с.
33. Максимова В. Н. Межпредметные связи в процессе обучения. – М.: Просвещение, 1988. – 191 с.
34. Мамажонов А., Абдупаттеев М. Матн назарияси. -Фарғона, 2016. -114б.;
35. Махмутов М. И. Проблемное обучение: основные вопросы теории. – М.: Педагогика, 1993. – 192 с.
36. Моррис Ч. Основания теории знаков // Семиотика: Антология. — М.: Академический проект, 2001. — С. 45–97.
37. Моррис Ч. Знаки, язык и поведение. — М.: Прогресс, 1982. — 192 с.

38. Muratov X.X. Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi. Ж.: Academic research in educational sciences volume 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723/ <https://cyberleninka.ru/article/n>.
39. Никитин М. В. Основы лингвистической семантики. — М.: Высшая школа, 2007. — 168 с.
40. Нормуродова Н.З. Инглиз бадийи дискурсида антропоцентризмнинг вербал экспликацияси. Филол.фанлари докт. дисс. автореферати. –Т., 2020. – Б. 17.
41. Нурмонов А. Принцип экономии в фонетических изменениях узбекского языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1973. – 182с.;
42. Олешков М. Ю. Педагогическая технология: проблема определения понятия // Педагогика. – 2005. – № 6. – С. 3–7.
43. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.
44. Пирс Ч. С. Избранные философские произведения. — М.: Логос, 2000. — 448 с
45. Потебня А. А. Мысль и язык. — М.: Лабиринт, 1999. — 300 с.
46. Qo'shchanov M.K., Akobirov S.T. Ruscha-o'zbekcha lug'at. — Toshkent: O'qituvchi, 1984. — 368 b.
47. Расулов З. И. Нутқий тузилмалар ахборот-дискурсив мазмуни шаклланиши жараёнида тежамкорлик тамойилининг фаоллашуви (инглиз ва ўзбек тиллари материали асосида) 10.00.06 – Қиёсий адабиётшунослик, чоғиштира тилшунослик ва таржимашунослик филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати Бухоро – 2022
48. Реформатский А. А. Введение в языковедение. — М.: Аспект Пресс, 1996. — 536 с.

49. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. — 300 б.
50. Светловская Н. С. Интеграция содержания обучения в начальной школе. — М.: Педагогика, 1991. — 160 с.
51. Слостёнин В. А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Педагогика: учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. – М.: Академия, 2002. – 576 с.
52. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – С. 32.
53. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики. — Екатеринбург: Изд-во Уральского университета, 1999. — 432 с.
54. Ульман С. Семантика. Введение в науку о значении. — М.: Прогресс, 1970. — 320 с.
55. Урсул А.Д. Информация. Методологические аспекты. – М.: Наука, 1971.
56. Выготский Л. С. Мышление и речь. — М.: Лабиринт, 1999. — 352 с.
57. Шерстяных И. В. Дискурсивные слова в структуре современного русского языка. – Иркутск: Изд-во Иркутского государственного университета, 2005. – 192 с.
58. Авесто / тарж. ва изоҳлар муаллифи А. Маҳкам. — Тошкент: Шарқ, 2001. — 368 б.
59. Bloomfield L. Language. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1933.— 564 p.
60. Chafe W. L. Discourse, consciousness, and time: The flow and displacement of conscious experience in speaking and writing. — Chicago: University of Chicago Press, 1994. — 344 p.
61. Edmondson W. Spoken Discourse: A Model for Analysis. – L.:Longman, 2005. – 310p.;
62. Galieva M. R. Interpretation of literary text — Tashkent: Turon-Iqbol, 2015— 198 p.
63. Gardiner A. The theory of Speech and Language. –Oxford: Oxford University Press, 1951. – 316 p.;

64. Martinet A. A functional view of language. — Oxford: Clarendon Press, 1962. — 198 p.

65. Scheloff E. Goffman and analysis of conversation // Erving Goffman: Exploring the Interaction Order. — Cambridge: CUP, 1988. — P. 89-135.;

66. Yokoyama O.T. *Discourse and Word Order*. Amsterdam—Philadelphia: John Benjamins, 1986.

67. Whitney W.D. The Life and Growth of Language. An Outline of Linguistic Science. — New York: Appleton and Company, 1997. — 326 p.

Internet resurslari

68. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. INGLIZ TILINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHDA DISKURSIV XUSUSIYATLI ELEKTRON RESURLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI	5
1.1-§. Ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning konseptual asoslari.....	5
1.2-§. Ingliz tilini integrativ o'qitishda diskursiv xususiyatli elektron resurslardan foydalanishning sintaktik-axborot tizimi.....	27
1.3. Ingliz tilini integrativ o'qitishda tilning semiotik xususiyatlaridan foydalanish	42
II-BOB. TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI O'QUV MATERIALINI SAMARALI O'ZLASHTIRISHLARIDA INTEGRATIV O'QITISHNING SHART-SHAROITLARI.....	58
2.1. Ingliz tilida taqdim qilinadigan o'quv materiallarida diskursiv komponentlarning integrativ tamoyillari.....	58
2.2-§. Talabalarning diskursiv elektron resurslar asosida til o'zlashtirishini rivojlantirishda "Til portfeli" texnologiyasidan foydalanish.....	78
2.3-§. Diskursiv resurslar asosida til o'zlashtirishga yo'naltirilgan konseptual pedagogik model	95
XULOSALAR.....	110
GLOSSARY	112
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	114

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

QAYDLAR UCHUN

YUSUPOVA MUXABBAT ANATOLEVNA

**INGLIZ TILINI INTEGRATIV O'QITISHDA
DISKURSIV ELEKTRON RESURLAR:
NAZARIYA VA AMALIYOT**

MONOGRAFIYA

Monografiya muallif tahririda taqdim etilgan.

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: D. Toshboltayev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 08.06.2026 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Cambria"
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 7,75.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 25.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01



ISBN 978-9943-6059-6-1



9 789943 605961